

**Teshabayeva Zamira Sobirovna**

# **BOLALARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Teshabayeva Zamira Sobirovna

## **BOLALARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVI**

*Darslik*

*Ta'lim yo'nalishi: 60110200 - Maktabgacha ta'lim*

Toshkent  
«Sarbon LLS»  
2024

UO'K 373.2;37.06

KBK 74.1

T-19

Teshabayeva Z.S. BOLALARNING IJTIMOY MOSLASHUVI.  
Darslik. – T.: "Sarbon LLS", 2024. 152 b.

**Mas'ul muharrir:**

**Xurvalieva T.L.** - ChDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedra professori, p.f.d. (DSc).

**Taqrizchilar:**

**Nosirova R.X.** - ChDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedra dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Gaynazarova G.A.** - Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim texnologiyasi" kafedra dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Mazkur darslikda maktabgacha ta'lim yo'nalishi bakalavriyat talabalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy tarbiyani tashkil etishdagi kasbiy kompetentligini shakllantirishga oid ma'lumotlar bayon etilgan.

Darslikda "Bolalarning ijtimoiy moslashuvi" fanining asosiy masalalari, nazariy-metodologik asoslari, maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvi jarayonida ta'lim berish usullari va xususiyatlari, ularni amalda qo'llay bilishning nazariyasi va uslubiyati keng yoritilgan.

Darslikda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual jihatdan rivojlantirishda kvalimetrik kompetensiyaning o'рни va ahamiyati, hamda bolalarning har tomonlama rivojlanishida, ijtimoiy tarbiyalashda g'amho'rlik qiluvchi oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab va mahalla bilan hamkorlik ishlarini amalga oshirishga oid ko'nikma va malakalarni hosil qilish vazifalari yoritiladi.

UO'K 373.2;37.06

KBK 74.1

ISBN 978-9910-9398-5-3

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                      |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>Kirish</b> .....                                                                                                                  | <b>3</b>   |
| §1. Ijtimoiy rivojlanishning nazariy asoslari .....                                                                                  | 5          |
| §2. Sotsium va bola shaxsi .....                                                                                                     | 15         |
| §3. Tarbiya ijtimoiylashuv omili sifatida. Tarbiya tamoyillari .....                                                                 | 26         |
| §4. Bolalarni ijtimoiy-axloqiy tarbiyalash jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning roli .....                           | 32         |
| §5. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi amaliyoti .....                                                           | 48         |
| §6. Ijtimoiy ta'lim shaxs ijtimoiylashuvi omili sifatida .....                                                                       | 54         |
| §7. Maktabgacha yoshdagi bola ijtimoiy ta'lim ob'ekti va subyekti sifatida .....                                                     | 58         |
| §8. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy tajribani shakllantirish .....                                      | 64         |
| §9. Ijtimoiy rivojlanishida pedagogik faoliyat metodlari va texnologiyalar .....                                                     | 67         |
| §10. Bola rivojlanish sohalari kompetensiyalari .....                                                                                | 76         |
| §11. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri .....                                                   | 87         |
| §12. Maktabgacha yoshdagi bolalarga individual pedagogik yordam ko'rsatish .....                                                     | 94         |
| §13. Bolalarda o'zini anglash va muomala madaniyatini tarbiyalash .....                                                              | 102        |
| §14. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalar moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'рни ..... | 105        |
| §15. Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixologik-ijtimoiy yordam. Bolalar bog'chasi va oila .....                                     | 120        |
| §16. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashish ko'nikmalarining shakllanishi: bosqichlari va mazmuni .....                  | 126        |
| <b>Izohli lug'at</b> .....                                                                                                           | <b>136</b> |
| <b>Adabiyotlar ro'yxati</b> .....                                                                                                    | <b>149</b> |



## Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash bo'yicha vazifalari, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish va takomillashtirishni taqozo etadi.

Yuqori malakali mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligiga nisbatan jamiyat talablarini o'zgarishi va ta'lim berish maqsadining rivojlanishi, didaktik vositalar, shakllar va usullarning barcha tizimi yordamida bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida ijtimoiy mazmunni modellashtirish imkonini beradigan yangi darsliklarni yaratish zarurati yuzaga kelmoqda.

Maktabgacha yosh shaxsning dastlabki kamol topish davridir. Har bir bola shaxsining rivojlanishi, jumladan ijtimoiy ta'lim vazifalarini amalga oshirishda pedagog yetakchi ro'l o'ynaydi.

Mazkur darslik pedagogik oliy ta'lim muassasalarining "Bolalarning ijtimoiy moslashuvi" fanini o'rganadigan bakalavr talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, uning maqsadi - bo'lajak pedagoglarga o'z kasbini o'zlashtirishda, maktabgacha yosh davrida bolalarning ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishga oid bilim va ko'nikmalarning zaruriy hajmi bilan qurollantirishdan iborat.

Fan bo'lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy tayyorlashda muhim o'rin egallaydi.

"Bolalarning ijtimoiy moslashuvi" fani maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila bilan hamkorlikni amalga oshirishning samarali yo'llarini ko'zda tutadi. Mazkur darslik maktabgacha ta'lim yo'nalishi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar, uslubchilar, oliy ta'lim muassasalarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Muallif mazkur darslikning dunyo yuzini ko'rishida yaqindan ko'maklashgan, jumladan materiallarni yig'ish va texnik ishlarni bajarishda ishtirok etgan va qimmatli vaqtini ayamadan zaruriy taklif va tavsiyalarini bergan barcha ustozlarga, taqrizchilarga o'zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi!

## 1- Mavzu: Ijtimoiy rivojlanishning nazariy asoslari

1. Ijtimoiy rivojlanishning pedagogik-psixologik asoslari
2. Ijtimoiylashtirishning omillari ( tashqi va ichki omillar)
3. Ijtimoiy rivojlanishning mexanizmlari

"Ijtimoiylashuv" so'zi dastlab siyosiy iqtisodiyotda yer va ishlab chiqarish vositalarining umumlashuvi ma'nosini anglatgan. Amerikalik sotsiolog F. G. Keddings o'zining «Ijtimoiylashuv nazariyasi» (1987) asarida «Ijtimoiylashuv» atamasini birinchi marta insonlarga nisbatan qo'llagan. F. G. Keddings "Ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir" degan fikrni bildiradi.

"Ijtimoiylashuv" (lotincha-socialis-umumiy) ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning jamiyatdagi hayotga qo'shilishiga bogliq qonuniyat va hodisalarni o'rganadi.

**Ijtimoiylashuv shaxsning ijtimoiy muhitga kirib borishi, unda singib ketishi, tashqi ijtimoiy muhit tajribalarini qo'lga kiritishi, bilim, qadriyat, madaniyat normalarini qabul qilib ularga rioya qilishi yoki qilmasligini tushuntiruvchi jarayondir<sup>1</sup>**

XX asr o'rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini butun umri mobaynida o'rganuvchi hamda fanlararo boglanuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli konsepsiyalarini tahlil qilish uni, shartli ravishda, ikki asosiy yondashuvga ajratish imkonini beradi:

— sub'ektiv-ob'ektiv. Unda insonga jamiyat ta'sirining sust iste'molchisi sifatida qaraladi (E. Dyurkgeym, T. Parsons);

— sub'ektiv-sub'ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o'rni, uning hayotiy holatlarga ta'sir etish qobiliyati nazarda tutiladi.

Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning hozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko'proq mos keladi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o'zlashtirish jarayonidagi rivojlanishi va o'zgarishi bilan


<sup>1</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.



belgilanadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni. Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bulgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo buladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bolada boshqa bir ob'ektiv ehtiyoj — o'ziga xoslikni namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning **individuallashuvi** ro'y beradi.

**Individuallashuv-insonning bolaligidayoq o'z "Men"ini namoyon qilishga bo'lgan harakatlarida paydo bo'ladi.**



**Ijtimoiylashuv inson rivojlanishini butun umri mobaynida quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:**<sup>2</sup>

1. **Birlamchi moslashish bosqichi** (tugilgandan o'spirinlikkacha) Bola ijtimoiy tajribalarni taqlid qiladi, o'zlashtiradi va moslashadi.

2. **Shaxsiylashtirish bosqichi** (o'spirinlik davri 18-25 yoshgacha) Individuallashuv, ijtimoiy hulq-atvor normalariga tanqidiy munosabatda bo'lish, o'zini boshqalardan ajratib olishga intilish, o'zini-o'zi belgilash bosqichi, bunda shaxsning barqaror hususiyatlari rivojlanadi.

Shaxsning faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy xulq-atvori esa takrorlanmas jihatlariga ega.

3. **Integratsiya bosqichi**, jamiyatda o'z ornini topishga intilish, shaxsning xususiyatlarini jamiyat qabul qilsa yashi

<sup>2</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

bo'ladi. Agar qabul qilinmasa, quyidagi natijalarga erishish mumkin:

Odamlar va jamiyat bilan agressiv o'zaro munosabat va hulq atvorlar namoyon bo'lishi mumkin;

O'zini o'zgartirish, "boshqalar kabi bo'lish";

Muvofiqlik, tashqi kelishiv, moslashish.

4. **Ijtimoiylashuvning mehnat bosqichi**, inson mehnat faoliyatining, kamolotining butun davrini qamrab oladi, bunda inson ijtimoiy tajribani o'zlashtiribgina qolmay, balki jamiyatga o'zining faol ta'sirini o'tkazadi.

5. **Ijtimoiylashuvning keksalik bosqichi**, bu davr ijtimoiy tajribani yangi avlodlarga yetkazish jarayoniga hissa qo'shadigan davr hisoblanadi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lgan ikki yo'nalishda olib boriladi: moslashuv (ijtimoiy madaniy tajriba, madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbatan uziga xoslikka ega bo'lish). Shunday qilib ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda inson shaxsining moslashuvi va individuallashuvi jarayonlarini o'zaro bog'laydi. Inson (bola) ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi yoki undan ajratib chiqishi (individuallashuvi) ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini tashkil qiladi.

Moslashish sub'ekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J. Piaje, R. Mertoj).

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muqit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudotga aylanish jarayoni va natijasidir.

Individuallashuv insonning ob'ektiv ehtiyojlar bilan bogliq holda jamiyatda ma'lum darajada alohidalikka intilishi bulib, uning yoshligidayoq o'z-o'zini namoyon qilishga bo'lgan harakatlarida paydo bo'ladi.

Bu ehtiyoj quyidagicha namoyon bo'ladi:

a) o'z qarashlariga ega bo'lish;

b) o'ziga xosliklarga ega bo'lish;

v) o'ziga tegishli bo'lgan masalalarni o'zi hal qilish;



g) o'z mavqeini aniqlab olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida moslashuv va individuallashtirish jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y beradi. Shu bilan birga, bunday hollarda shaxs va muhitning o'zaro ta'sir etishi ham sodir bo'ladi.

**Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashtirish o'rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin.** Bu jarayon uch asosiy sohada amalga oshadi:

1. Faoliyat turlarining kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljal olish.

2. Muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish.

3. Shaxsiy "Men" obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o'z ijtimoiy mansubligi va o'rnini anglash, o'ziga baho berishni shakllantirish.

**Ijtimoiylashuv vositalari.** Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiylashuvning xilma-xil va o'zaro ta'sir qiluvchi vositalari ijtimoiylashuv jarayonida ma'lum funksiyalarni bajaradi va ularga quyidagilar kiradi:

**Birinchi guruh:** go'dakga g'amxo'rlik qilish usullaridan tortib, maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari, insonni o'rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ommaviy axborot vositalari, maktab va boshqalar;

**Ikkinchi guruh- tashkiliy va tartibga soluvchi:** ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning o'ziga xos ijtimoiy tajribasini shakllantirish uchun muayyan tashkiliy imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratadigan vositalar, ma'naviy- madaniyat unsurlari (alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko'p sonli munosabatlari: muloqot, o'yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug'ullanish;

**Uchinchi guruh-tartibga solish nazorati:** Har bir

jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh ijobiy va salbiy, rasmiy va norasmiy qarorlar, ta'qiqlashlar, ruxsat berish, majburlash kabi chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. Shuningdek ijtimoiy normalar, an'analar, qadriyatlar tizimini ta'minlaydi. Bu choralar yordamida inson xulq-atvori shu jamiyatda qabul qilingan me'yoriy qadriyatlarga moslashtiriladi.

**Bola ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari:** muloqot (otakonalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o'yin, o'qish, ijod, sport). Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga xilma-xil faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan.

**Ijtimoiylashuv agentlari.** Insonning ijtimoiylashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan muassasalar, u bilan bevosita munosabatda bo'lgan guruhlar va shaxslar ijtimoiy pedagogikaga "ijtimoiylashuv agentlari" deb nomlanadi.

Ijtimoiylashuvdagi tutgan o'rniga, inson uchun ahamiyatiga qarab agentlar faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko'rsatmaydigan agentlarga farqlanadi.

**Inson hayot yo'lining har bir bosqichida ijtimoiylashuv agentlari tarkibi turlicha bo'ladi.**

1. Go'daklik davrida ijtimoiylashuvning asosiy agentlari bolaga doimiy gamho'rlik qiladigan va ular bilan muloqot qiladigan ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlar, qo'shnilardir.

2. Uch yildan sakkiz yilgacha bo'lgan davrda ijtimoiylashuvning agentlarining soni tez o'sib boradi. Ota-onadan tashqari, tengdoshlar, o'qituvchilar bolaning atrofidagi boshqa odamlar bo'lishadi. Shuningdek ommaviy axborot vositalari, ular orasida televizor alohida o'rin tutadi. Televizor qadriyat yo'nalishlari, xulq-atvorning namuna modellarini shakllantirishga hissa qo'shadi.

3. 13 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan davr ijtimoiylashuv jarayonida o'ta muhim ahamiyatga ega. Ushbu davrda qarama-qarshi jins vakillariga bo'lgan munosabat shakllana boshlaydi. Mustaqillikka intilish, tajovuzkotlik, xavf-xatarning kuchayishi namoyon bo'ladi. Ushbu davrda muhim ahamiyatga ega:



ijtimoiylashuvning agentlarining rolini o'zgartirish;  
boshqalarning salbiy ta'sirlariga nisbatan sezgirlikni oshirish;

ijtimoiy intilishlar darajasi va past ijtimoiy maqom o'rtasidagi nomuvofiqlik;

mustaqillikka intilish bilan ota-onalarga qaramlik o'rtasidagi ziddiyat.

**Ijtimoiylashuv mexanizmlari.** Insonning ijtimoiylashuvi turli omillar, vositalar, agentlar bilan hamkorlikda va bir qator mexanizmlar asosida amalga oshadi.

**Ijtimoiylashuv mexanizmi shaxs faoliyati orqali amalga oshiriladi va uni tashkil etish, tushuntirish va ragbatlantirish- bu ijtimoiy ta'limning mohiyatidir.**<sup>3</sup>

Fransuz olimi Gabriel Tard, amerikalik Uri Bronfenbrenner, rus olimlaridan V. S. Muxina va A. V. Petrovskiylarning tadqiqotlarida ijtimoiylashuv mexanizmlariga turlicha yondashuvlar keltiriladi. Mavjud ma'lumotlarning umumlashtirilishi quyidagi mexanizmlarni alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

I. P. Podlasiy tasnifi bo'yicha, ijtimoiylashuv mexanizmlari quyidagilardan iborat:

**Bostirish mexanizmi.** Uning mazmuni muayyan g'oya, fikr, xohish, istaklarni ongdan chiqarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashqi va ichki turlari mavjud.

Ichki mexanizm ham o'z o'rnida ixtiyoriy va g'ayri ixtiyoriyga bulinadi. G'ayri ixtiyoriy mexanizm unutilishdir. Ixtiyoriy bostirish mexanizmi iroda kuchi bilan amalga oshiriladi. Tashqi bostirish mexanizmi tarbiyaning kengtarqalgan usulidir.

**Ajratish mexanizmi.** Bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson uzi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bog'liq. Ajratish mexanizmi, odatda, nizolarni hal qilishda kuzatiladi.

**O'z-o'zini cheklash mexanizmi.** Bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi. Agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do'stlarinikidan ko'ra

<sup>3</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

ahamiyatsizroqtuyulsa, uning uziga nisbatan hurmati pasayadi, yomon o'qiy boshlaydi. Bu esa uning o'z "Men"ini cheklab qo'yishi va qiyinchiliklar oldida ojiz qolishi, demakdir. Ba'zi hollarda o'z-o'zini cheklash mexanizmini qo'llashni oqlasa bo'ladi. Chunki bu holatda moslashuv sodir bo'lishi mumkin. Biroquzoq muddatli o'z-o'zini cheklash o'z-o'ziga baho berishning pasayishiga olib keladi.

Oqibatda bola o'z salohiyatini bilmay turib, ilk muvaffaqiyatsizlikdan so'ng boshlagan ishini tashlab qo'yib, oqimga qarab suza boshlaydi;

**Loyihalash mexanizmining** mohiyatini o'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli, deb hisoblash tashkil qiladi. O'ziga yoki boshqalarga qarshi krratilgan salbiy hissiyotlar yordamida inson o'ziga bo'lgan hurmatni saqlab qoladi.

Shubhali inson boshqalardan gumonsiraydi, xudbin hammani hudbin deb hisoblaydi. Identifikasiyalash ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmidir. Identifikasiya jarayonida tarbiyalanuvchi xayolan o'zini o'rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikasiya ob'ekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo'lishi mumkin. Identifikasiyaning to'liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud.

**Empatiya mexanizmi** boshqa odamning hissiy qolatiga hamdard bo'lish. Bu mexanizm hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega.

**I. V. Mudrikning fikricha, psixologik va ijtimoiy psixologik mexanizmlarga quyidagilarni kiritish mumkin:**

**Imprinting** (xotirada saqlab qolish) — insonning unga ta'sir qiladigan hayotiy muhim ob'ektlarni eslab qolishi. Bu mexanizm, odatda, go'daklik davrida ko'p qo'llaniladi. Biroq keyingi yosh davrlarida ham imprintingni kuzatishimiz mumkin.

**Eksiztensial bosim mexanizmi** — tilni o'zlashtirish va o'zaro munosabatga kirishganda kerak bo'ladigan ijtimoiy xulqatvor me'yorlariga anglamagan holda ega bo'lish.

**Taqlid** — biror-bir "namuna"ga o'xshash uchun harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba tuplashining ixtiyoriy



va asosan ixtiyorsiz yo'llaridan biridir.

Refleksiya mexanizmi — ichki suhbat. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro'-e'tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko'rib chiqadi yoki inkor etadi. Refleksiya insonning turli "Men" obrazlari orasidagi real va xayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi ro'y beradi.

**An'anaviy mexanizm** inson tomonidan oila, atrof-muhit, qo'shnilar, o'rtoklariga hos me'yor, qarash stereotiplarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi.

Bu o'zlashtirish ongsiz ravishda amalga oshirilib, taassurotlar yordamida sodir buladi.

**Institusional mexanizm** insonning jamiyat institutlari va turli tashkilotlar bilan o'zaro munosabati jarayonida kuzatiladi. Bu jarayonda inson turli bilim va tajribalarni to'plashi mumkin.

**Ijtimoiylashuv omillari.** Ijtimoiylashuv bolalar, o'smirlar, yoshlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabat jarayonida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi ushbu shart-sharoitlar odatda omillar deb ataladi.

Ijtimoiylashuvning omillari ikki guruhga bo'linadi: tashqi va ichki.

**Tashqi omillarga** quyidagilar kiradi:

**Megaomillar** (mega — eng katta) — kosmos, yer shari va planetar jarayonlar.

**Makroomillar** (makro — katta) — davlat, xalq, mamlakat, etnik guruh, jamiyat, shuningdek, bularga demografik, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ya'ni yerning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadigan omillar kiritiladi.

**Mezoomillar** (mezo — o'rta) — hudud va mintaqaviy sharoitlar, yashash joyidagi ommaviy axborot vositalarining auditoriyasiga, u yoki bu submadaniyatga tegish liligiga ko'ra ajratilgan guruhlarining ijtimoiylashuvining shart-sharoitlariga ta'sir qiladi.

**Mikroomillar**, ya'ni muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi

omillar bo'lib, bunga oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

Shaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit sotsium yoki mikrososium deyiladi. **Tashqi ijtimoiy omillardan tashqari, ichki biologik omillar ham mavjud.** Ularni bir-biridan mustaqil o'rganishning iloji yo'q. Shu sababli zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillar, ularning o'zaro munosabati kuzatiladi.

**Biologik omillar.** Biologik irsiyat insonni inson qiluvchi umumiy jihatlarni aniqlaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o'xshashlik, xususiyatlarning utishi tushuniladi. Irsiyatga kura, bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va his-tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch, teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek, irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror-bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bulishi uning hayoti, ta'lim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Ota-onadan bolaga o'tuvchi bir qator kasalliklar mavjud. Masalan: qon kasalliklari, shizofreniya, epilepsiya, daun kasalligi va boshqalar. Bu kasalliklarni genetika fani o'rganadi.

Ma'lumki, bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosfera va suv xavzalarining ifloslanishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli tug'ulayotgan bolalar soni borgan sari ko'paymoqda. Bunday bolalarning boshqalar bilan muloqotga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. Shu sababli ular uchun o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda. Bu metodlar ularning akushy rivojlanishda tengdoshlariga yetishishlari uchun yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus



pedagoglar shug'ullanadilar. Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muloqotga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi.

Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini ma'lum darajada qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

**Shaxsiy omillar** insonning salohiyati (potensial), ko'zlangan maqsadga erishishdagi faoliyat xarakteri, imkoniyati, holati, o'zini tutishi yoki odatdagi faoliyat xarakterining o'zgarishi shuningdek boshqa ijtimoiy tajribani egallashida namoyon bo'ladi. Shaxsning, kayfiyati, hohishi, muayyan sohadagi bilimi va faoliyatda o'zini namoyon qilish qobiliyatini yaratadi. (shaxsning sport sohasida erishgan yutuqlari yoki akademik sohalardagi rivojlanishi uning ijtimoiylashuvida qo'l kelishi mumkin)

**Ijtimoiy omillar.** Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub'ektga aylanishi uning ijtimoiylashuvi jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir buladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadi gan qadriyat, ijtimoiy me'yor hamda xulq-atvor namunasi orqali amalga oshiriladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. "Ijtimoiylashuv" tushunchasiga ta'rif bering.
2. Ijtimoiylashuv jarayoni deganda nimani tushunasiz?
3. "Ijtimoiy moslashuv" tushunchasiga ta'rif bering.
4. Ijtimoiylashuv vositalariga nimalar kiradi?
5. Ijtimoiylashuv agentlari deganda kimlar nazarda tutiladi?
6. Ijtimoiylashuv mexanizmlari qanday ma'noni anglatadi?
8. Ijtimoiylashuv omillari haqida ma'lumot bering.

## **2-Mavzu: Sotsium va bola shaxsi.**

1. Bolalik insonning ijtimoiy hayot meyyorlarini egallay boshlash davri.

2. Ijtimoiy institutlarning bola rivojlanishidagi o'rni.

3. Mahalla – bola ijtimoiylashuvning an'anaviy omili sifatida.

4. Dinning sotsium sifatidagi o'rni.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U, ayniqsa, bolalik va yoshlik davrlarida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki shaxs tomonidan aynan bolalik davrida asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

**Sotsium** (lot. socium-umumiy, birgalikda) - insonning ijtimoiy atrof-muhiti, hamjamiyatidir. Sotsium bola ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy atrof-muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Bola tug'ilgandan asosan, oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi turli ijtimoiy institutlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Bola o'sib borgan sari, uning ijtimoiy muhiti "hududi" ham kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo uzi uchun qulay bo'lgan, uni yaxshi tushunadigan va unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muqitdan boshqa muhitga ko'chib yurishi mumkin.

**Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'rni.** Muhit bolaning ijtimoiylashuv jarayoni va ijtimoiy tajriba to'plashida muhim ahamiyatga ega.

Muhit tushunchasi turli fan vakillari sosiologlar, psixologlar, pedagoglarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Ular muhitning bunyodkorlik salohiyati va bola shakllanishi, rivojlanishidagi ta'sirini o'rganadilar.

<sup>1</sup> Gamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.



Ijtimoiy pedagogikada jamiyat, ijtimoiy muhit, avvalambor, bolaning yangi muhitga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Bunda inson va unga ta'sir qiluvchi tashqi omillarning jamiyatdagi o'zaro munosabati, hamkorlik tavsifiga ega ekanligi muhimdir. Muhit inson kirib borishi, o'zini qulay sezishi uchun qacda joylashganini bilishi yetarli bo'lgan ko'cha, uy va shu kabi narsalar emas. Balki **muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan tavsiflanadigan inson jamoalari hamdir.** Shuning uchun ham inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi, o'zgartiradi va o'z o'rnida muhit ham insonning oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rne, mavqeyi bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtning o'zida bir qancha mavqelarni egallashi mumkin. Masalan, ayol ham rafika, ham ona, ham ustoz mavqelarini egallashi mumkin. Har bir mavqe insonga muayyan talablarni qo'yadi va shu bilan birga, unga bir qancha huquqlarni beradi. **Insonning jamiyatdagi muayyan huquq va majburiyatlari bilan tavsiflanadigan mavqei ijtimoiy maqom deyiladi.**

Ijtimoiy maqom tugma va orttirilgan bo'ladi. Insonning ijtimoiy maqomiga millati, tug'ilgan joyi, familiyasi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday maqomlar, odatda, tug'ma maqom deyiladi. Orttilrilgan maqom esa inson jamiyatda nimalarga mustaqil erishganligiga qarab belgilanadi.

Masalan, ijtimoiy pedagog maqomiga shu sohadagi kasb tayyorlovchi o'quv muassasasida ta'lim olgan va bu soha bo'yicha diplomga ega bo'lgan shaxs erishishi mumkin. Yuqoridagi maqomni qo'lga kiritilgan maqom desak, adashmagan bo'lamiz.

Jamiyatda shaxs muayyan vaziyatlarda o'zining maqomiga hos xulq-atvorni namoyon qiladi. Atrofdagilar u shaxsdan muayyan intizomni kutishadi, yani inson maqomiga hos

rolni o'ynashga majbur. Shuning uchun **inson maqomi bilan belgilanadigan xulq-atvor "ijtimoiy rol" deyiladi.** Turli ijtimoiy rollarni o'zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Uning murakkablik jihati shundaki, jamiyatda faqat jamiyat tomonidan ma'qullanadigan maqomlar bo'lmasdan, balki ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga mos kelmaydigan maqomlar ham mavjud.

Insoni hayoti davomida turli sohalarida to'plangan ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, bu esa unga ma'lum hayotiy ijtimoiy rollarni bajarishga imkon beradi.

**Bol-bu shaxsning muayyan ijtimoiy harakatda o'zini tutishi (pozitsiya) va munosabatlarni belgilaydigan normalar tizimidagi hayotiy faoliyatidir.**

Bola shakllanish va rivojlanish jarayonida ham ijobiy, ham salbiy rollarni o'zlashtirishi mumkin.

**Ijbiy rollarga,** avvalo, oila a'zosining rolini kiritsak bo'ladi. Oilada bola bunday rollarning bir nechtasini o'zlashtiradi: o'g'il yoki qiz, aka yoki opa, jiyan, nabira, shuningdek, bobokalonlari bilan ham munosabatda bo'lishi mumkin.

Bola o'z rivojlanishi davomida o'zlashtiradigan yana bir muhim rol — jamoa a'zosi rolidir. Bola bog'cha yoki maktabda, sport to'garagida tengqurlari bilan muomala qilganida jamoa a'zosi, o'rtoq, o'quvchi, yetakchi kabi rollarni o'zlashtiradi.

Bundan tashqari, har bir inson iste'molchi rolini bajaradi. Chunki u hayoti mobaynida zarur bo'lgan narsalarga doim ehtiyoj sezadi. Bular: ovqat, kiyim-kechak, kitob va boshqalar. Jamiyat insonga taqdim etgan xizmatlardan oqilona foydalana olishni bola yoshligidayoq o'zlashtirishi lozim. Yana bir muhim ijtimoiy rol' o'z Vatani fuqarosi bo'lish, uni sevis, u bilan faxrlanish, vatanparvar bo'lish bilan bog'liqsir. Shu bilan birga, bola o'zlashtirishi mumkin bo'lgan boshqa rollar ham bor. Masalan, mutaxassis roli. Uni bola maktab va kasb-xunar kollejarida o'zlashtiradi.

Bola rivojlanishi davomida ijtimoiy meyyor va qadriyatlarga to'g'ri kelmaydigan salbiy rollarni ham o'zlashtirishi mumkin.



**Salbiy rollarga** daydi, o'gri, tilanchi, muttaha rollarini misol qilib keltirish mumkin. Katta shahar ko'chalarida, savdo do'konlari, bozor, jamoa transportlarida tilanchi bolalarni uchratishimiz mumkin. Ular bu rollarga ko'nikishgan, o'tgan-qaytganlardan mohirlik bilan pul undirib olishadi. Ular orasida o'g'rilik bilan shug'ullanadiganlari ham uchraydi. Ba'zi hollarda bo'lsa, ularni bu ishga kattalar undashadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi uning ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. **Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanib, asosan, uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muloqot va anglash.**

**Faoliyat sohasida** bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakllar vositalarini qo'lgakiritishi, muomala doirasining kengayishi, uning mazmunini chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi sodir bo'ladi.

Bolaning barqaror rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri muloqotdir. Ayniqsa maktabgacha yosh davri va o'smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z ornini tasavvur qilishga erishadi.

**Muloqot** va faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo'llaniladi:

- 1) go'daklik davri — bevosita hissiy-ruhiy;
- 2) go'daklikdan keyingi davr — predmetli faoliyat;
- 3) maktabgacha davr — rol o'yinlar;
- 4) ilk maktab davri — o'quv faoliyati;
- 5) o'smirlik davri — kasb ta'limi faoliyati;
- 6) o'spirinlik davri — shaxsiy muloqot faoliyati.

**Anglash sohasida** o'z "Men"i obrazini shakllantirish, o'zicha mustaqil harakat qilish, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash, mustaqil fikr yuritish olish qobiliyatini anglash, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi.

Insonning rivojlanishi juda murakkab va qarama-

qarshiliklardan iborat jarayondir. Bola dunyoga kelishidan tortib butun umri jarayonida yuqoridagi faktorlar bir-birini ta'kidlab bosh shaxsining rivojlanishini ta'minlaydi.

**Shaxs deganda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qiluvchi muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi.** Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxs nomini olishi uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot va tarbiya kerak.

Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibiga soladi. Tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini hamma tan oladi.

Bunga qaramay, xanuzgacha tarbiyaning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Bunga uning ko'p ma'noliligini muhim hodisa, faoliyat, jarayon, qadriyat, tizim, ta'sir, o'zaro munosabat sifatida ko'rilishi mumkinligini sabab qilib ko'rsatish mumkin. Bu tushunchalarning hech qaysi biri tarbiya mazmunini alohida olgan holatda to'liq ochib bera olmaydi. Quyida tarbiyaning ijtimoiylashuvga nisbatan ijtimoiy nazorat qiluvchi jarayonga xos bo'lgan umumiylikni o'zida aks ettirishga harakat qilgan ta'rifi keltirilgan.

**Tarbiya — tarihan vujudga kelgan ijtimoiy hodisa bo'lib, xulqni boshqarishni belgilaydigan tarkibiy qismlar, axloqiy ong, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yigindisidir.**

Tarbiya insonning jamiyatga ko'nikishiga ko'maklashuvchi va bu ko'nikish sodir etiladigan guruh va tashkilotlarning xususiyatlariga mos keluvchi sharoitlar yaratuvchi insonning o'z rivojlanishi. Tarbiya ijtimoiy omillarni insonga ta'sir ko'rsatishining tarkibiy qismi bo'lish bilan birga, o'z xususiyatlariga ham ega. Bu jarayon boshqalaridan farqli ravishda, doimo bir maqsad sari yo'naltirilgan va bu faoliyat massas tayyorlangan odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya jarayonida bola ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi boshqa omillar: muhit, ommaviy axborot vositalari, madaniyatlar muhitiga olinadi.

<sup>1</sup> Eganberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.



“Tarbiya” atamasi keng va tor ma`nolarda ishlatiladi. Keng ma`noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarish va ijtimoiy madaniy, ma`rifiy hayotida faol ishtirokini ta`minlashga qaratilgan barcha ta`sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Demak tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san`at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o`z ichiga oladi.

Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta`siri vaqt o`tgan sari o`zgaradi. Bola qanchalik kichik bo`lsa, tarbiya uning shakllanishiga shunchalik ko`p ta`sir ko`rsatadi. Vaqt o`tgani sayin tarbiyaning bola shakllanishidagi hissasi kamayib boradi. Bu vaqtda bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi. Borgan sari tashqi tarbiyaviy omillarning ta`siri kamayadi. Biroq boshqa bir jarayon — o`z-o`zini tarbiyalash jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning uz shaxsini mukammallashtirish, o`z-o`zini rivojlantirish bo`yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma`lumki, o`z-o`zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi. Bizning modelga binoan, insonning o`z-o`zini tarbiyalashi ehrom bunyod etish bilan barobardir. Shuning uchun o`z-o`zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho`ziladi. Tarbiya, o`z-o`zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (oilal, madaniy, diniy, tarixiy an`analar, OAVlari, maktab jamoasi, do`stlar, bolalar bog`chasi va boshqalar) o`zaro ijobiy ta`siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayoni sodir bo`ladi.

Ijtimoiy muhitning ta`siri qanchalik ahamiyatli va sermazmun bo`lsa, bola unda shuncha erkin va mustaqil bo`ladi.

Bolaning ijtimoiylashuvi uning jismoniy va ruhiy rivojlanishining xususiyatlari sababli murakkablashishi, yoki ijtimoiy me`yor va qadriyatlarni bola tomonidan o`zlashtirilishida qandaydir sabablar tufayli muhitning salbiy ta`siri oqibatida noto`g`ri yo`nalishda borishi mumkin. Buning natijasida bola me`yoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda qolib, maxsus yordamga muhtoj bo`lib qoladi. Bunday bolalarning

ijtimoiylashuv jarayoni, avvalo, tarbiya orqali amalga oshiriladi. Biroq buning uchun har bir toifadagi bolalarning ijobiy jihatlarni faollashtiruvchi tarbiya metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.

Umuman olganda, tarbiyachi va mutaxassislarining vazifasi qiyin vaziyatlarda turgan bolaning ijtimoiy moslashuviga qaratilgan bo`lib, u jamiyatda qabul qilingan qonun va me`yorlarga faol ko`nikishi yoki salbiy omillarning oqibatlarini yengishi kerak bo`ladi.

Agar ijtimoiy muhit sifatlarining shakllanmaganligi darajasi bolaga ijtimoiy muhitga ko`nikishga xalaqit beradigan darajada yuqori bo`lsa, bolaning ijtimoiy moslasha olmaslik holati sodir bo`ladi. Bunday hollarda bola tomonidan yo`qotilgan ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni tiklashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni qo`llash tavsiya etiladi. Shunday qilib, bolaning jamiyatda o`sishi va rivojlanishi jarayonida uning ijtimoiylashuvi sodir bo`ladi. Agar bu jarayon sodir bo`lmasa, uning aksi — dezadaptasiya ro`y beradi. Bunday holatda esa bolaning ijtimoiy rehabilitatsiyasiga ehtiyoj tugiladi.

**Mahalla - bola ijtimoiylashuvning an`anaviy omili sifatida.**

Ijtimoiylashuv nafaqat shaxsning jamiyatda qulayliklarga ega bo`lishini, balki shaxsning muayyan axloqiy va etnik qoidalarni egallashini ham nazarda tutadi. Shu borada mahalla ijtimoiylashuvining muhim mexanizmi hisoblanadi.<sup>6</sup> Chunki unda:

— har bir inson amal qilishi kerak bo`lgan muayyan axloqiy qonunlar ishlab turadi;

— muomala bir qator axloqiy tamoyillarga asoslanadi;

— hokimiyatga ishonch va xizmat, shaxsiy namuna kuchi, kattalarga hurmat, bolalarga g`amxo`rlik;

— axloqqa jamoatchilik tarbiyasi amaliy faoliyatga kiritish orqali amalga oshiriladi;

— ommaviy ong qadriyatlari mahalladan oilaga va shaxsga uzatiladi;

<sup>6</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.



— alohida shaxs hayotining asosiy bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan kuzatuvda bo'ladi.

Shuningdek maqalla insonlarning axloqiy birlashuvi markazi bo'lib, bu mahalla qo'mitalari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri — obodonlashtirish ishlarni tashkil qilishda va turli tadbirlarda namoyon bo'ladi.

Eng muhim an'analardan biri mehr-muruvvat ko'rsatish bo'lib, u quyidagi ko'rinishi namoyon bo'ladi:

— jamoaning g'amxo'rliqi, qo'shnilarining kasal, keksa va kam ta'minlanganlarga yordam ko'rsatishi;

— o'ziga to'q kish ilarlarning kam ta'minlangan qarindoshlariga va qo'shnilariga moddiy yordam berishi;

— oqsoqol va mahalla qo'mitasi tomonidan boquvchisini yo'qotgan va qariyalarga yordam ko'rsatishi va boshqalar.

Har qanday mahallada boy hayotiy tajribaga ega odamlar mavjud. Ularning asosiy vazifasi aholining an'anaviy axloq-odob qoidalariga rioya qilishlarini, bolalarning ko'chadagi yurish-turishini nazorat qilishdir. Ular har qanday odamga tanbeh berishlari mumkin, biroq bu ishni doimo ularning hurmatini saqlagan holda amalga oshiradilar. Ota-onalarning bunday munosabatni qadrlashi tahsinga sazovor. Shuning uchun "mahalla — sening ham otang, ham onang" degan maqol mavjud.

### **Dinning ijtimoiylashuvda titgan o'rni.**

Islomga diniga muvofiq Qur'on barcha musulmonlar bo'ysunishlari lozim bo'lgan muqaddas kitobdir. Qur'onda har bir shaxsni ijtimoiylashuvi hamda har bir insonning hayot va mehnatiga munosabati haqida g'oyalar mavjud.

VI asrning o'zidayoq islom insonning ijtimoiy huquq va erkinliklarini e'lon qildi. Bu erkinliklar inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan edi.

Shariatning huquqiy qadriyatlari ijtimoiy tavsifga ega va quyidagi tamoyillarga asoslangan adolatli jamiyatni ifodalaydi:

— jamiyatning barcha a'zolarining irqi, tili va diniy mansubligidan qat'iy nazar tengligi;

— jamiyat barcha a'zolarining teng mas'uliyatga egaliklari, chunki ular bitta manbadan kelib chiqqanligi;

— inson hayoti va erkinligi tengligi;

— gila jamiyatning asosidir: jamiyat oilani o'z himoyasiga oladi va unga g'amxo'rlik qiladi;

— boshqaruvchi va boshqariluvchilarining tengligi;

— yagona Olloh barcha narsaning egasi va u tomonidan yaratilgan ne'matlar barcha mavjudot va maxluqotlarga uning hadyasidir. Har bir inson bu hadyadan o'z ulushini olishga haqli; salq va jamiyatga tegishli barcha siyosiy, ijtimoiy va boshqa masalalar salq bilan maslahatlashib hal qilinishi lozim;

— o'zining dunyoviy ishlari uchun har bir kishi jamiyat oldida, ma'naviy hayotga tegishli ishlari uchun esa faqatgina Olloh oldida javob beradi.

Tarbiyaviy vositaga ega bo'lgan Qur'on oyatlari muhim ahamiyatga ega. Ularda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabat, bolalarni tarbiyalayotgan ota-ona nimaga intilishi kerakligi, shuningdek, ular erishmoqchi bo'lgan maqsadlar aniq belgilab qo'yilgan.

Qur'on musulmonlarning hayot mazmuni va maqsadi haqidagi qarashlariga katta ta'sir ko'rsatgan va uning g'oyalari musulmon halqlarining madaniyatidan chuqur joy olgan bo'lib, salq pedagogikasi manbalari: maqol, rivoyat, ertaklar va boshqalarga har tomonlama ta'sir ko'rsatgan.

O'qitilayotgan avlodning tarbiyasi va ijtimoiy jarayonlarga moslashuvda bilim, unga munosabat masalasi doimiy muammo hisoblanadi. Qur'on bilim rivojlanishining dialektik, dinamik jarayonlarini va inson tomonidan o'zlashtirilishini ham qayd etadi. Shuningdek, bilim olishga intilish xadislarda ham o'z ifodasini topgan. Islomshunos olim F.Rouzentel to'liq hajmda tomon Buxoriyning "as-Sahih" asarini taqlil qilib chiqqan va undagi bilim bilan bog'liq quyidagi g'oyalarni ko'rsatib o'tgan:

— bilim talab qilish jannatga yo'l ochadi;

— bilim faqatgina o'qish orqali qo'lga kiritiladi;

— inson rahbar bo'lishidan oldin bilimli bo'lishi kerak;

— ayollarni o'qitishga ruxsat berilgan;



— ilm va olimlarning yo'qolishi dunyoning oxiriga yetganini bildiradi.

Ana shu sababli **tarbiyaviy tizimda hadislardan foydalanish nihoyatda muhim** hisoblanadi. Hadislarda islom asoslarining sharlari berilgan bo'lib mehribonlik, ruhiy poklik, tozalik, halollik iymon kabi tushunchalar ko'rib chiqilgan.

Hadislarning pedagogik taxili ushbu man'baning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi eng muhim mazmuniy yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi:

— "go'zal xulq sohibi" U insonlarning bir-biriga ishonchini shakllantiradi;

— o'z xatolarining tan olinishi xalqning buyukligidan dalolat beradi;

— o'z fikrini bildirish — inson kuchining ifodasidir.

O'z fikrini bildirmaslik esa shariat va soglom fikrlashga nisbatan norozilik alomati;

— o'z farzini tushunish va uni ixtiyoriy bajarish insonda yaxshi xislatlar paydo bo'lishiga olib keladi;

— insonning o'z Vatani, do'stlari, xalqi oldida majburiyatini bajarishi — inson tarbiyalanganligining ko'rsatkichi;

— hayotda vaqtning qadriga yetish insonning va jamiyatning rivojlanishining asosiy shartidir;

— sabr qilish baxtsizlik, yetishmovchilik, kasalliklarni yengishga yordam beruvchi xislatdir. Muvaffaqiyatga erishish uchun aqldan tashqari sabr ham talab qilinadi;

— insonni farishta darajasiga ko'taruvchi — bu xislatdir.

Undan mahrum bo'lgan kishida asl sevgi bo'lishi mumkin emas.

Ichkilikbozlik, fahsh, zino — buning hammasi irodasizlikdir.

Bunday insonlar atrofdagilarga, o'z xalqiga zarar keltiradi;

— chuqur fikr yuritish — insonning aqliy voyaga yetganlik alomatidir;

— kim o'z o'tmishini yo'qotsa — uning kelajagi yo'qdir.

Qariyalarning hikmatlarini unutgan yosh avlod iymonni ham unutadi va shunda yovuzlik yaxshilik ustidan g'alaba qozonadi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Sotsializm tushunchasiga ta'rif bering.

2. Bolaning ijtimoiylashuv jarayoni va ijtimoiy tajriba to'plashida muhitning ahamiyati haqida so'z yuriting.

3. Ijtimoiy va qo'lga kiritilgan maqom haqida nimalarni bilasiz?

4. Inson hayoti davomida qanday ijtimoiy rollarni bajaradi?

5. Bolaning jamiyatga muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi necha yo'nalishda olib boriladi?

6. Faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan muloqot qaysi yosh davrlariga bo'linadi?

7. "Shaxs" tushunchasiga ta'rif bering

8. Ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri tarbiya haqida so'z yuriting

9. Mahallaning ijtimoiylashuv va axloqiy birlashuvi jarayonlariga ta'sirini bayon eting.

10. Islom dinidagi shaxs ijtimoiylashuviga oid qarashlarni tahlil qiling.



### 3-mavzu: Tarbiya ijtimoiylashuv omili sifatida. Tarbiya tamoyillari.

1. Tarbiya ijtimoiylashuv omili sifatida
2. Ta'lim-tarbiyaning insonparvarlik tamoyili.
3. Tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili
4. Tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili.
5. Ijtimoiy hamjamiyat va hamkorlik tamoyili.

Ijtimoiy institut jamiyat a'zolarining ijtimoiy resurslardan foydalanishi jarayonida vujudga kelgan, u yoki bu ehtiyojlarini (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy va bosh qa) qondirish uchun birgalikdagi faoliyatlarining tarixan shakllangan turg'un shaklidir. Jamiyatda ijtimoiy institutlarning bir bugun tizimi mavjud. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida, jamiyat a'zolarining ijtimoiylashuvini amalga oshirishni nisbatan nazorat qilish, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini targ'ib qilish, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratish, umuman olganda, jamiyatning faol a'zolarini yetishtirish uchun yuzaga kelgan.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida muayyan jamiyatning rivojlanish bosqichida paydo bo'ladigan fenomen hisoblanadi.

**7Har bir jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonida muayyan bosqichlarda quyidagilarning sodir bo'lishi kuzatiladi:**

- tarbiya oilaviy, diniy, ijtimoiy turlarga ajraladi, ularning o'rni, ahamiyati va o'zaro munosabati o'zgarmaydi;
- tarbiya jamiyatdagi katta avloddan yosh avlodga qarab yo'naladi va borgan sari ko'proq yosh guruhlarini qamrab oladi;
- ijtimoiy tarbiya jarayonida uning tarkibiy qismlari ajraladi: ta'lim olish, keyinchalik esa ma'lumotli bo'lish;
- korreksion tarbiya paydo bo'ladi;
- totalitar, siyosiy va jinoyatga moyil jamiyatlarda g'ayriijtimoiy tarbiya amalga oshiriladi;
- tarbiyaning vazifa, shakl, usul va vositalari o'zgaradi;
- tarbiyaning ahamiyati ortib, u jamiyat va davlatning

<sup>7</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

alohida funksiyasi bo'lib qoladi hamda ijtimoiy institutga aylanadi.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi: oilaviy, diniy, ijtimoiy, korreksion tarbiya majmuasi; ijtimoiy rollar yigindisi; tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar, oila a'zolari, din arboblari, mintaqaviy, xududiy tarbiya tashkilotlari rahbarlari, jinoiy va totalitar guruhlar yetakchilari; turli xildagi tarbiya muassasalari; ijobiy va salbiy sanksiyalar yig'indisi; tarbiyachilarning ta'lim va professional tayyorgarligi darajasi.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy hayotda muayyan vazifalarga ega bo'lib, uning eng umumiy vazifalari quyidagilardir:

— jamiyat a'zolarida bir maqsad sari qaratilgan dunyog'arashni shakllantirish va ular tomonidan tarbiya jarayonida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator ehtiyojlarning qondirilishi uchun sharoitlar yaratish;

— jamiyatda faoliyat yuritish va uni rivojlantirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash;

— ijtimoiy hayot barqarorligini madaniyatni avlodlarga meros qoldirish orqali ta'minlash;

— o'zgaruvchan ijtimoiy holatlarga jamiyat a'zolarini moslashishini ta'minlash;

— jamiyat a'zolarining intilishlari, maqsadlarining birlashishini va ijtimoiy, kasbiy, etnokonfessial guruhlar manfaatlarining uyg'unlashuvini ta'minlash.

**Ijtimoiy pedagogning bu yo'nalishlarga bog'liq asosiy faoliyati zamonaviy tarbiya tamoyillari asosida quriladi.**

**Tarbiya tamoyillari.**

**Tarbiya tamoyillari tarbiyani amalga oshirish qoidalari bo'lib, ular asosida nazariyalar ishlab chiqiladi va tarbiyaning shakl metod va vositalari amalga oshiriladi.**

**8Tarbiyaning insonparvarlik tamoyili.**

Tarbiyani insonparvarlashtirish zarurati haqidagi g'oya ches pedagogi Yan Amos Komenskiyning asarlarida uz ifodasini topgan bo'lib, XVIII asrdan boshlab u turli davlat pedagoglarining tadqiqot ob'ektiga aylangan. Bu g'oya XVIII aerda fransuz

<sup>8</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.



mutafakkiri Jan Jak Russo va rus pedagogi J.N. Tolstoyning erkin tarbiya nazariyalarida, XX asrda insonparvarlik psixologiyasida va insonparvarlik pedagogikasida ham o'z aksini topgan. Ijtimoiy pedagogika nuqqai nazaridan insonparvarlashuv tamoyili pedagogning o'z tarbiyalanuvchisiga, uning rivojlanish jarayonida, mas'uliyatli va mustaqil sub'ektga nisbatan munosabatda bo'lishini ko'zda tutadi. Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish bolalar, o'smirlar, yoshlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Bu tamoyilning amalga oshirilishi natijasida:**

— tarbiya ijtimoiylashuv ob'ekti bo'lmish inson qay darajada g'ayri ijtimoiy qadriyatlarni emas, balki ijobiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishini anig'utydi;

— tarbiya inson o'zini ijtimoiylashuv sub'ekti sifatida his qilishi, o'z sub'ektivligini namoyon qilishi va taraqqiy etishi uchun sharoit yaratadi;

— tarbiya inson uchun jamiyatga moslashuv darajasini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi;

— tarbiya insonni turli yosh bosqichlarida turli xavflar bilan to'qnash kelishiga yo'l qo'ymasligi yoki insonning ijtimoiylashuv qurboniga aylanishi ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish tarbiyalanuvchida refleksiya va o'z-o'zini tartibga solishni rivojlantirishga, uning tashqi olam bilan munosabatlarini shakllanishiga, g'urur hissining oshishiga, jamiyatda demokratik va gumanistik munosabatlar tashuvchi insonning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yanada kengroq ma'noda, insonparvarlashuv tamoyilining amalga oshishi insonlar orasidagi aloqalarning yaxshilanishiga hamda ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda insonlarning birlashishiga yordam beradi.

**Tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili.** Tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi haqidagi g'oya antik davrlarda paydo bo'lgan va bizgacha Demokrit, Aflotun, Arastu asarlari orqali yetib kelgan.

Tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi haqidagi tamoyilni XVII asrda Yan Amos Komenskiy ta'riflagan va u XVIII — XIX asrlarda

pedagogikada keng rivojlangan.

XX asrda tabiat va inson haqidagi fanlarning rivojlanishi tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyilini ancha boyitdi.

Bunda rus olimi V. I. Vernadskiy tomonidan noosfera haqidagi ta'limotning yaratilishi ham muhim rol' o'ynadi. Noosfera — rivojlanishning shunday bosqichini aks etadigan tushunchaki, u bosqichda insonning ongli faoliyati global muammolarning paydo bo'lishi va hal etilishiga ta'sir qiladi.

Tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning o'zaro aloqasini ilmiy tushunishni, inson va tabiat taraqqiyoti rivojlanishning umumiy qonunlariga mos kelishini, insonning yoshi va jinsini hisobga olgan holda tarbiyalashni, shuningdek, uni o'z rivojlanishiga o'zini javobgar etib tarbiyalashni va noosferaning kelajakdagi taraqqiyotini shakllantirish uchun mas'ul ekanligini nazarda tutadi.

**"Yuqoridagilarga asoslangan holda, tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyiliga ko'ra, inson:**

— o'zini borliqning bir bo'lagi, deb his qilishini;

— ro'y berayotgan planetar jarayonlarni va undagi mavjud global muammolarni tushunishini;

— o'zida noosfera uchun mas'uliyatni his qilishini;

— o'zini noosferani yaratgan sub'ekt sifatida bilishi hamda tabiat, planeta va biosferaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirilishi kerakligini ko'zda tutadi.

**"Tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili.** Tarbiya madaniylashuvining zaruriyati g'oyasi ingliz pedagogi Jon Lok (XVIII asr), fransuz mutafakkiri Klod Gel'vesiy (XVIII asr) va shvesariyalik pedagog Iogann Pestalossi asarlarida o'z aksini topgan.

XIX asrda nemis pedagogi Fridrix Disterverg tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, **tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili madaniyatning umuminsoniy qadriyatlar asoslanishi, u yoki bu milliy madaniyatlarning qadriyatlariga va me'yorlarga mos ravishda bunyod**

Социальное воспитание дошкольников Брест БрГУ имени А.С. Пушкина 2018

Социальное воспитание дошкольников Брест БрГУ имени А.С. Пушкина 2018



### **etilishini nazarda tutadi.**

Tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili o'z oldiga bolalar va o'smirlarga xalq hamda jamiyat madaniyatining turli yo'nalishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi. Bunda madaniyatning maishiy, jismoniy, ma'naviy, aqliy, moddiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy yo'nalishlari nazarda tutiladi. Tarbiyaning madaniylashuv tamoyilining amalga oshirilishi umuminsoniy tavsifdagi madaniy qadriyatlarning turli jamiyatlarda farqlanishi sababli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bizning davlatimizda shahar va qishloq aholisi o'rtasida, shaharda esa turli ijtimoiy-kasbiy guruhlar orasida farqlar mavjud. Shu bilan bir vaqtda turli madaniyat va submadaniyatlardagi qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash tarbiya samaradorligining asosiy shartlaridan biridir.

**Tarbiyaning variativligi tamoyili.** Ijtimoiy tarbiyaning variativligi shaxs ehtiyojlarining xilma-xilligi bilan belgilanadi.

Tarbiya variativligi tamoyili insonning mintaqaviy va lokal darajada umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, etnik xususiyatlar, shuningdek, mintaqaviy munisipal va lokal sharoitlarni inobatga olib, shaxsiy, yosh, differensial va individual yondashuvlar asosida ma'naviy qadriyat jihatidan tarbiyalashni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy tarbiyaning variativligi tamoyilining ta'riflash imkoniyati va zarurati XX asrning 80-yillari oxiridan boshlab ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sababli vujudga keldi (A. G. Asmolov). Bu o'zgarishlarni insonning jamoaviy guruhlar hamda jamiyatning yosh va ijtimoiy guruhlari maqsadlari bilan bir qatorda, individual maqsadlarini tan olishi, ta'limning etnik xususiyatlar va mintaqaviy sharoitlarga mos qilib isloh qilish uchun sharoitlar yaratilishi kabilar bilan izohlash mumkin.

**Ijtimoiy tarbiyaning variativligi tamoyilini amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:**

— turli yoshdagi shaxslarning manfaatlari va ehtiyojlarini, turli etnik qatlamlarning ijtimoiy-kasbiy talablarini, hududiy va mintaqaviy tashkilotlarning ehtiyojlarini qondirish uchun turli xildagi tarbiya muassasalarini tashkil etish;

— ijtimoiy tarbiyaning mintaqaviy va hududiy tizimlarini tashkil etish;

— mahalliy tarbiya tizimlarini tashkil qilish;

— inson tomonidan o'zining rivojlanish strategiyalari, hayotiy va kasbiy yo'llarini tanlashdagi imkoniyatlarini kengaytirish uchun sharoitlar yaratish.

**Ijtimoiy hamjamiyat tamoyili.** Bolaning ijtimoiylashuvi mikroo'millar ta'sirida, tengdoshlari va kattalar (oilalar, qo'shnilar, mikrojamiyat, tarbiya tashkilotlari) bilan o'zaro munosabatlarida ro'y beradi. Ijtimoiy tarbiya bir tomondan, jamoalarda amalga oshirilsa, boshqa tomondan, bolalar va o'smirlarni jamoa hayotiga ob'ektiv zarurat sifatida kiritib beradi.

Jamoa tarbiyaning eng muhim vositasi ekanligi haqidagi goya juda qadimda paydo bulgan. Uning nazariy asoslari XIX asrdan boshlab, pedagogik nuqtai nazardan, jadallik bilan ishlab chiqilgan. Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida real hayotdagi inson ijtimoiylashuvi muammolari va insonning o'zgarib turuvchi dunyoga kirishi, jamoaviylik tamoyilini ijtimoiy tarbiyaning yetakchi tashkiliy asosi, deb hisoblashga asos yaratadi.

Jamoaviylik tamoyilining zamonaviy ta'rifiga ko'ra ijtimoiy tarbiya turli jamoalarda amalga oshirilib, insonga hayot tajribasi, umuman olganda esa, jamiyatga ko'nikish tajribasini qo'lga kiritish imkonini beradi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Bola tarbiyasi va uning ijtimoiylashuvi orasidagi bog'liqlik nimada?
2. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida qanday o'ziga xoslikka ega?
3. Tarbiyaning ijtimoiy vazifalarini sanab bering.
4. Tarbiya tamoyillarining mohiyatini bayon eting.
5. Shaxsning ijtimoiy shakllanishida ijtimoiy hamjamiyat tamoyilining o'rni qanday?

<sup>11</sup> Социальное воспитание дошкольников Брест БрГУ имени А.С. Пушкина 2018



#### 4-mavzu: Bolalarni ijtimoiy-axloqiy tarbiyasida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning roli

1. Oila – shaxs ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida.
2. Jamiyatda oilaning tuzilishi va funksiyalari.
3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning o'zaro hamkorlik ish shakllari.
4. Ota-ona qaramogida bo'lmagan bolalar
5. Kattalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning vazifalari, shakl va metodlari.

Shaxs tarbiyasida, uning ijtimoiy-axloqiy rivojlanishida boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda, oila eng asosiy institut vazifasini o'taydi.

Ijtimoiy institut sifatida oiladagi ming yillar davomida e'zozlanib, ardoqlanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan oilaviy qadriyatlar: kattalar va kichiklarni hurmat qilish, bir-birini tushunish va mehr-oqibatga asoslangan do'stona hayot tarzi, milliy urf-odatlar va ularni amalda qo'llash barcha davrlarda bo'lganidek, bugungi kunda ham yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalashda dasturilamaldir.

**Ijtimoiy-axloqiy rivojlanish - fikrlash va o'zini tutish bo'yicha madaniy ravishda belgilangan yoki o'z-o'zidan tuzilgan yaxshi va yomonning me'yorlariga muvofiq rivojlanishdir.**

**Oila-qarindoshchilik** (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir.

Aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy me'yorlar shakllanadi. Oila omili insonga butun umri davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy maqomlarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o'z-o'zini belgilab olishiga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshirishiga yordam beradi. O'z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham

belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan.

"Oilaviy munosabatlar — oliy qadriyat" deb hisoblangan bizning yurtimizda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda baland bo'lib, u o'z mavqeini hozirgacha saqlab kelmoqda. O'zbek oilasida zaruriy tarbiyaviy omil va ko'nikmalar avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Ko'p bolali o'zbek oilalarida patriarxat tartibning saqlanishi oiladagi munosabatlarning barqarorligini ta'minlagan. Biroq bugungi kunda oila inqirozi ko'pgina oilalar, shu jumladan, o'zbek oilalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Oila a'zolari sonining qisqarishi, avlodcharning uzoqugashuvi muammosining kuchayishi munosabati bilan, oilaviy munosabatlarni shakllantirish masalasi borgan sari muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Oila ikki yo'nalishda mavjud bo'ladi: kichik ijtimoiy guruh sifatida va ijtimoiy institut sifatida. Birinchi holatda, oila qarindoshlik asosida tuzilgan va birga yashash bilan birlashtirilgan hamjamiyat bo'lsa, ikkinchi holatda esa, insonlarning kundalik hayoti kechadigan ijtimoiy institutdir.

**Oilaning tarkibiy tuzilmasi ham ilmiy jihatdan muhim bo'lib, uni eng avvalo alohida shaxslar tashkil etadi.**

**Er-xotin tizimi** oiladagi er va xotindan iborat bo'ladi. Erkak va ayol nikohidan boshlanadigan bu tuzilma aslida butunlay bir-biridan farq qiluvchi qadriyatlar, qarashlar, kutishlar va e'tiqodlardan tarkib topadiki, agar ularning har biri o'zaro muloqot jarayonida bir-birlarini bilgani sari o'z qarashlari, xatti-harakat me'yorlari, odat va qiliqlaridan qisman bo'lsa-da, voz kechmas ekan, oilaviy birlik ro'y bermaydi. Bu juda katta psixologik jarayon hisoblanib, uning natijasi o'laroq oilada er-xotinning bir-biriga adaptatsiyasi, moslashuvi ro'y berishi mumkin.

**Ota-onalar tuzilmasi** har doim ham er-xotinlikni nazarda tutmaydi, zero, uni yolg'iz momo, xola yoki to'ng'ich farzand ham ado etishi mumkin. Shuning uchun terapevtik muolajalarda yoki maslahatlarda ota-onalar tuzilmasini aynan

<sup>11</sup> Bishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. "Rivojlanish psixologiyasi". Darslik. — T.: "Print 25" nashriyoti, 2019-yil



kim tashkil etishini bilish ahamiyatlidir. Ota-onalar, eng avvalo, oilaning xavfsizligi, unda samimiyat muhitining bo'lishi, tarbiya jarayonlarining qanday kechishiga javobgardir. Ular shu oiladagi barcha farzandlarning kelajagini, kerak bo'lsa, juda yaxshi kamol topishi uchun o'z bilim va tajribasini safarbar etadigan insonlardir.

**Aka-opa-ukalar tuzilmasi** – oilada farzandlarning hayotni o'rganishlari, bir-birlarini tushunishlari ba'zan tortishib, ba'zan do'stona muomalani yo'lga qo'yishlari juda muhimdir. Odatda oilada shakllangan va sayqal topgan aka-uka, opa-singilchilik munosabatlari keyinchalik do'stlar, hamkasblar, raqiblar bilan bo'ladigan murakkab o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun zarur bo'ladi.

**Ko'p farzandli oila** munosabatlar tizimi serqirra bo'lgan oiladir, unda ba'zan, farzandlarning to'ng'ichi ota-onalarday yuqori pog'onaga ko'tarilib qoladi. Bunday oiladagi munosabatlarning yaxshi bo'lishi uchun ota-ona har bir oila a'zosining vazifalari va oiladagi maqomlarini aniq tasavvur qilib, bo'lib berishi, to'ng'ich bola bilan kichiklar o'rtasidagi muomala qoidalarini bir maromda yo'lga qo'yilgan bo'lishi talab etiladi.

Bu yerda ota-onaning mavqei, obro'si kuchli va yetakchi bo'lishi shart.

**Distant oila yoki "akkordeon"** tipidagi oilada a'zolaran kimdir, bu ko'p hollarda ota – uyoki bu sababga ko'ra oila a'zolari bilan kam ko'rishadi (uzoq muddatli safardagi dengizchi, harbiy xizmatchi, geolog, neft qazuvchi kabi). Ota bunday holatlarda o'zaro muomala jarayonlarida jismonan mavjud shaxs sifatida yoki ramziy tarzdagi ota sifatida ishtirok etadi. Oilada er-xotinlik aloqalari ham, ota va bola munosabatlari ham bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ham aziyat chekib turadi. Gohida oilada go'yoki yashirin qolipda ajrim turganday bo'ladi. Lekin ayni shu holat ko'pincha distant oilaning ajrim bo'lgan oiladan afzal ekanligini ko'rsatadi.

**Beqaror oila** tarkiban turar-joy yoki yashash joyi masalasida o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, ayrim ayollar birinchi

nikohidan ajralganidan so'ng tez-tez erkaklarni almashtiradi, takim ko'ngliga ma'qul bo'lgan insonni topmagunicha turlicha munosabatlar tizimida bo'ladi. Bu farzandlar tomonidan yaxshi qabul qilinmaydi, ona bilan bolalar munosabatlari hamisha tarang turadi. Shunga o'xshash holatlar tez-tez turar joyini almashtirishga moyil oilaga ham xosdir. Munosabatlar tarangligi nafaqat shu oilaning ichida, balki yangi turar joyga kelib, yangi tengdosh o'rtoqlar va sinfdoshlar orttiradigan bolalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiydir.

**Noto'liq oila** – ba'zan turmush o'rtog'idan birining o'limi tufayli judolikka mahkum etilganlar oilasida ham o'ziga xos munosabatlar shakllangan bo'lib, ularda go'yoki "arvoh" oilaviy jarayonlarning barchasida ishtirok etayotganga o'xshaydi. Ayniqsa, sharq xalqlarida marhumning ruhini hurmat qilib, barcha oilaviy tadbir va marosimlarda ularning ruhlarini shod etuvchi duolar o'qiladi, ular yaxshi gaplar bilan eslanadi. Bu farzandlar tarbiyasida ham ijobiy, ham salbiy rol o'ynaydi.

**Ujlamiyatda oila bir nechta funksiyalarni bajaradi:**

**Reproduktiv funksiya.** Bu funksiya naslni davom ettirish bilan bog'liq. Hozirgi kunda O'zbekistonda serfarzand oilalarning mavjudligi bilan bir qatorda, oila a'zolari sonining qisqarishi ham kuzatilmoqda. Bu hodisalar, asosan, moddiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, ma'naviy inqiroz, yosh oilalarning ota-ona uyidan ajralib chiqishi, tibbiy xizmatning darajasi, ekologiya inqirozi inson salomatligiga ta'siri bilan izohlanadi.

**Iqtisodiy funksiya.** Ma'lum bir oila a'zolari tomonidan boshqalari uchun moddiy mablaglar topilishi, oila a'zolarining turmush sharoitini yaxshilash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, voyaga yetmaganlar va qariyalarni moddiy ta'minlash, pul mablag'larini to'plash iqtisodiy funksiyaning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy bozor munosabatlari mulk to'plash, mulkka ega bo'lish, meros masalalarida oilaning iqtisodiy vazifasi faollashuvini talab qiladi.

**Ijtimoiylashuv funksiyasi.** Oila bola shakllanishiga ta'sir qiluvchi birinchi va asosiy ijtimoiy guruh hisoblanadi. Oilada

<sup>11</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.



ota-ona va bolalarning tabiiy-biologik hamda ijtimoiy aloqalari uzviy bog'lanib keladi. Oila mikromuhit sifatida bolaning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga uz ta'sirini ko'rsatadi. Oilaning vazifasi bolaga asta-sekinlik bilan ijtimoiy ko'nikmalarni singdirib, jamiyatga tayyorlashdir. Oilada insonga ta'lim va tarbiya beriladi, uning aqliy, ijodiy qobiliyatlarining rivoji sodir bo'ladi. Aynan oilada bola mehnat qilishga va mustaqillikka o'rganadi.

**Xo'jalik-maishiy funksiya.** Oila jamiyatning asosiy va doimiy xo'jalik ne-gizidir. Unda oila a'zolarining jismoniy holati bir maromda ushlab turiladi, kasallar va qariyalarga gamxo'rlik qilinadi. Ilm-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan bizning asrimizda oilaning kundalik yumushlari (ovqat pishirish, uy tozalash, kir yuvish, kiyim tikish va boshq) maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari zimmasiga yuklatilmoqda.

**Tarbiyaviy funksiya.** Biz bu funktsiyani alohida ajratib ko'rsatamiz, chunki tarbiya bola tug'ilgandan boshlab, umrining oxirigacha davom etadigan jarayonidir. Bolaning ilk ijtimoiylashuvi jarayonida tarbiya muhim rol o'ynaydi. "Oilaviy hayotning asosiy goyasi va maqsadi-farzand tarbiyasi". (V.A.Suxomlinskiy)

"Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba'zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan ohiriga yetadi. Ammo tarbiya mas'uliyati bardavom bo'ladi. Zotan ota-onaning farzand ne'matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas'uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi."<sup>14</sup> (Shax Muhammad Sodik Muhammad Yusuf)

Tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri shaxsiy namunadir. Xalqimizda "qush uyasida ko'rganini qiladi", degan naql bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshiriladigan ijtimoiylashuv jarayoni, yoshi kattalarning o'zaro munosabatlarni namoyon qilishlari, natijada shaxs ijtimoiy meyyorlar va qadriyatlarni

14 "Baxtiyor oila" Shax Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. HILOL NASHR T.: 2022.355 b

o'lashtirib, ijtimoiy hayotga kirib borishidir.

Farobiyning fikricha, insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l-ta'lim va tarbiya orqali hosil qilinadi: "Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat - nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim esa va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, har ikkalasi birlashsa, yetuklik namoyon bo'ladi...". Demak, Farobiy ta'lim-tarbiyani o'zviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, har birining insonni kamolga etkazishida o'z o'rnini va xususiyati borligini alohida ta'kidlaydi.

Tarbiyaning jamiyat va davlat taraqqiyotidagi muhim o'rnini haqida to'xtalar ekanmiz V.A.Suxomlinskiyning "Farzandlarning munosib inson bo'lib voyaga yetishi uchun ular mehribon oilada tarbiyalanishi kerak" degan fikrlarini keltirib o'tish joizdir.

**Psixoterapevtik funksiya.** Bu funksiya oilada barcha oila a'zolari o'zini qulay sezishi lozimligida namoyon bo'ladi. Psixologlar, sosiologlar, pedagoglarning kuzatishlariga ko'ra, inson kuchlari oila sharoitida jadal tiklanar ekan. Inson ma'naviy quvvatni tartibga solishga intilishi tabiiydir, ayni shu quvvatni tiklashga intilish uni oila qo'riga undaydi. Oilada er-xotinning bir-biri tushunishi va o'zlaridagi ijobiy imkoniyatlarni oila doirasida sarflashi oila a'zolariga o'zlarini baxtli hiss etish imkonini beradi. Inson o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, samarali mehnat qilishi uchun kerakli kuchni oila sharoitidagi sog'lom muhitdan oladi. Oila a'zolari esa oilaga kirishib, qo'shib ketganligi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. y bekasi oilaning birinchi a'zosi bo'lsa, yangi tushgan kelinchak ikkinchi oila a'zosini tashkil etadi. Lekin barcha oila a'zolari uning psixologik muhitini, undagi samimiyatni barqaror etishga o'z hissasini qo'shadi, faqat birinchisi oila manfaatlarini ichkaridan turib, faqat yaxshilikni, barqarorlikni o'ylab ish tutsa, boshqalari tashqaridan turli ma'lumotlar, "o'ziga xos havo" olib kirish yo'li bilan oila muhitini muvofiqlashtiradi



### **O'zbekistonda ko'p bolali oilalarning mintaqaviy xususiyatlari.**

O'zbekistonda yuqori tug'ilish darajasi quyidagi mintaqaviy omillar bilan izohlanadi:

- inson organizmiga geofafik va iqlim sharoitlarining ta'siri, ayollarda homila davrining uzunligi;
- erta nikohdan o'tish an'anasi;
- ijtimoiy omillar;
- ayolning jamiyat va oiladagi o'rni.

Hozirgi kungacha, oilaviy tarbiya amaliyotida ko'p bolalilikning ijobiy va salbiy xususiyatlari borasida bahslar olib borilmoqsa. Sababi, muammoning ahamiyatli ekanligiga qaramay, bu masala hali yetarli darajada o'rganilmagan. Ko'p bolali oila kattalar va bolalardan iborat o'ziga xos jamoadir. Unda shaxsning ijtimoiylashuvi uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Bunday oilada tarbiya jarayonini tashkil etish muammosi bilan shug'ullanuvchi olimlar ham turli qarashlarga egadir. Ularning ba'zilar ko'p bolali oilada bola jamoa munosabatlari orqali tajriba to'playdi, deyishadi, chunki ko'p bolali oila tarbiya uchun qulay sharoitlar yaratadi va ota-onalarning bolalari haqida qayg'urishlari teng taqsimlangan bo'ladi. Boshqa tadqiqotchilar esa, aksincha, ko'p bolali oilada bola har tomonlama yetarli rivojlanmaydi, deb hisoblashadi.

Agar oilaviy tarbiya bola individualligini aniqlash va uning qobiliyatlarini rivojlantirish kerak, degan qoidadan kelib chiqsak, buning uchun oila nihoyatda rivojlangan bo'lishi kerakligiga amin bo'lamiz.

Ko'p bolali oilada individual yondashuv bo'ladimi? Bu yerda tarbiya jarayonining ko'p tamonlamaliligi va standartlashuvi ro'y bermaydimi?

Individual yondashuv uchun, avvalo, psixologik va pedagogik bilimlar, shuningdek, tarbiya jarayonida bolalarni kuzatish uchun maxsus vaqt va psixologik tahlil o'tkazish kerak.

Ba'zi tarbiyaviy omillar o'zbek oilasida, xususan, ko'p bolali o'zbek oilasida uy xo'jaligini yuritish bilan bog'liq. Ko'pchilik o'zbek oilalarida uy ishlarini qiz bolalar bajarishadi, o'g'il

bolalar esa bu vazifalardan deyarli ozod qilinganlar. Bu holat keyinchalik o'g'il bola xarakterida oiladagi muomalasiga xalaqit beruvchi odatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ba'zan bolalar uy yumushlariga xaddan ortiq vaqq ajratishadi.

Bu ham ularning ta'lim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zi o'zbek oilalarida ota-onalar bolalarining o'qishiga befarq bo'lishadi, ularga uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda amaliy yordam berishmaydi. O'zbek oilalarida bola uy vazifalarini kechqurun barcha oila a'zolari to'planishganda qilish odat bo'lgan. Bu vaziyatda ko'pgina chalg'ituvchi omillar ham paydo bo'ladi: televizor ko'rish, oila a'zolarining o'zaro suhbatlashishi, uy yumushlarini bajarish va h.k. Bu borada aksariyat ota-onalar pedagogik maslahatlarga ehtiyoj sezadilar. Shunday hollarda ota-onalarni bolalarga yordam berishning aniq usullari bilan tanishtirish lozim. O'zbek oilalaridagi yigit-qizlarning ijtimoiy moslashuviga xalaqit beruvchi omillarga qizlarni ko'pincha faqat oilaviy hayot uchun, yigitlarni esa mehnat, kasb uchun tayyorlashni kiritishimiz mumkin. Ayol kishidan malakaviy va kasbiy faollikni, erkak kishidan esa o'z siyosat va oilaviy majburiyatlarni bajarishni talab qiluvchi, hozirgi kunda bu an'analarning saqlanib qolishi zamonaviy ijtimoiy talablarga zid keluvchi hodisadir. Bu hodisa ijtimoiy tarbiya va oilaviy tarbiya o'rtasida kelishmovchiliklar borligidan dalolat beradi. Bunday salbiy omillarning ta'sirini bartaraf etish oilani shaxs ijtimoiylashuvining asosiy omili sifatida mukammallashtirishni talab qiladi.

Shu bilan birga, bir qator o'zbek pedagog-olimlari aynan ko'p bolali oilalarda bolalar tarbiyasi uchun qulay sharoitlar mavjud, deb hisoblashadi. Avvalo, ko'p bolali oila pedagogik munosabatga kirishish uchun qulay bo'lgan yosh xususiyatlariga ega. Bir nechta bola mavjud bo'lganida ota-onalarning e'tibori ham ular orasida teng taqsimlanadi. Katta oilada bola yoshligidanoq jamoaviy munosabatlarga kirishadi. Katta va kichik bolalar o'rtasida turli o'zaro munosabatlar shakllanadi.

Ko'pgina ota-onalar ko'p bolali oilalarda bolalarni



tarbiyalash oson, chunki bunda katta farzandlar yordam berishadi, deyishadi.

**Ko'p bolali oilalardagi tarbiyaning eng muhim omillari:**

Muomala muhiti, birgalikdagi mehnat, jamoaviy tashabbus, ota-onalarning talabchanligi, bolalar yoshini inobatga olish hisoblanadi. Bunday oilalar farzandlari axloqiy xislatlarining shakllanganligi mehnatsevarligi, mehribonligi, to'g'riso'zligi, mustaqilligi, ishbilarmonligi bilan ajralib turishadi. Katta oilada mustahkam va tabiiy bolalar jamoasi shakllanib, unda bu jamoa a'zolari birgalikda g'amxo'rlik ko'rsatishadi, oilaning boshqa a'zolari oldida mas'uliyatli ekanliklarini his etishadi. Shunday qilib, *o'zbek oilasining ko'p bolalilik omili bola tarbiyasiga, umuman olganda, ijobiy ta'sir ko'rsatadi.*

<sup>15</sup>**Oilaning ijtimoiy maqomi.** Oilaning jamiyatga moslashuvining ko'rsatkichi uning ijtimoiy maqomi, ya'ni oilaning bugungi kundagi holati hisoblanadi. Oila maqomi oila a'zolarining individual tavsiflari majmuasidan shakllanadi.

Oilaning to'rtta ijtimoiy maqomi mavjuddir. Ular: ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy, ijtimoiy madaniy hamda vaziyatli-rolli maqomlardir.

**Ijtimoiy-iqtisodiy maqom** oilaning moddiy holatini belgilaydi. Bu oila daromadlari, yashash ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi moddiy ta'minlanganlikdir. Daromadlar yuqori, o'rta va past bulishi mumkin.

Yuqori daromad va yashash sharoitlari darajasi nafaqat maishiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini beradi, balki boshqa xizmatlardan foydalanishga ham zamin yaratadi. O'rta daromad va yashash sharoitlari, minimal ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bir qatorda, dam olish, qo'shimcha ta'lim va boshqa xizmatlardan foydalanishga ham zamin yaratadi.

Past daromad va yashash sharoitlari darajasi belgilangan me'yorlarlardan past, ovqat, kiyim-kechak, yashash joyi to'lovi kabi masalalarda ham muammo chiqib turadi.

**Ijtimoiy ruhiy maqom** — bu oiladagi psixologik iqlim, emosional yaqinlik, hamkorlik, teng huqug'ushlik bilan

<sup>15</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

tavsiflanadi. Yomon, noxush iqlim esa nizo-janjallar ko'pligida, emosional noqulayliklarda namoyon bo'ladi.

**Ijtimoiy-madaniy maqom** — ta'lim darajasi, yurish-turish madaniyati, an'nalarni sakdab qolish va o'tkazish vazifasi, qiziqishlarning keng doirasi, rivojlangan ma'naviy ehtiyojlar, dam olish va maishiy hayotning birgalikdagi shakllari bilan tavsiflanadi.

**Vaziyatli-rolli maqom**-bu oilada bolaga munosabat bilan bogliq. Bolaga oqilona ijobiy munosabat va bolaning muammolarini hal etishda yuksak madaniyatligi hamda faolligi oilaning vaziyatli rolli mavqeyi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Bolaga haddan tashqari e'tibor berilmasligi va munosabatning yomonligi, oilaning past madaniyatli ekanligi, vaziyatli-rolli mavqeyi past ekanligini ko'rsatadi.

<sup>16</sup>**Oila tipologiyasi ijtimoiy moslashuv darajasi bo'yicha farq qiluvchi to'rtta kategoriya asosida shakllanadi:**

**Tinch, baxtli oilalar**-o'z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshiradilar, o'z bolalarining ehtiyojlariga tez ko'nikadilar. Muammo paydo bo'lib qolsa, ularga bir kara yordam ko'rsatish kifoya.

**Xavfi bor oilalarda** adaptativ qobiliyatlar birmuncha pastroq. Ular bolatarbiyasini qiyinchilik bilan eplaydilar va ijtimoiy pedagog yordami hamda nazoratiga ex^iyoj sezadilar.

**Notinch oilalar**- hayotiy faoliyatning biror-bir sohasida past ijtimoiy maqomga ega bo'lib, ular o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar. Bunday oilalarning adaptativ imkoniyatlari past bo'lib, ularda bola tarbiyasi jarayoni katga qiyinchiliklar bilan sekin kechadi. Bu oila turi uchun ijtimoiy pedagogning faol yordami zarur. Muammolari xarakteridan kelib chiqib, pedagog ularga pedagogik yoki psixologik yordamlar ko'rsatadi.

**Asosial oilalar**- tubdan isloh qilinishi lozim. Bu oilalarda ota-onalar g'ayriaxloqiy va g'ayrihuquqiy hayot tarzini olib borishadi, yashash sharoitlari oddiy tozalik-gigienik talablarga javob bermaydi. Bolalar tarbiyasi bilan, albatta,

<sup>16</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.



hech kim shug'ullanmaydi, bolalar nazoratsiz qolib ketishadi, rivojlanishda ortda qolishadi. Ijtimoiy pedagog bu oilalar bilan ishlaganida huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqin hamkorlik asosida ish yuritishi zarur.

**Ijtimoiy pedagogning oila bilan ish yuritishi.** Ijtimoiy pedagog faoliyati oilani o'rganishdan boshlanadi. Oiladagi munosabatlarni o'rganish pedagogga oilada bolaning holatini tasavvur qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy pedagog oila bilan ish yuritishda quyidagi asosiy rollarni bajaradi:

Maslahatchi — oilaga ota-onalar va bolalarning o'zaro ta'sirining muhimligi haqida gapirib beradi, bola tarbiyasi bo'yicha pedagogik maslahatlar beradi.

Konsul'tant — oila qonunchiligi masalasi bo'yicha maslahat beradi, mavjud tarbiya metodlarini ma'lum qiladi, oilada bolaning me'yorda o'sishi va rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish usullarini tushuntirib beradi.

Himoyachi — bola ota-onalari tomonidan (giyohvand, aroqxo'r, bolalarga yomon munosabat) to'liq deqratsiyaga duch kelganda, bolani himoya qiladi.

Pedagoglar va oila bilan samarali muloqot o'rnatish, ular bolalarga ijobiy ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Oiladagi ijtimoiy pedagogik faoliyat tizimli yondashuvga asoslangan taqdirdagina yuqori samarali bo'lishi mumkin. Ijtimoiy pedagogning oiladagi asosiy faoliyatini ijtimoiy pedagogik yordam tashkil qilib, bu yordam ta'limiy, psixologik va vositachilik ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

<sup>17</sup>Oilalar bilan konstruktiv sheriklik aloqalarini o'rnatish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni beramiz:

**1. Bolalarning oila a'zolari haqida bilib oling.** Tarbiyalanuvchilarning oilaviy shart-sharoitlari bilan yaqindan tanishish pedagog- tarbiyachilarning eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

**2. Ota-onalar va boshqa oila boshliqlari bilan**

<sup>17</sup> Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. "Rivojlanish psixologiyasi". Darslik. — T.: "Print 25" nashriyoti, 2019-yil, 602 bet.

**suhbatlashish uchun qulay vaziyat yarating.** Pedagoglar do'stona muloqot uslublaridan foydalanib, bolalarning qobiliyatlari to'g'risida optimistik fikr bildirishi, ota-onalarga bolalar ehtiyojlarini bilib olishga yordam beradigan munosabatda bo'lishlari lozim.

**3. Ota-onalar va boshqa oila a'zolaridan ularning maqsadlari, tashvishlari va bolalarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi haqida so'rang.** pedagoglar ota-onalarni ota-bobolari va madaniyati haqida suhbatlashish uchun MTTga kelishga taklif qilib, ota-onalardan bolalarining qobiliyatlari va qiziqishlari to'g'risida anketalarni to'ldirishlarini so'rashlari mumkin.

**4. Ota-onalarga bolalarning yoshga doir muammolari haqida maslahat bering.** Pedagog ota-onalarga yoshga bog'liq xususiyatlar bolalar rivojlanishining tabiiy usuli ekanligini va konstruktiv tarzda hal qilinishi mumkinligini tushunishga yordam berishlari mumkin.

**5. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelmagan ota-onalar turli aloqa shakllari orqali murojaat qiling.** (yozma aloqa, telefon orqali suhbatlar, elektron pochta va veb-saytlar). Pedagoglar bolalar ishlarining videofilmlarini yoki bogchaniing massus tadbirlarda bolalarning ishtiroki haqidagi fotosuratlarini uyga yuborishlari, shuningdek, bogchadagi eng muhim voqealar bilan guruh yangiliklarini tayyorlashlari mumkin.

**6. Oilalarga tashrif buyuring.** Uyga tashrif buyurish - bu ota-onalarning uyda, bolalar bilan bo'lgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashning nisbatan keng tarqalgan usuli hisoblanadi.

**7. Ota-onalarga ular uchun mavjud bo'lgan xizmatlar to'g'risida xabar bering.** Qiynalayotgan ota-onalar ba'zida xizmatlari olishlari mumkin bo'lgan imtiyozli jamoat xizmatlari haqida bilishmaydi. Pedagoglar ota-onalarga foydali xizmatlar haqida maslahat berishlari mumkin.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitlarda oila turli bilim sohalari ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy ish, sog'liqni saqlash va boshqalarning markaziy ob'ektlaridan biriga aylanmoqda.



Chunki har bir jamiyatning kelajagi o'sha jamiyatdagi oilalardagi muammolarni hal qilishga bog'liqdir.

### Ota-ona qaramog'ida bo'lmagan bolalar.

Har qanday davlatda, har qanday jamiyatda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bo'lgan, hozir ham mavjud va keyin ham bo'ladi. Bunday hollarda davlat bu bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishi mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Ota-onasini yo'qotgan bola bu haqiqatdan ham, fojia



Ota-onasiz bolalar o'z-o'zidan "yetim" degan maqomni oladilar. "Yetim" va "ijtimoiy yetim" degan tushunchalar mavjud bo'lib ular bir-biridan farqlanadi.


**Yetim bolalar** bu 18 yoshgacha ota-onasining biri yoki ikkovi vafot etgan bolalardir. **Ijtimoiy etim bolalar** esa biologik ota-onalari bor-u, biroq ular turli sabablarga ko'ra farzand tarbiyasi bilan shug'ullanmaydilar.



Shunday qilib, ota-onalar qaramog'isiz qolgan bolalarga

ota-onalari:

- vafot etgan;
- ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan;
- bedarak yo'qolgan;
- muomalaga layoqatsiz;
- axloq tuzatish koloniyalarida jazo o'tayotgan;
- jinoyat sodir etishda ayblanib, hibsdan bo'lgan;
- bola tarbiyasidan bo'yin tovlayotgan;
- vaqtincha shifo, ijtimoiy maskanlarga joylashtirilgan, hiroq olib ketilmayotgan bolalar kiradi.



**"Yetimlikning asosiy uchta sababini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:**

1. Ota-onalarning (odatda, onalarning) o'z voyaga yetmagan bolasidan vos kechishi;

2. Ota-onadan "Ota-onalik huquqi"ni olib qo'yilganidan so'ng bolaning oiladan majburan ajratib olish;

3. Turli sabablarga ko'ra ota-onaning vafoti.

Bunday holatlarda yetim bolalarni boqish, ularga ta'lim-tarbiya berish va himoyalash uchun qonun bilan belgilangan vasiylik shakllari mavjud.

**Vasiylik** — voyaga etmagan etim bolalarga ular voyaga etguncha gamho'rlik qilish va ularga qolgan mol-mulkka qarab turish, ya'ni ma'naviy otaligidir.

"Vasiy" deganda muomalaga layoqatsizlarni shaxsiy va mulkiy huquqlarini qo'riqlovchi shaxs tushuniladi.

<sup>11</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.



Yetim bolalarga vasiylik qilish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

1. bolalikka olish

2. davlat qaramog'iga topshirish (homiyluk — tarafini olish)

**"Homiyluk"** deganda, biror kimsani himoya etish kabi majburiyat zimmasiga yuklatilgan shaxs yoki muassasa tushuniladi.

Homiyluk yuklatilgan shaxs yoki korxona "homiyluk" deyiladi

**Vasiyluk quyidagi hollarda tugaydi:**

Vasiyluk yoki vasiylikka olingan shaxs vafot etganda;

Voyaga yetmaganlarga nisbatan-ular o'n to'rt yoshga to'lganda;

Vasiylikka olingan bola ota-onasi tarbiyasiga qaytarilganda;

Qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilganlar uchun- ularning muomala layoqati sud tomonidan taqiqlangan taqdirda vasiyluk tugaydi.

Bolani asrab oluvchi oila bolaning yuridik jihatdan yangi oilasi hisoblanadi. Bola u oilaning familiyasini olishi, oila esa unga boshqa ism ham berishi mumkin. Oila bolalikka olingan bolaning barcha huquq va majburiyatlarini o'z bolalarining huquq va majburiyatlariga tenglashtiradi, bolalikka olish bir nechta bosqichda amalga oshirilishi mumkin bo'lib, bunda avval bolaga shu mintaqada yangi ota-ona topishga harakat qilinadi, agar buning imkoni topilmasa, u holda bolalikka oluvchilarni davlatdan tashqarida qidiriladi.

**Asrab olish**

Vasiyluk oilasi

go'daklar uyi yoki vaqtinchalik qabul qiluvchi oila

**Davlat qaramog'iga olish**

- Muruvvat uyi

- Mehribonlik uyi

-Maktab internat

Yetimlarga vasiyluk qilish tizimi bola asrab oluvchi ota-onalar bolali yoki bolasiz bo'lishi ham mumkin.

Shuningdek, to'liqsiz oilalar, yakka shaxslar ham bola asrab olishi mumkin.

Ularni bolani uz oilasiga qabul qilishga undovchi bir qator

sabablar mavjud bulib, bular quyidagilardan iborat:

— fiziologik sabablarga kura uz bolasi bulmagan holatda bolali bo'lish xohishi;

— o'z bolasining vafot etishi;

— o'z bolalari ulg'aygach, yana bolali bo'lish xohishi;

— jamiyatda muhtoj bolalarga rahmdillik xissi;

— yolg'izlik hissi;

— diniy sabab va boshqalar.

Bolani oilaga berish, avvalambor, bunday oilalarni tanlab olish, ularni bu faoliyatga tayyorlashning samarali mexanizmini ta'minlaydigan me'yoriy-huquqiy bazaning yaratilishini talab qiladi.



**Nazorat uchun savollar:**

1. Oilaning bugungi kundagi muammolari haqida nimalarni bilasiz?

2. Jamiyatda oilaning funksiyalari nimalardan iborat?

3. Oila maqomi tushunchasi va uning darajalarini aytib bering?

4. Ijtimoiy pedagogning asosial oila bilan olib boradigan faoliyatini tavsiflang.

5. Oilaga pedagogik yordam ko'rsatishning asosiy shakllari qaysilar?

6. Yetim va ijtimoiy yetim bolalar kimlar?

7. Yetimlikning asosiy sabablarini aytib bering

8. Yetim bolalarni boqish, ularga ta'lim-tarbiya berish va himoyalash uchun qonun bilan belgilangan qanday vasiyluk shakllari mavjud?



## 5-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi amaliyoti

1. Bolalarning ijtimoiy rivojlantirishida maktabgacha ta'lim tashkiloti tajribasini o'rganish.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanish darajasini o'rganish.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish metodikasi.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiyotlarning rivojlanishi.

Bolalik inson hayotidagi o'ziga xos davr bo'lib, bu davrda bola nafaqat jismonan o'sadi balki shaxs sifatida shakllanadi: bola o'zi yashaydigan va rivojlanadigan jamiyatning an'analari, qadriyatlari, madaniyatini qabul qiladi, bilimlarni egallaydi va shaxs sifatida shakllanib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishida nimalarga e'tibor berish kerak?

**<sup>19</sup>Muloqot bola ijtimoiylashuvida yetakchi vositalardan biri hisoblanadi.**

Ijtimoiy rivojlanish kattalar yordamida amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, kattalar bilan muloqot paytida bola qoidalar asosida yashashni boshlaydi, o'z manfaatlarini va suhbatdoshlarining manfaatlarini hisobga olishga harakat qiladi, o'ziga xos xulq-atvor normalarini qabul qiladi. Bolaning kommunikativ tajribasining asosiy manbai oila bo'lib, ota-ona bolaga atrofdagi tengdoshlari bilan muloqot qilish qoidalari boyicha bilim, ko'nikma va tajribani namoyish etadi. Bola oz navbatida ko'rgan narsasiga taqlid qiladi, undan nusxa ko'chiradi.

Ushbu tajribadan foydalangan holda bolalar o'zlarining kichkina dunyosida bir-birlari bilan muloqot qilishni o'rganadilar.

Ma'lumki shaxs tugilmaydi, balki shakllanadi. Har

<sup>19</sup> Социальное воспитание дошкольников Брест БрГУ имени А.С. Пушкина 2018

to'monlama rivojlangan shaxsni shakllantirishda muloqot yetakchi ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ota-onalar bolaning boshqa odamlar bilan aloqa o'rnatish qobiliyatiga yetarlicha e'tibor berishlari kerak.

**Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanish bosqichlari:**

**1. Tugilgandan olti oygacha.**

Go'dak kattalar yordamida aloqa asoslarini o'rganadi, yuz ifodalari va harakatlari, tovushlar kabi aloqa vositalaridan foydalanadi.

**2. Olti oydan ikki yoshgacha.** Bu davrda bola predmetli faoliyat orqali kattalar bilan aloqani namoyon qiladi. Bola tez-tez ota-onasining yordamiga muhtoj, u nimanidir so'raydi, qo'shma harakatlar qiladi.

**3. Uchunchi yoshdan to'rt yoshgacha.** Ushbu yosh davrida bola o'z tengdoshlari jamoasida muloqot qilishni xohlaydi. Tengdoshlari muhitiga kirib borib bola uning meyyorlari va qoidalarini qabul qiladi va unga moslashib boradi.

Bunda ota-onalar va kattalar bolaga faol yordamchi bo'lishadi: boshqalarning o'yinchoqlarini olish yaxshi emasligi, o'rtoqlari bilan do'stlashish va ularni hafa qilmaslik kerakligi, qanday qilib odobli bola bo'lish kerakligini haqida aytishadi.

**4. To'rt yoshdan besh yoshgacha.** Bu yosh davri bola dunyodagi hamma narsalar haqida cheksiz savollar berishi bilan ajralib turadi. Bolaning nutqi muloqotning asosiy usuliga aylanadi. Bola kattalar bilan ma'lumot almashadi va atrofdagi dunyo hodisalarini muhokama qiladi.

**5. Olti yoshdan yeti yoshgacha.** Bu yoshga kelib bolaning muloqoti shaxsiy shaklga ega bo'ladi. Bola ijtimoiy munosabatlarining 30 foizi tengdoshlari bilan bo'ladi. Bolalar o'zlarini tutishning ba'zi usullari tengdoshlari uchuun maqbul, ba'zilari ma'qul emasligini anglaydilar. Boshqa odamlarning fikrlari to'grisida tobora ko'proq xabardor bo'lishlari bilan bolalar ijtimoiy jihatdan maqbul yo'l tutishga intilishadi.

Bolaning to'laqonli shakllanishi ko'p jihatdan ijtimoiy muhitning o'ziga hos xususiyatlariga, ota-onalarning shaxsiy



xususiyatlariga bogliq bo'lib, ular bolalarning shaxsiyatini shakllantirish uchun eng muhim na'muna bo'lib xizmat qiladi.

**Maktabgacha yoshdagi bola ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillar:**

oila;  
bolalar bogchasi;  
bolalar muassasalari; (to'garaklar, studiyalar)  
tabiat;  
tarbiya.

Bularning barchasi bolaning ijtimoiy muhitini tashkil qiladi.

**<sup>20</sup> Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga qanday ta'sir qiladi?**

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ijtimoiy shakllantiruvchi maxsus muhitning yaratilganligi;

bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan uyushgan muloqotning mavjudligi;

o'yin, mehnat va o'quv tarbiyaviy faoliyatning tashkil etilgani;

didaktik qo'llanmalar va o'quv jihozlarining mavjudligi.

Bu shartlarning barchasi bir vaqtning o'zida maktabgacha yoshdagi bolaning intensiv bilim olishi, ijodiy rivojlanishini ta'minlash bilan birga ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy hususiyatlarini shakllantirishni ta'minlaydi va bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar bogchasiga bormaydigan bola uchun yuqoridagi barcha rivojlanish omillarining kombinatsiyasini tashkil qilish oson bo'lmaydi.

Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bolaning hayotdagi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Odamlar bilan oson muloqot qilish, ularni tushunishga urinish, hamdardlik bildirish, yordam berish bilan namoyon bo'ladigan umumiy yaxshi odob-axloqlar ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning eng muhim ko'rsatkichlaridir. Shuningdek bolaning o'z ehtiyojlari haqida gapirishi, maqsadni

<sup>20</sup> Социальное воспитание дошкольников Брест БрГУ имени А.С. Пушкина 2018

to'g'ri qo'yish va unga erishish qobiliyati ham ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning yana bir muhim jihatidir.

**Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar:**

**<sup>21</sup> 1. Farzandingizga ijtimoiy ko'nikmalarni namoyon u bilan suhbatlashing.**

**2. Farzandingizni e'tiborli bo'lishga o'rgating.** Bolaga boshqa odamlarga ham e'tiborli bo'lishini, ularning ham o'z ehtiyojlari, istak -hoxishlari borligini tushuntiring. (bola hudbin bo'lib tarbiyalanmasligi kerak)

**3. Farzandingizga mehrli bo'ling.** Farzand tarbiyasida adolatli bo'ling. Bunda

bolani o'rab turgan muhit mehrga, e'tiborga va tinchlikka to'la bo'lsin.

**4. Farzandingizga o'yinchoqlari bilan bo'lishishni o'rgating.** Bu unga tezroq do'stlar orttirishga yordam beradi.

**5. Bolangiz uchun ijtimoiy doirani yarating.** Uyda, bolalar o'yin maydonchalarida, bolalar bogchasida tengdoshlari bilan muloqot oqnatishiga yordam bering.

**6. Bolangizning yaxshi hulq-atvorini maqtang.** E'tiborni boladagi yaxshi xislatlarni rivojlantirishga qarating, shunda bola tabiatida yomon xislatlarga o'rin qolmaydi.

**7. Bolangizni o'zaro yordam va e'tiborga o'rgating.** Bolaning hayotidagi vaziyatlarni tez-tez muhokama qiling: shu bilan u axloq asoslarini o'rganadi.

**8. Maxsus ehtiyojga ega tengdoshlariga nisbatan bolalarning hamdardligini rivojlantiring.**

**9. Boshqalarga nisbatan umumiy hurmat tuyg'usini rag'batlantiring.** Bolalarga o'z jamoalarining barcha a'zolarini qabul qilishlari va hurmat qilishlari to'g'risida doimiy ravishda muloqot qiling.

Ruxshunoslarning fikricha, bolalik-bu shaxsning ijtimoiylashuvi, kommunikativ qobiliyatlarni o'zlashtirishi, o'ynash, quvonish, hafa bo'lish, hamdardlik bildirish kabi sifatlarining shakllanishida muhim davr hisoblanadi. Bolaning

<sup>21</sup> Z.S.Teshabayeva "Bolangiz bogchaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y



hayotida emosiylarning o'zni juda muhim hisoblanadi va bularning hammasi uning kelajak hayotida asqotadi. Bolaning yoshi katta bo'lishi bilanundagi ichki hissiyotlar yanada boyib boradi. Ba'zi bolalar o'zlarining hisslarini qanday namoyon qilishni bilmaydilar yoki issiyotlarini ifodalab berishga qiynaladilar Bolalarda hissiyotlarni shakllantirish juda muhim, agar bola o'z hissiyotlarini namoyon qilishni bilmasa undagi intellektuallik jarayonining rivojlanishi sekinlashadi. Bunday bolalar jamiyatda o'rnatilgan tartib-qoidalarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga uchrashi, kattalar bilan munosabatlarda kelishmovchiliklarga uchrashu va jamiyatda ijtimoiylashuvi qiyin kechishi mumkin.

3-4 yoshli bola o'zini yahshi tutishni biladi chunki u "yahshi" va "yomon" ning farqiga boradi. Lekin bu davrda bolaning kayfiyati ko'proq jismoniy sogligiga bogliq bo'lladi. Bu yoshda bolada o'z tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlar shakllanadi, bu uning emotsional holatlarida namoyon bo'ladi, sizning e'tiboringiz va qo'llab quvvatlashingiz bola uchun juda muhimdir.

<sup>22</sup>4-5 yoshga kelib bola jismoniy va emotsional munosabatlarda kuchli bo'ladi. Bolalarda emosiylarning eng ko'p namoyon bo'lishi kata maktabgacha yosh davriga to'g'ri keladi. Bola kamdan-kam holatlardagina qo'rquv, ko'z Yoshi yoki hafa bo'lganini yashiradi. Hayotining bu davrida bola "hamma uchun eng yahshi bola" bo'lishni hohlaydi va tengdoshlari bilan munosabat uning kayfiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun emosiylarni aniqlash oson emas chunki ular jest yoki holatga qarab emas yuz ifodasiga qarab emosiylarni aniqlaydilar.

Emotsional ta'sir orqali bolani tarbiyalash nozik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonga bolani shoshtirmasdan va majburlamasdan yo'naltirish lozim bo'ladi. Eng asosiy shartlardan biri – tarbiyachining sodir bo'layotgan barcha jarayonga munosabati, hissiyotlarning samimiyligi va tabiiyligidir. Bu yo'nalishda bolalarning emosional sohalarini

<sup>22</sup> Z.S.Teshabayeva "Bolangiz bogchaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y

rivojlantirish orqali ular hatti-harakatlar qanday kechinmalarga olib kelishini tushuna boshlaydilar, axloqiy-estetik sifatlar hamda insonparvarlik tushunchalari shakllana boshlaydi. Atrof olamdagi voqelik va hodisalarga nisbatan bolalarning tushunchalari kengayadi.

Quyida keltirilgan bolalardagi emosional sifatlarni shakllantiruvchi mashg'ulotlardan bolalar bogchasida ham uyda ham foydalanish mumkin.

#### "Men hursand bo'laman..." o'yini

Tarbiyachi otishdan oldin "Men quyoshni ko'rsam hursand bo'laman" deydi, va bolaga koptokni otib undan hamshunga yaqin mazmunda jumla aytishini so'raydi "Men hursand bo'laman...", keyin bola koptokni yana tarbiyachiga otadi, tarbiyachi keyingi bolaga otadi va o'yin shu tarzda davom etadi, o'yin shu tarzda davom etadi. O'yinni mazmunini o'zgartirish Masalan: "men hafa bo'laman...", "Men hayron bo'laman..." kabi. Bunday o'yinlar bolaga uni o'rab turgan insonlar haqida yaqindan bilishga yordam beradi.

#### "Tosh oyna" o'yini

Oynani qo'lma-qo'l uzatish davomida tarbiyachi bolalarga oyna qarashi va "Salom, bu men" deb jilmayishlarini taklif qiladi. Oynaga qarab samimiy kulmayotgan bolalar alohida e'tiborga ehtiyoj sezayotganini bilish mumkin. Samimiy kulguni ogiz harakatlari va ko'z harakatlaridan kuzatish mumkin. Shundan so'ng bolalardan hafa bo'lish yoki qo'rquvni tasvirlash so'raladi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishida nimalarga e'tibor berish kerak?

2. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuriting.

3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga qanday ta'sir qiladi?

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar haqida so'z yuriting.

5. Shaxsning ijtimoiylashuvi, kommunikativ qobiliyatlarni o'zlashtirishida hissiyorlarning o'zni haqida so'z yuriting.



## 6-Mavzu: Ijtimoiy ta'lim shaxs ijtimoiylashuvi omili sifatida

1. Bolalar ijtimoiylashuvida tarbiyachining roli.
2. Ijtimoiy kompetensiya – bola rivojlanishining asosi sifatida.
3. Ijtimoiy ta'limning shaxslilik sifatlarini shakllantirish, shaxslararo munosabatlar tajribasini o'zlashtirishdagi o'rni va ahamiyati.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi bolalarni jamiyatimizning munosib farzandlari etib tarbiyalashdek muhim fahrli va mas'uliyatli vazifani bajarish bilan birga, ta'lim-tarbiya ishlarini sifatli hal etishga ijodiy yondoshib, o'z kasbiy mahoratini faollashtirib boradi. Bolalarni sevish-pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi.

Bolani tarbiyalash nihoyatda qiyin va murakkab jarayon bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgandir. Xususan, qadimgi Gretsiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o'zining ma'naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat a'zolari o'rtasida yuksak hurmat ehtiromga sazovor bo'lgan kishilar, ya'ni donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgandir. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi uning tashkil etilishi mazmunini faqat shaxs kamolotini emas, balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

<sup>23</sup>Bolalarning o'zlari haqidagi bilimlari, e'tiqodlari va hissiyotlari ularning o'zini anglash hissi sifatida tushuniladi. O'z-o'zini anglashning alohida elementlari turli xil nomlar bilan, jumladan, o'z-o'zini anglash, qadrlash va qadr-qimmatni o'z ichiga oladi. o'z-o'zini anglash tushunchasi o'ziga xos xususiyatlar, kuchli va zaif tomonlari to'g'risida bilim va ishonchni o'z ichiga oladi holda "Men kimman?", degan savolga javob beradi. Bolalarning o'zini-o'zi anglashi va qadr-

<sup>23</sup> Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. "Rivojlanish psixologiyasi". Darslik. – T.: "Print 25" nashriyoti, 2019-y

qimmatini bir-biri bilan chambarchas bog'liq. **Bolalarning o'zini anglash hissi bir nechta muhim vazifalarni bajaradi.** Bu bolalarga nima bo'lganini tushunishga yordam beradi va ularni boshqalarning ma'qullashi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarga bajarishga undaydi ("Agar men Ravshanga yaxshi munosabatda bo'lsam, ehtimol u men bilan o'ynashimni so'raydi").

Yosh bolalar o'zlarini bir nechta aniq, osongina kuzatiladigan xususiyatlar va xatti-harakatlar nuqtai nazaridan belgilaydilar. Maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining umumiy jihatlarini bir-biridan farqlay olishadi, masalan, ular har kungi mashg'ulotlarda qay darajada ishtirok etayotganliklari, oila va do'stlar ularga qanchalik yoqishini sezishadi.

### Tarbiyachi-pedagog

Tarbiyachi-maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassisligi bo'yicha yetuk bilimli va yuksak fazilatli shaxs sanaladi. SHuning uchun zamonaviy tarbiyachi murabbiy qiyofasida quyidagi fazilatlarini namoyon eta olishi kerak. Zamonaviy murabbiy o'zini mutaxassisligi bo'yicha chuqur puxta bilimga ega bo'lish, o'z ustida tinimsiz ishlashi kerak. Tarbiyachi maktabgacha tarbiya pedagogikasi va psixologiya, fiziologiya fanlarining asoslarini bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etishi kerak. Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo'lish, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olish lozim. Tarbiyachi bolalarni ko'zata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ta'sir etuvchi vositalarni qo'llay oladigan bo'lishi kerak. Bolaning faolligi ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida uning bilish, o'yin, mehnat va o'quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu



faoliyatni o'zlashtirib, ushbu faoliyat bilan bogliq bilim, malaka ko'nikmalarni o'zlashtirtadi, shu asosida unda turli qobiliyat va shaxsiy xususiyatlar shakllanadi.

**Bolalarning o'z-o'zini anglashlarini namoyon etish uslubi bolalik davrida keskin o'zgarib turadi, buni bolalarning o'zini o'zi anglash ko'rsatkichlarini kuzatish orqali ko'rishgiz mumkin.**

- 2 va 3 yoshda bola "men" va "o'zim" olmoshidan tez-tez foydalanadi

- 3 va 4 yoshdan boshlab avtobiografik shaxs paydo bo'ladi

- O'z-o'zini aniq tavsiflash, masalan, "men o'g'ilman", "men chiroyliman".

- Qanday vazifalarni bajarish mumkinligi haqida o'zida ishonch paydo bo'ladi

- O'zining his-tuyg'ularini tengdoshlari bilan ulashish

- Ko'pgina bolalarda odatda o'z-o'zini hurmat qilish namoyon bo'ladi

**Ijtimoiy bilish - boshqa odamlar qanday o'ylashlari, harakat qilishlari va munosabat bildirishlari mumkinligi haqida fikr yuritish jarayoni va shunga mos ravishda o'zlarining shaxslararo xatti-harakatlarini tanlash.**

### **O'yin**

Bola ijtimoiy rivojlanishining eng qulay va samarali shakli o'yindir. O'yin davomida bola ijtimoiy hissiy jihatdan shakllanadi, o'zini kattalardek tutishga intilib, kattalarning (ota-onasi, tarbiyachi, sotuvchi va xk) xatti-xarakatlariga taqlid qiladi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishni o'rganadi. O'yinda bola o'rab turgan dunyo bilan o'zaro munosabatda bo'lishni o'rganadi. Nizolarni hal qilishning turli usullarini o'zlashtiradi, bularning barchasi bolaning o'z ihtiyoirlari bilan ijtimoiy rivojlanishida yordam beradi.

**Bolalarda shaxslararo munosabatlar shakllantirishda quyidagilarga ahamiyat bering:**

- Bolalarni so'nggi voqealarni birgalikda qayta hikoya qilishga jalb qiling;

- Bolalarning yuksak ambitsiyalarini kamsitmang ("Men prezident bo'laman!"), (Ambitsiya (shuhratparastlik) ko'proq o'g'il bolalarga xosdir). Lekin ularning kuchlarini yaqin kelajakdagi maqsadlarga yo'naltiring;

- Bolalarni har sohada (masalan, jismoniy mashqlar, ijtimoiy munosabatlar va o'quv predmetlarida) qobiliyatlari va yutuqlari uchun maqtang;

- Agar kerak bo'lsa, bolalarning jismoniy jozibadorligini oshiradigan gigiyena va shaxsiy parvarish qilish odatlarini o'rgating;

- Turli xil odamlarning fikrlari, hissiyotlari, istiqbollari va ehtiyojlari haqida suhbatlashing;

- Bolalar juda ta'sirli va go'zallikni hiss qiladilar, u bilan kino, muzey va teatrlarga tashrif buyuring;

- Bolaning axloqiy xatti-harakatlarini ragbatlantiring;

- Bolalar maktabga o'tayotganda ularni qo'llab-quvvatlang va optimist bo'ling.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining bola ijtimoiylashuvidagi roli qanday?

2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi qanday bilimlarga ega bo'lishi kerak?

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini-o'zi anglash ko'rsatkichlari haqida ma'lumot bering.

4. O'yinning bola ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni haqida so'z yuriting.

5. Bolalarda shaxslararo munosabatlar shakllantirishda oid tavsiyalar haqida so'z yuriting.



## 7- mavzu: Maktabgacha yoshdagi bola ijtimoiy ta'lim ob'ekti va subyekti sifatida

1. Maktabgacha yosh davrida shaxslilik xususiyatlarining namoyon bo'lishi.
2. Maktabgacha ta'limning maxsus ijtimoiy tashkilot sifatidagi funksiyalari.
3. Rivojlanishning ijtimoiy xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi asosiy neoplazmalar.

Maktabgacha yosh davrida ijtimoiylashuv bola tug'ilishidan maktabga borgunga qadar bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi:

### **Bolalik, erta bolalik, maktabgacha bolalik davrlari.**

Bola rivojlanishi qaysi yosh davrida bo'lishidan qat'iy nazar tashqi va ichki faktorlar ta'sirida shakllanadi. Bolalar rivojlanishda muvaffaqiyatlarga erishish bilan birga turli xil inqirozlarni boshdan kechiradilar. Shuning uchun ham bola shaxsi rivojlanishiga to'g'ri yondashish va buning uchun sohadagi ilmiy-tadqiqot tajribalar, ularning natijalarini o'rganib, tavsiya va maslahatlarni amaliyotga joriy qilish ko'zlangan maqsadga erishishda muhim rol o'ynaydi.

<sup>24</sup>Maktabgacha yosh davrida ijtimoiylashuv oilada amalga oshiriladi, bolada atrof-olam haqidagi bilimlar, yaxshilik va yomonlik haqidagi birinchi g'oyalar shakllanadi, bu erda bola o'zini anglaydi.

Nutqni o'zlashtirishi bolada ijtimoiylashuvning sifat jihatidan yangi bosqichini boshlaydi, atrofda o'zaro ta'sirlar bolani ijtimoiy dunyoga faol qo'shilishiga imkon beradi.

Ijtimoiylashuvning dastlabki bosqichida bolaga to'g'ridan-to'g'ri, uzoq muddatli, doimiy ijtimoiy ta'sir ko'rsatadigan ota-onalar va oilaning roli ayniqsa katta. Ijtimoiy pedagogikada bolaga ijtimoiy ta'sir etuvchi kishilar ijtimoiylashuv agentlari deb nomlanadi.

### **Maktabgacha yosh davrida ijtimoiylashuv agentlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

<sup>24</sup> Социальное воспитание дошкольников Брест БрГУ имени А.С. Пушкина 2018

Ota-onalar, aka-uka va opa-singillar, bobo-buvilar, yaqin va uzoq qarindoshlar, enagalar, oila do'stlari va tengdoshlar. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiylashuvning hal qiluvchi omili hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davridagi ijtimoiylashuv natijasida bola maktabga tayyor bo'lishi kerak. Maktabga tayyorlik avvalgiga qaraganda ko'proq mustaqillikka, boshqa kattalar va tengdoshlar bilan bevosita hamkorlik qilishga tayyorlikni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy jarayonlarning rivojlanishi bir qator omillarga bog'liq.

Yetakchi faoliyat kontekstida bolaning barcha aqliy funksiyalarining faol rivojlanishi sodir bo'ladi, bu ularning sifat o'zgarishiga olib keladi, ushbu o'zgarishlar bolaning munosabatlar tizimidagi qarama-qarshiliklarning manbai hisoblanadi chunki yangi imkoniyatlar bolaning atrofda haqiqat bilan munosabatlarining eski shakliga mos kelmaydi.

**Ushbu nomuvofiqlik rivojlanish inqirozi deb ataladi.** Rivojlanish inqirozi, L. S. Vygotskiy ta'rifiga ko'ra, "bu bolaning shaxsiyatidagi o'zgarishlardir".

Bu uning aqliy rivojlanishining normal jarayonida burilish nuqtasidir. Inqiroz

- bu, birinchi navbatda, bolaning ichki o'zgarishlari zanjiri bolaning atrof-muhitga munosabatini belgilaydigan ichki tajribani qayta qurish, uning xatti-harakatlarini boshqaradigan ehtiyojlar va motivlarning o'zgarishi hisoblanadi.

Rivojlanish inqirozi tufayli aqliy rivojlanishning bir bosqichidan ikkinchisiga, bir yosh davrining tugashidan keyingi davrning boshiga o'tish mumkin.

**Maktabgacha yosh davrida bola to'rtta inqiroz davrini boshdan kechiradi:**

- neonatal inqiroz;
- bir yosh inqirozi;
- uch yosh inqirozi;
- yetti yosh inqirozi.

<sup>25</sup> Hishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. "Rivojlanish psixologiyasi". Darslik. – T.: "Print 25" nashriyoti, 2019-yil.



Rivojlanishning ijtimoiy holati va yetakchi faoliyat turining o'zaro ta'siri inqiroz davridagi qarama-qarshiliklarni hal qilish orqali har bir yosh davrining mohiyatini tashkil etuvchi psixologik neoplazmalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Psixologik neoplazma deganda aqliy jarayonlardan tortib shaxsiyatning individual xususiyatlariga qadar bo'lgan turli xil aqliy hodisalar tushuniladi. Psixologik neoplazmalar rivojlanishning ushbu bosqichida yuzaga keladigan aqliy va ijtimoiy o'zgarishlarni anglatadi va bolaning ongini, atrof-muhitga munosabat, ichki va tashqi hayot, umuman rivojlanish jarayoni belgilaydi.

"Psixologik neoplazmalar ma'lum bir davrda bolaning butun aqliy rivojlanishining umumlashtirilgan natijasidir va keyingi yoshdagi bolaning aqliy jarayonlari va shaxsiyatini rivojlantirish uchun boshlang'ich nuqtaga aylanadi". (L. S. Vygotskiy).

#### **Asosiy psixologik neoplazmalar va maktabgacha yosh davridagi inqiroz**

Yoshga bogliq neoplazmalar sifatida, shaxs tuzilishi va uning faoliyatining yangi turi, ma'lum bir yoshda yuzaga keladigan va bolaning ongida, uning ichki va tashqi hayotidagi o'zgarishlarni keltirish mumkin. Bu rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish imkonini beruvchi ijobiy xislatlardir. Maktabgacha yoshdagi neoplazma –bu maktabga tayyorgarlik komplekslari: -kommunikativ tayyorgarlik; -kognitiv tayyorgarlik; -hissiy rivojlanish darajasi; -shaxsiy tayyorgarlikdir.

#### **Yosh inqirozi bu yosh bosqichlaridagi o'tish qiyinchiliklaridir**

**Bir yoshgacha davrida bolaning asosiy ehtiyojlari:** muloqotga ehtiyoj, o'z hissiyotlari va noroziliklarni ifodalashga hohish, yurish va harakatga ehtiyoj yuqori bo'ladi.

Bir yoshgacha davrda bolaning muloqotida ruhiy hususiyatlari:

• 3 oylikdan 6 oylikgacha bola katta yoshdagi odamlar bilan tanlab munosabatda bo'ladi.

• 3 oylik go'dak begonalar orasidan onasini ajrata oladi, 6 oylikdan boshlab esa begonalar ichidagi qarindoshlarini ham farqlay oladi.

• 3-4 oylik go'dak unga tez yuzlangan, erkalangan, muloqotga kirishgan har qanday odamga tabassum qiladi erkalanadi.

• 5-6 oylikdan u muomala qilayotgan shaxsga bir oz tikiladi, keyin kulimsiraydi yoki undan yuzini o'giradi.

• 8-9 oylikdan kattalar bilan dastlabki o'yin faoliyatini boshlaydi

#### **Uch yosh inqirozi:**

Nemi's psixologi El'z Keller " Uch yoshli bola shaxsiyati" nomli tadqiqot ishida bolalar ruhiyaridagi yetti ko'rinishni sanab beradi:

**Negativizm** ya'ni bolaning boshqalar bilan munosabatida salbiy reaksiya kuzatilib, kattalarga bo'ysunishni istamaydi.

#### **Injiqlik**

#### **Qaysarlik**

#### **O'z boshimchalik**

#### **E'tiroz bildirish**

#### **Kattalarni hurmat qilmaslik**

**Despotizm** (zo'ravonlik) kuzatilib, ko'pincha boladan "Men o'zim..." iborasini eshitish mumkin

#### **Yetti yosh inqirozi.**

• Ijtimoiy munosabatlarda o'z ornini topishga harakat qiladi

• Mustaqil bo'lishga intiladi

• Ayyorlik, o'jarlikka moyil bo'ladi

• "Nima uchun?", "Qanday?", "Nega?" degan savollarni bera boshlaydi.

Mutaxassislarning aytishicha bu davr uzoq davom etmaydi va inqiroz bola rivojlanishi uchun zarur deb ta'kidlaydilar

<sup>16</sup>Uzoq davom etmaydigan ushbu davrdan o'z asablarimizni asragan holda, bola ruhiyatiga zarar bermasdan o'tib olish

26 Z.B. Teshabayeva "Bolangiz bogchaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y



uchun quyidagilarga amal qilishni tavsiya qilamiz:

1. **Inqiroz har bir bolada uchraydigan tabiiy holat ekanini tushuntiring.** Farzandingiz tarbiyasizligi yuragingizni gasht qilmasin, uni to'g'ri yo'lga solaman deb qattiq qo'llik qilmang, uni jazolamang, asabiylashmang.

2. **Farzandingiz mustaqil nimanidir qilishini qo'llab quvvatlang** va bu ishi uchun uni maqtab qo'ying. Bu davrda bola mustaqillikka intiladi, shuning uchun farzandingiz qilmoqchi bo'lgan ishlarga imkon qadar havfsiz sharoit yaratib bering. Natijasi siz hohlagandek bo'lmasa ham, ishiga aralashmaslikka harakat qiling. Eng asosiysi bola sogligi va havfsizligidir.

3. **O'zingizni hotirjam tutishga harakat qiling.** Asabiylashganingizni ko'rgan farzandingiz sizga yoqmagan ishida davom etadi, agar siz uning qilgan ishlariga hotirjam munosabat bildirsangiz, bola ishini takrorlashga qiziqmaydi.

4. **Bolaga tanlash imkonini bering. Bu davrda bola o'zi hohlaganini qilishga harakat qiladi.** Bunday hollarda tanlovni oldindan tayyorlab qo'yishingiz mumkin. Masalan qizingiz sovuq kunda bogchaga yupqa ko'ylakchasini kiyishni hohlab qolmasligi uchun, 2 ta qalinroq kiyimini avvaldan tayyorlab qo'ying va undan qaysi birini kiyishni hohlashini so'rang. Bu davrda bolaning fikri bilan hisoblashish inqiroz davrini osonroq o'tishiga yordam beradi.

5. **Bolaga oila va bogchada ma'lum qoidalar mavjudligini tushuntiring.**

6. **Yo'q deyishni ham biling.** Hattoki inqiroz davrini boshidan kechrayotgan farzandimizga asosiy qoidalarni buzmasliklarida qat'iy turganimiz ma'qul, toki u yoshligidan qoidalarimizni bilsin.

7. **Farzandingizga ko'proq e'tibor bering.** Bizning madaniyatda uch yosh inqiroz davri oilada keyingi farzandning tugilishi yani bolaning aka yoki opa bo'lgani davriga to'g'ri kelib qoladi, natijada bolaga ota-ona mehrini yetishmasligi inqiroz davrini sekin o'tishiga sabab bo'ladi va bola ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Farzandingizning mustaqillika bo'lgan harakatini baqirish,

so'kish orqali to'htatish farzandingiz sizni eshitmay qo'yishiga yoki o'ziga ishonchi sinishiga olib kelishi mumkin. Bu o'tkinchi davr farzandingizning alohida shaxs sifatida shakllanishining birinchi bosqichi. Bu davrda ota-onalar o'zlarini qo'lga olishi va har qanday holatda ham farzandini yahshi ko'rishini amalda ko'rsatishi juda muhim.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ijtimoiylashuv agentlari haqida ma'lumot bering

2. Rivojlanish inqirozi nima?

3. Maktabgacha yosh davridagi inqirozlar haqida ma'lumot bering

4. Maktabgacha yosh inqirozi davrida ota-onalarga qanday pedagogik-psixologik tavsiyalar berasiz?



## 8- mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy tajribani shakllantirish

1. "Ijtimoiy tajriba" tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.
2. Ijtimoiy bilim, ko'nikma va fikrlash usullari. me'yorlar va odatlar.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy axloqiy xatti-harakatlar va tajribani shakllantirish.

**Ijtimoiy tajriba bu- insonning hayoti davomida shakllangan odatlar, his-tuyg'ular, bilim va ko'nikmalar majmuidir.**

**Ijtimoiy** - hayot, jamiyat va odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq jarayon bo'lib.

**Tajriba** - muayyan harakatlarda ishtirok etishda va kuzatuv jarayonida olingan bilimlardir.

Bunda shaxs jamiyatning bir qismi bo'lishi va doimo u bilan o'zaro muloqot qilishi, shuningdek jamiyatda o'zining ijtimoiy mavqeiga ega bo'lishi hayotini idrok etishiga aniq iz qoldiradi. Insonning jamiyatdagi mavqei uning dunyoqarashi, qadriyatlar va ehtiyojlari bilan belgilanadi.. Ijtimoiy tajriba farovonlikka erishish uchun nima qilish kerakligini shaxsga bildiradi. Ko'p hollarda, boshqalarning hayotini kuzatishda va ularning xatolarida olingan xulosalar asosi sifatida qabul qilinadi

<sup>27</sup>**Ob'ektiv ijtimoiy tajriba**-bu butun insoniyat tomonidan to'plangan narsa, chunki bunday tajriba birgalikdagi hayot faoliyati davomida erishiladi. Bu urf-odatlar, xulq-atvor me'yorlari, axloqiy me'yorlardir.

**Umumiy ijtimoiy tajriba**- ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan milliy urf-odatlar, an'ana, qadriyatlar va marosimlar majmuidir. Umumiy ijtimoiy tajribani o'zlashtirish, milliy madaniy muhitga va uning qadriyatlariga ko'nikishning eng bevosita va abadiy manbasi hisoblanib, milliy tarbiyaviy ahamiyatini inson hayoti davomida saqlab qoladi

<sup>27</sup> Социальное воспитание дошкольников Брест БрГУ имени А.С. Пушкина 2018

**Ijtimoiy bilim, ko'nikma va fikrlash usullari. Qadriyat va odatlar.**

**Qadriyat** — voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha.

Inson uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'saltik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyatlar hisoblanadi. O'zbek xalqi shaxsiy xislatlarida ifodalangan milliy xususiyatlari oilada milliy va diniy qadriyatlar asosida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib ta'lim-tarbiya, odat, marosimlar, qoidalar shaklida mustahkamlangan. Bunday qadriyatlarga, avvalo, o'z yurtining o'toishiga xurmat, milliy an'analarga sodiqlik va ularni hayotga tatbiq etish kiradi.

Axloqiy qadriyatlar asosida uzbek oilasida rostgo'ylik, vazminlik kabi xislatlar shakllanadi. O'zbek oilasining pedagogik va psixologik xususiyatlari alohida e'tiborga loyiq. Chunki ular hayot tarzi, ma'naviy axloqiy muhit, tarbiyaviy tamoyillarni belgilab beradi. Bularga milliy qadriyatlarga sodiqlik, diniy an'analar va marosimlarga hurmat, bolalarni yaxshi va xayrli amallarni qilishga undash, o'z so'zida turish, kattalarning yoshlarga namuna bulishi, sabr-toqatli bo'lish, yosh xususiyatlarining inobatga olinishi, munosabatlarning hamkorlik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida qurilishi kabilar kiradi.

An'analar, qaysidir ma'noda, iqtisodiy va ma'naviy barliqning tarkibiy unsuri sifatida bizning hayotimizni kelajak bilan bog'laydi. Har bir rivojlanish bosqichida an'analarning mazmuni va ahamiyati aniq ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va vazifalar bilan belgilanadi.

An'ana va odatlarga ikki o'zaro bog'liq ijtimoiy vazifa xosdir: a) shu jamiyatda o'rnatilgan munosabatlarni barqarorlashtirish vositalari; b) bu munosabatlarni yangi avlod hayotiga tatbiq qilish. Bu vazifalar turli yo'llar bilan amalga oshiriladi: agar urf-odatlar bu hayotda qanday harakat qilish lozimligini aniq



belgilab qo'ygan bo'lsa, u holda an'analar, yurish-turishning umumiy me'yorlari yoki tamoyillarini ilgari suradilar.

Har bir insoning o'z ehtiyoji bor bu bizning xohish-istaklarimizni belgilaydi, bularning barchasi insonning ijtimoiy yo'nalishini aks ettiradi. Masalan: kimdir pulni sevadi va boy yashashni xohlaydi. Bu kishining hayotiy maqsadi boylik bo'lishi mumkin. U shuning uchun u ishlaydi, biznesni tashkil qiladi - o'zi uchun chin ma'nodagi baxt nima ekanini o'zi quradi.

Boshqa odamlar uchun hayotning maqsadi oila bo'lishi mumkin. Ba'zilar o'yin-kulgiga vaqt ajratishga tayyor, chunki bu ular uchun baxt. Boshqalari esa o'zlarini rivojlantirishda o'zini to'la his qilishadi. Umuman, hayotning maqsadlari ko'p bo'lishi mumkin. Ularning barchasi istaklardan kelib chiqadi. Bu tuyg'uni har doim boshdan kechirish, biz hamma narsani qilamiz - maqsadlar qo'yamiz, ularga erishamiz. Shundan keyin biz baxtli bo'lamiz.

Bolada ijtimoiy tajribaning shakllanishiga avvalo oila va ta'lim muassasalari (bolalar bog'chasi va maktab) muhim rol o'ynaydi. Bolaning oiladan ta'lim muassasalariga borishi uning ijtimoiylashuvida muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki bu jarayonda bolaning ijtimoiy tajribasi yangi qoida va axloq-normalari bilan birlashadi. Ijtimoiy tajribani egallash nafaqat shaxs joylashgan sharoitlar, balki uning shaxsiy xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu qat'iy ravishda inson taraqqiyotidagi moslashuvchanlikni belgilaydi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. "Ijtimoiy tajriba" tushunchasi va uning tarkibiy qismlari haqida so'z yuriting.

2. "Qadriyat"-tushunchasi haqida so'z yuriting

3. O'zbek oilalaridagi milliy va diniy qadriyatlar haqida so'z yuriting

4. Oila va ta'lim muassasalarining bolalarda ijtimoiy axloqiy xatti-harakatlar va tajribani shakllantirishdagi orni haqida ma'lumot bering.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy axloqiy xatti-harakatlar va tajribani shakllantirishga oid tavsiyalar bering

### **9-mavzu: Ijtimoiy rivojlanishida pedagogik faoliyat metodlari va texnologiyalar**

1. Ijtimoiy rivojlanishida pedagogik faoliyat metodlari va texnologiyalar

2. Ijtimoiy rivojlanishda pedagogik trening o'tkazish xususiyatlari

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlikni shakllanishiga yordam beruvchi o'yinlar

Bolalar ijtimoiylashuvida, ularning deviant xulq-atvorini oldini olishda, ularga yordam berish jarayonida amaliy tatbiq etish ijtimoiy pedagog oldida turgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammoni hal qilish uchun ijtimoiy o'z kashining xususiyatlarini o'rganib chiqqan va zamonaviy pedagogik faoliyat metodlari va texnologiyalarini bilishi zarur.

Pedagog o'z amaliy faoliyatida pedagogika-psixologiya va ijtimoiy ishda qo'llanilayotgan metodlardan foydalanadi. Metoddan tashqari, ijtimoiy pedagogikada «usul» va «vositalar» tushunchalari qo'llaniladi

Vosita, usul va metoddan ko'ra kengroq tushuncha hisoblanadi. Chunki usul va metod faqatgina muayyan holatlarda vosita vazifasini bajarishlari mumkin. Vositalar— ijtimoiy pedagog tomonidan kutilgan maqsadga erishish uchun qo'llanadigan moddiy, emotsional, aqliy va boshqa shartlar majmuasidir.

Turli metodlarning maqsadga muvofiq birikishi ijtimoiy pedagogik texnologiyaning mohiyatini tashkil qiladi. "Ijtimoiy pedagogik texnologiya" tushunchasi "pedagogik texnologiya" va "ijtimoiy texnologiya" tushunchalaridan kelib chiqqan. Pedagogik texnologiya ikki sohada o'z ildizlariga ega. Birinchisi, texnik fanlar o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnik vositalarni qo'llash va ishlab chiqish, ikkinchisi, ijtimoiy fanlar

**Ijtimoiy pedagogik texnologiya ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari va usullari majmuasidir..**



Ijtimoiy pedagogik texnologiya ijtimoiy pedagogning ishtirokini talab qiluvchi har qanday muammoni hal qilish unga tashxis qo'yishdan boshlanadi.


1. Tashhis qo'yish axborot tahlili, to'plash va tizimlashtirishdan iborat.

2. Keyingi bosqich bu muammoni hal qilish yo'llarini qidirish. Buning uchun tashxis asosida maqsad qo'yiladi va unga muvofiq faoliyatning aniq vazifalari belgilanadi.

3. Ijtimoiy pedagog qanday texnologiyani qo'llashiga ko'ra, shunga mos tushuvchi faoliyat metodlari va shakllarini tanlaydi.

Ijtimoiy ta'lim fani shaxs ijtimoiylashuvini organar ekan, albatta, shaxslar guruhi, bu guruhda shaxslar ortasida amalga oshuvchi munosabatlarni etibordan chetda qoldirmaydi. Ayniqsa, bolaning tengdoshlari va kattalar bilan bolgan muloqoti va uning bola rivojlanishiga tasirini organishga alohida etibor qaratadi.

Bolalar ijtimoiylashuvini o'rganish «tabiiy zot» bo'lib tugilgan bolaning inson ijtimoiy tajribasini egallab, «shaxs» bo'lub yetishini o'rganishda to'g'ri yo'l topishga yordam beradi.



<sup>28</sup> **Eksperiment metodi** – o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy tajriba metodlarining ilmiy asoslarini 1910 yilda rus psixologi A.F.Lazurskiy kichik maktab yoshidagi bola shaxsini

<sup>28</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

shakllantirishni o'rganish maqsadida qo'llagan. Tabiiy metoddan foydalanishda, ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o'qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlari, o'zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish nazarda tutiladi.

Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilarning o'zlari bexabar bo'lishi ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kundalik mehnat doirasida amalga oshirilishi lozim.

Kuzatish metodi – **ikki xil bulib, ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (ichki) kuzatish turlari mavjud.** Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- a) kuzatishning maqsad vazifasi belgilanadi;
- b) kuzatilayotgan ob'ekt tanlanadi;
- v) tadqiqot o'tkazish vaqti rivojlantiriladi;
- g) kuzatish qancha davom etishi qat'iyalashtiriladi;
- d) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'qish, o'yin, mehnat, sport) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi
- e) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa) tanlanadi;
- y) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon) tayyorlab qo'yiladi

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati xis-tuyg'ulari, asab tizimining tashqi ifodalari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati kabilar o'rganiladi. **Ammo o'ta murakkab ichki kechinmalar, yuksak xissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni etmaydi.**

Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur buyicha ham ma'lumotlar olish mumkin. Ish ustidagi kayfiyatni chehradagi tashvish va iztirobni, sinchkovlik va ruhiy holatlarni kuzatib, tafakkurdagi o'zgarishni aniqlash mumkin.

Bundan tashqari qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi ham insonning ruhiyatidagi o'zgarishlar bo'yicha



ma'lumotlar beradi.

**Sotsiometriya** (lot. "jamiyat" va yunoncha. "Men o'lchayman" dan) kamida olti oy davomida mavjud bo'lgan kichik aloqa guruhlarida shaxslararo munosabatlarni tashxislash uchun ishlatiladi. Sotsiometrik metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Bunga amerikalik sotsiolog J. Moreno (1892-1974) asos solgan. Uning fikricha, insonning ruhiy holati, xulq-atvorining adekvatligi ko'p jihatdan uning kichik guruhning norasmiy tarkibida egallagan pozitsiyasiga bog'liq. Simpatiya-ning etishmasligi ham shaxslararo muammolarning oqibati, ham ularning manbasiga aylanadi mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatida kim bilan birga qatnashilishi so'raladi. Bu ma'lumotlar guruh-iy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi.

**Sotsiometriya** - shaxslararo munosabatlar tavsifiga asoslangan kichik guruhlar uchun tadqiqot usullari majmuidir:

- a) guruhdagi birlashish-tartibsizlik darajasini o'lchash;
- b) "sotsiometrik pozitsiyalarni" aniqlash, ya'ni. guruh a'zolarining simpatiya-antipatiya asosidagi obro'si, bu erda guruhning "rahbari" va "rad etilgan" o'zini o'ta qutblarda topadi;
- v) o'zlarining "norasmiy liderlari" tomonidan boshqarilishi mumkin bo'lgan birlashgan shakllanishlar - guruh ichidagi quyi tizimlarni aniqlash.

**Ushbu usuldan foydalanib, guruhning alohida a'zolarining mashhurligini - nomaqbulligini aniqlash, jamoaviy faoliyat sharoitida odamlarning ijtimoiy xulq-atvori tipologiyasini o'rganish, guruhning norasmiy tuzilishini ochib berish, ijtimoiy darajani aniqlash mumkin**

Savollarning ma'nosi guruhning barcha a'zolari uchun nihoyatda tushunarli bo'lishi kerak, bu tuzuvchidan respondentlarning yoshi, intellektual va boshqa xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi;

barcha savol iloji boricha aniq tasvirlanishi kerak (masalan, **"Kim bilan o'ynashni xohlaysan?"** emas (qayerda? qachon?

qanday sifatda? qanday sharoitda? va hokazo)

**Hozirgi vaqtda sotsiometriyadan psixologlar, sotsiologlar, o'qituvchilar, konfliktologlar va ijtimoiy ishchilar faol foydalanmoqda.**

Sotsiometriya shaxsning bir-birini tanlash motivlarini keng ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa sotsiometriyaning ya.M. Kolominskiy ishlab chiqqan o'zgartirilgan turi bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to'laroq axborot beradi.

### **Suhbat metodi**

#### **Anketa, yozma, ogzaki**

Suhbat metodi bilan inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi. Uning ob'ekti va sub'ekti tanlanadi, mavzu o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan bog'liq savol - javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi ma'lum bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql - zakovati, xulq - atvori, qiziqishi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi. Suhbat chog'ida o'zaro izchil bog'langan savollar beriladi.

Suhbat metodining yuqorida ta'kidlangan ijobiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Qaytarik so'zlar "galiz" iboralar nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi, muvaffaqiyatsizlikka sabab buladi. Shuningdek savol-javobning bir xil shaklda emasligi sinaluvchida o'ziga xos ishlash uslubi oshkoralikning etishmasligi, iymonish, uyalish atroficha ma'lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

So'rovnoma metodi-ijtimoiy pedagogikada keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. So'rovnoma odatda 3 xil tuzilishda bo'ladi:

birinchisi xayoli anglatilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi.



Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechta dan tayyor javoblari beriladi. Uchinchisida sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. So'rovnomadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga tengdoshlarga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlashda foydalaniladi.

### **Test metodi**

#### **Intellektual, psixokorreksion**

So'ngi yillarda keng qo'llana boshlagan metodlardan biri, test metodidir

Test so'zi inglizcha so'z bo'lib, o'lchash degan ma'noni bildiradi. Test metodi orqalibolalarning umumiy aqliy taraqqiyoti darajalari va ayrim psixik jarayonlarning (tafakkur, hayol, hotira) qanchalik rivojlanganlik darajasi aniqlab taqqoslanadi. Test metodi boshqa metodlarga qaraganda ancha universal metod hisoblanadi. test metodi yordamida bolalarning yoshlariga nisbatan normal taraqqiy etganliklari yoki orqada qolganligini ham aniqlash mumkin

**Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi.** Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va hayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod ish davri psixologiyasida keng qo'llaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoklar, modellar, yozgan she'rlarini tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallar qo'llash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Ob'ekt bilan sub'ekt o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirtidan ma'lum xukm xulosa chiqariladi.

**Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish** orqali bolalar, o'quvchilar, talabalar, konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar psixik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plashi mumkin. Lekin insondagi psixik o'zgarishlar kamol topish va ularning kechishini ifodalovchi materiallar yig'ish uchun bu metodning o'zi etmaydi. Shuning uchun inson psixikasini o'rganish maqsadida boshqa metodlardan ham foydalanish

Trening - ingliz tilidan training-train-o'qitmoq, tarbiyalamoq, trenirovka, degan manoni bildiradi. U o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy g'oya va fikrlarni amaliy ish, mashqlar davomida o'zlashtirish, muloqot almashish imkonini beruvchi tashkiliy tadbir hisoblanadi.

Kishilarda muloqot malakalari tasodifan yoki ta'lim mahsuli sifatida shakllanib boradi. Ijtimoiy psixologik treninglar ikki xil vazifani:

- 1) muloqot va pedagog muomala qonuniyatlarini o'rganish;
- 2) pedagogik kommunikatsiya texnologiyasini egallash, kasbiy pedagogik muomala ko'nikma va malakalarini shakllantirishni ta'minlaydi.

**Ijtimoiy trening-** mashg'ulotlari davomida bolalar bilimi kengayadi, o'ziga yaqin atrofdagilarga ijobiy munosabat tajribasi shakllanadi. trening mashg'ulotlari paytida har bir bolaga e'tibor qaratiladi, gamho'rlik ko'rsatiladi. Shuningdek bola boshqalarning yordamiga tayanishi mumkin. Bola avval unga hos bo'lmagan kommunikativ ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qodirligini anglashi mumkin. Trening mashg'ulotlari bolani jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlashga yordam beradi. Ijtimoiy-pedagogik treningning vazifasi har bir bolaning individuai qobiliyatlarini namoyon qilishga yordam berishdan iboratdir.

### **Bolalarda muloqatchanlikni shakllantirishga yordam beruvchi o'yinlar**

#### **"Ismlar - fazilatlar"**

Bu o'yin guruh tarbiyalanuvchilarining kayfiyatini ko'tarish va o'zlarini erkin his qilishlari uchun tashkil qilinadi.

Har bir bola biron-bir ismning birinchi harfi bilan boshlanadigan shaxsning ijobiy xarakter xususiyati, kishi fazilati nomini aytish lozim (masalan, Rustam - rostgo'ylik, Murod — mardlik va hokazo).

#### **"Orqama-orqa"**

Ishtirokchilar xona bo'ylab harakat qiladilar. Tarbiyachi tana a'zolaridan birining nomini aytadi, masalan, "orqa" deydi. Shunda ishtirokchilar o'zlariga juft topib, bir-biriga suyanishlari



kerak. O'ziga sherik topa olmagan ishtirokchi esa o'rtaga chiqadi va o'yinni davom ettirish uchun boshqa tana a'zolarining nomini aytadi (masalan qo'l, oyoq, bosh barmoqlar, elka va hokazo).

#### **"Qaerga, qaerga"**

Guruh a'zolarining har biri raqam bilan nomlanadi. Ishtirokchilar o'z raqamlarini eslab qolishlari kerak. Shundan so'ng ular aralashib ketishadi. Boshlovchi o'rtada turib ikkita sonni aytadi. Shu raqamlar

bilan nomlangan ishtirokchilar "qaerga, qaerga" deb birlarining o'rinlariga o'tib olishlari zarur. Boshlovchi ham bu orada ochiq qolgan joyni egallashga urinadi. Joysiz qolgan ishtirokchi o'yinni davom ettiradi.

#### **"Yomg'ir"**

Bolalar aylana ko'rinishida turib olishadi bunda jimlik hukm surishi kerak. Tarbiyachi hozir siz yomg'ir tovushini eshitasiz, lekin buning uchun mening harakatlarimni takrorlashingiz kerak", — deydi.

Tarbiyachi o'rtada turib har bir bolaning oldiga keladi va uning ko'ziga qarab, muayyan harakatlarni bajarib ko'rsatadi. Har bir tarbiyalanuvchi toki tarbiyachi butun davrani aylanib kelib boshqa harakatni ko'rsatmagunicha shu harakatni bajarib turishi zarur.

Harakatlar:

Kaftlarni bir-biriga ishqalash;

Tizzalarni shapatilash;

Oyoqlarni do'pillatish;(yana qanday harakatlar?)

#### **"Rangli kaftlar"**

Maqsad: guruhda hissiy qulaylikni yaratish.

Tarbiyachi 3-xil (qizil sariq va ko'k) "rangli kaft"lardan birini ishtirokchilarga ko'rsatganda, ularning har biriga mos ko'rishish (salomlashish) harakatlari bilan javob qaytarishlari kerak.

Masalan qizil kaft - qo'lni siqib, sariq kaft - orqaga qoqib, ko'k kaft - elkani silab. Ishtirokchilar ko'rsatmaga binoan iloji boricha ko'pchilik bilan ko'rishishga erishishlari kerak. Sarflanadigan vaqt: 20 daqiqa.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari va texnologiyalar haqida so'z yuriting.

2. Eksperiment metodini qo'llash haqida ma'lumot bering

3. Sotsiometriya metodi qanday guruhlar uchun qo'llaniladi?

4. Ijtimoiy trening- mashgulotlarining ahamiyati haqida so'z yuriting

5. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuviga yordam beruvchi qanday o'yinlar bilasiz?



## 10- mavzu: Bola rivojlanish sohalari kompetensiyalari

1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish.
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi kompetensiyalari.
3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi kompetensiyalari.
4. Bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetensiyalari.
5. Ijodiy rivojlanish sohasi kompetensiyalari.

### <sup>29</sup>Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi kompetensiyalari;

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi kompetensiyalari;

Bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetensiyalari;

Ijodiy rivojlanish sohasi kompetensiyalari.

**Jismoniy rivojlanish** va sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi bolalar yoshiga bog'liq o'zgarishlarni va kattalarning bolalar salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun foydalanishi mumkin bo'lgan bir necha fikrlarni ko'rib chiqamiz.

Maktabgacha yoshdagi bola jismoniy rivojlanish ham miqdoriy, ham sifat o'zgarishlari bilan tavsiflanadi. Albatta, bolalar doimo ovqatlanishadi va aksariyat hollarda ortiqcha vazn to'plab boradi. Bu tasodifiy kuzatuvchiga bir necha kunda sodir bo'lganday tuyulishi mumkin. Yirik va mayda motorik qobiliyatlar odatda bosqichma-bosqich yutuqlar natijasida yuzaga keladi.

Rivojlanishning dastlabki paytida bolalarning boshlari qo'l va oyoqlariga qaraganda ancha rivojlangan bo'ladi. Qo'lning yuqori qismi bilagiga qaraganda kattaroq bo'lib, xuddi shu tarzda pastki oyoq ham songa qaraganda yaxshi rivojlanganini

kuzatish mumkin.

Maktabgacha yosh davrida oilalar bolaning jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun ayniqsa mas'uldirlar. Uydagi ko'p sonli tajribalar asosida bolalar ma'lum ovqatlarni yoqtirishni yoki yoqtirmaslikni, faol yoki kamharakat turmush tarziga rioya qilishni va jismoniy xavf-xatarlardan qochishni o'rganadilar. Ota-onalar esa bilvosita oziq-ovqat, xavfsiz uy-joy va tibbiy sug'urta uchun ishlab chiqarilgan resurslar orqali bolalar sog'lig'iga ta'sir qiladi.

Jismoniy harakat bu maktabgacha yosh davrining o'ziga xos belgisidir va u orqali yirik va mayda motorikada keskin o'zgarishlar yuz beradi. Yirik motorika ko'nikmalar, yugurish, sakrash, yiqilish, ko'tarilish va chayqalish, atrof-muhitda katta harakatlanishni ta'minlaydi. Mayda motorika ko'nikmalari, rasm chizish, yozish, qaychi bilan kesish va kichik narsalarga ishlov berish, tugmalarni qadash kabi qo'llar bilan ishlash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar odatda uch g'ildirakli velosipedda yurish, to'pni uloqtirish va ushlash kabi jismoniy mahoratni o'rganadilar. Vaqt o'tishi bilan motorli ko'nikmalar shilliqlashadi va muvofiqlashtirilib, bir necha omillar - mashq qilish, qo'llar va oyoqlarning uzunroq rivojlanishi, mushaklarni boshqarishning genetik jihatdan kuchayishi natijasida yuzaga keladi.

Tarbiyachilar ko'pincha yosh bolalarning kichik individual farqlarni sezadilar. Ba'zan qizlar mayda motorika ko'nikmalarini (masalan, qo'l bilan yozish) o'g'il bolalarga qaraganda osonroq o'rganadilar. Ayrim bolalar esa bunday ko'nikmalarni o'zlashtirishda sezilarni qiyinchiliklarga uchrashi mumkin. Aniq ko'rsatma va amaliyot bolalarning jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi.

**Ota-onalar va pedagoglar uchun bolalar salomatligi va farovonligini ta'minlashga doir bir necha tavsiyalar keltiramiz:**

- \* O'ynash uchun tez-tez imkoniyatlar taqdim eting.
- \* Jismoniy harakatni o'quv mashg'ulotlariga qo'shib olib

<sup>29</sup> "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T.: 2022.



boring.

- Mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy vositalardan foydalaning.

- O'g'il bolalar jismonan qizlarga qaraganda faolroq bo'ladilar, bu farqlarni albatta inobatga oling.

- To'g'ri ovqatlanish va shaxsiy gigiyena qoidalari bo'yicha namuna bo'ling.

- Kun davomida uxlash uchun vaqt ajrating. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kun tartibiga kunning ikkinchi yarmida uyqu vaqtini kiritish odatiy, va albatta, bu yaxshi amaliyotdir.

- Doimiy ravishda foydali to'yimli ovqatlanish asoslarini ko'rib chiqing. Zararli ovqatlarni iste'mol qilish (konfet, chipslar, gazlangan ichimliklar va boshqalar)dan ogohlantiring

- Ba'zi uy sharoitlari masalan, kichkina kvartiralar jismoniy faollikni cheklaydi, bunday sharoitda bolalarni tez-tez sayrga, oyin maydonlariga olib chiqing

- Oilalardan farzandining jismoniy farovonligini qanday qo'llab-quvvatlashingiz mumkinligi haqida fikrlarini so'rang.

<sup>30</sup>“Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- o'z imkoniyatlari va Yoshi bilan bogliq jismoniy rivojlanish meyorlariga mos

- ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi;

- turli harakatchanlik faolligini uygun ravishda va maqsadli bajarishni biladi;

- turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;

- o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;

- shaxsiy gigiyena malakalarini qo'llaydi;

- soglom turmush tarsi va ovqatlanish asoslarini biladi;

- xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalarga rioya qiladi;

## **“Ijtimoiy- hissiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari**

**Hissiyot - shaxsan o'z ehtiyojlari va maqsadlariga mos keladigan hodisaga ta'sirchan munosabatdir.**

Hissiyot bolalar uchun moslashuvchan funksiyalarga ega bo'lib, ularga qanday harakat qilishni hal qilishda yordam beradi. Bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini ijtimoiy jihatdan maqbul va shaxsan qoniqtiradigan usullar bilan o'zlashtiradilar. Hissiy faoliyatdagi individual farqlar ham atrof-muhitdagi kattalarning masalan, ota-onalar, tarbiyachilar va tengdoshlar ta'sirining natijasidir.

Ijtimoiy- hissiy rivojlanish jarayonida bolalar o'zlari va boshqa odamlar haqida ko'p narsalarni bilib oladilar. Bolalar asta-sekinlik bilan umumiy tartib-qoidalar, boshqalarning ishonchliligi (“Onam menga g'amxo'rlik qiladi”), hissiy aloqalar (“Men dadamni yaxshi ko'raman”) va o'zlik tuyg'usini anglab yetadi. Bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini erta bolalik yillarida aks ettira boshlaydilar. Odatda, kichik bolalar ota-onalar va boshqa sevimli tarbiyachilar tomonidan ko'rsatilayotgan mehr-muhabbatni qadrlashadi va o'zlarining mehr-harakatlari bilan faol javob qaytaradilar.

**Ota-onalar va pedagoglar uchun bolalar ijtimoiy-hissiy rivojlanishni ta'minlashga doir bir necha tavsiyalar keltiramiz:**

- yosh bolalarga iliq va sezgir tarzda g'amxo'rlik qiling.

- bolalarga sizga moslashishlariga vaqt bering. Yosh bolalarga yangi tarbiyachilar bilan aloqalarni o'rnatish uchun vaqt kerak. Ota-onalarga bog'langan bolalar, odatda, tanish bo'lmagan tarbiyachining o'ziga xos shaxsiyati va o'zaro munosabat uslubiga moslashishi uchun bir necha hafta kerak bo'ladi. Qolaversa, yangi tarbiyachilar bolalarga ota-onalardan ajralish paytida juda ko'p qulayliklarni ta'minlashlari kerak. Bolalar moslashayotgan paytda, tarbiyachilar mehribon bo'lishlari, bolalarning ehtiyojlarini qondirishlari, hissiyotlariga hamdard bo'lishlari va yutuqlari uchun rag'batlantirishlari mumkin.

- bolalarda hamdardlik kayfiyatini rag'batlantiring. Bola

<sup>30</sup> “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi. T.: 2022.



bilan xafa bo'lgan odamning his-tuyg'ulari haqida gaplashishin va bolani yordam berishga, hamdard bo'lishga undashingiz mumkin.

- iliqlik va ishonch muhitini yarating. Bolalar ijobiy his-tuyg'ularni boshdan kechirganda, masalan, o'zlarini xavfsiz his qilganda, baxtiyor bo'ladilar.

- ijtimoiy- hissiy rivojlanish uchun yoshga mos o'yinlarni taklif eting. Bolalar o'yinda hissiy rivojlanish uchun erkin bo'lishadi.

- ertak qahramonlari boshidan kechirgan hissiyotlarni muhokama qiling. Hikoyalar hissiy holatlar haqida suhbatlashish uchun imkoniyat yaratadi

- o'zingizning his-tuyg'ularingizga e'tibor bering.

- guruhlarni tuzishda bolalarning temperamentlarini hisobga oling.

- ota-onalarga farzandlarining ehtiyojlari to'g'risida maslahat bering. Farzandlari hissiy va xulq-atvorida muammolarga duch keladigan ota-onalar bolalarning hissiy ehtiyojlarini qondirish bo'yicha ko'rsatmalarga muhtoj bo'lishi mumkin.

**"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ng 6-7 yoshli bola:**

- o'z "Men" va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;

- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;

- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;

- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;

- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo'llarini topadi.

**Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi kompetensiyalari.**

Bolalar 3-4 yoshligida atrofdagi odamlar bilan suhbatlar o'tkaza olish uchun yetarlicha nutqiy ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ular ushbu ulkan vazifani qisqa vaqt ichida qanday bajara olishlari - bu bola rivojlanishining ajoyib sirlaridan biridir.

Bolalar tilni o'rganishning muhim xususiyatlaridan biri shuki, ular inson nutqiga juda yoshligidan e'tibor bera boshlaydilar. Tug'ilgandan bir necha kun o'tgach, ular boshqa tovushlardan ko'ra inson ovoziga ustunlik berishadi, tanish va notanish ovozlarni ajratib turishadi va ba'zi hollarda tanish ovozni eshitish uchun katta kuch sarflashadi

Boshqalarni kuzatish va taqlid qilish, albatta, ma'lum darajada tilni rivojlantirishga yordam beradi. Kichkintoylar vaqti-vaqti bilan ota-onalar va boshqa tarbiyachilar tomonidan ishlab chiqariladigan tovushlar va so'zlarga taqlid qilishadi. Kattaroq bolalar esa ba'zida boshqalarning so'zlari va iboralarini o'zlashtirib oladilar.

Ota-onalar va boshqa kattalar bola bilan muloqot paytida predmetlarga nisbatan ravon tilni ishlatishlari muhim.

Ona tilini tinglashda bolalar nutqdagi ko'rsatmalarni diqqat bilan tahlil qiladilar. Ko'pincha bolalar fe'ldan oldin ismlarni o'rganishadi, ehtimol bolalar uchun harakatning uzluksiz oqimidan aniq jarayonni ajratib olish osonroqdir. Bolalar asta-sekin odamlarning voqealarni tasvirlash uchun ma'lum so'zlarni (ya'ni fe'llarni) muntazam ravishda ishlatishini payqashadi.

Maktabgacha yoshda bolalar turli xil so'zlar haqidagi bilimlarini umumiy toifalarga (sabzavotlar, mevalar, hayvonlar) ajrata oladilar. 6 yoshida bolalarning semantik bilimlari odatda 10000 dan 14000 gacha so'zlarni o'z ichiga oladi, ulardan o'z nutqlarida taxminan 2600 tasidan foydalanadilar. 3 yoshga to'lgan bolalar har yili bir necha ming yangi so'zlarni o'rganadilar va har kuni o'z nutqlarida qo'llay boshlaydilar. Bolalar ishlatishi va tushunishi mumkin bo'lgan so'zlar sonining keskin ko'payishi semantik rivojlanishning eng aniq jihati hisoblanadi (Semantik rivojlanish-so'z boshqa so'z bilan qo'shilish uchun ma'lum bir ma'noga ega bo'lib, unda uning muvofiqligi allaqachon kiritilgan bo'lib, bu ma'noning muhim to'g'ri lingvistik ko'rsatkichidir)

Kichkintoylar ba'zan ma'lum bir so'zni tushunishdan va



ishlatishdan oldin uni ko'p marta takrorlashga muhtoj. Ammo bolalar 2 yoki 3 yoshga to'lganida faqat bitta ta'sir qilishdan keyin ko'pincha so'zning umumiy ma'nosini tushunib olishi mumkin.

**Ota-onalar va pedagoglar uchun bolalar nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi kompetensiyalari rivojlanishini ta'minlashga doir bir necha tavsiyalar keltiramiz:**

- Kichkintoylar va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan muntazam ravishda suhbatlashib turing. Hatto yosh bolalar gaplashmasa ham ona tilini eshitishdan ko'p narsalarni o'rganadi.

- Bolalar so'zlarni noto'g'ri ishlatganda fikr bildiring. Zukko tarbiyachilar nafaqat bolalarning so'zlarini, balki ularni qanday talaffuz qilayotganliklarini ham diqqat bilan tinglaydilar.

- Yaxshi tinglashning tarkibiy qismlarini muhokama qiling. Tarbiyachi bolalarga hikoyalarni qanday tinglash kerakligini tushuntiradi

- Yangi so'zlarni ishlatganingizda nimani nazarda tutayotganlarini aniq ko'rsating. Rasmlardan, shakllardan va predmetlardan foydalaning.

- Bolalardan haqiqiy voqealarni eslashni va hodisa haqida so'zlab berishini so'rang. Tarbiyachilar bolalarni og'zaki muloqotga jalb qilishlari eng oqilona yo'ldir.

- Og'zaki nutqda ijodkorlikni rag'batlantiring. Og'zaki nutqda ijodkorlik ko'p jihatdan hikoyalar, she'rlar, qo'shiqlar, hazillar va jumboqlar orqali ifodalanishi mumkin. Tilning bunday shakllari bolalarga bir-biriga o'xshamaydigan narsalar yoki hodisalar orasidagi o'xshashlikni aniqlashga yordam beradi.

- Boshqalar bilan qanday qilib suhbatlashish haqida ko'rsatmalar bering.

- O'z nutqingiz bilan bolalarga namuna bo'ling

- Bolalarni sabr bilan tinglang.

- ota-onalarga farzandlarining nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi kompetensiyalari rivojlanishini

ta'minlashda foydalanishi mumkin bo'lgan tavsiyalar bering.

**<sup>11</sup>Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ng 6-7 yoshli bola:**

- nutqni eshitadi va tushunadi;
- o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay gramatik shakllar va silma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni o'rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsatadi;

- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;

- so'zning lugaviy, bo'ginli va fonetik tuzilishi to'grisida tasavvurga ega bo'ladi;

- turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so'zlab berishni biladi;

- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

**Bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetensiyalari.**

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotdagi narsalar va hodisalarni aks ettirish va o'ylash uchun so'zlar, raqamlar, rasmlar va predmetlardan foydalanadilar. Bu davrda bolalar tilga asoslangan ma'lumotlardan mantiqiy xulosalar chiqarishlari mumkin - masalan, bolalar hikoyalarida tasvirlangan voqealar to'g'risida tegishli xulosalar chiqaradilar. Biroq maktabgacha yoshdagi bolalar har doim ham to'g'ri xulosalar chiqara olmaydilar va ular nimaga e'tibor berishni qisman boshqalarning nimalarga e'tibor berishini tomosha qilish orqali bilib olishadi. Va kattalar asta-sekin, bosqichma-bosqich o'quv faoliyatini boshqarish orqali bolalarga yanada samarali, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatiga ega bo'lib yetishishlariga yordam berishi mumkin.

**Ota-onalar va pedagoglar uchun bolalar bilish jarayonining rivojlantirishga doir bir necha tavsiyalar**

<sup>11</sup> "Ikki qadam" davlat o'quv dasturi. T.: 2022.



### **keltiramiz:**

- kichkintoylar uchun turli xil hissiy tajriba mashqlarini taqdim eting.

Hayotning dastlabki bir necha yillarida bolalar bevosita qarash, tinglash, his qilish, tatib ko'rish va hidlash orqali dunyo haqida ko'p narsalarni bilib oladilar.

- yangi ma'lumotlarni bolalarning mavjud bilimlari bilan bog'lang.

Masalan, ayirish shunchaki qo'shishning teskari tomoni ekanligini tushuntiring.

- bolalarga tinchlik va xotirjamlik vaqtini bering.

- fikrlash jarayonlari haqida tez-tez gaplashib turing (masalan,"Siz bilasizmi?", Qachon ekanligini eslang. . . ? "). Oddiy xotira mashqlarini taklif eting.

- bolalarga o'zlarining bilimlarini baholashlari uchun imkoniyatlar yaratib bering.

- ota-onalarga farzandlarining bilish jarayonlarini rivojlantirish to'g'risida maslahat bering.

**Bilish jarayonining rivojlanishi sohasi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:**

- bilim olishda faol qiziqishni namoyon etadi;

- o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;

- predmetlar voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;

- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo'llaydi;

- makon,shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;

- elementar matematik hisoblarni amalga oshiradi;

- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko'rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;

- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va gamho'r munosabatni namoyon etadi.

### **Ijodiy rivojlanish sohasi kompetensiyalari**

Olimlarning fikricha bola shaxsining shakllanishida uning qobiliyati va ijodkorligi muhim o'rin tutadi. Bolaning iqtidori

va bilimni rivojlantirishda o'yin faoliyati yetakchilik qiladi. O'yin bola uchun erkin va mustaqil faoliyat sifatida tashkil etilgandagina rivojlantiruvchi va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirilgan o'yinlarni tashkil qilish bolada badiiy didni shakllantiruvchi yorqin emotsional vositalardan biridir. Sahnalashtirish faoliyati lasavvurni, bola xotirasi va bola ijodiyotining barcha turlarini (badiiy-nutqiy, musiqaviy-o'yin, raqs, sahna) rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun musiqa rahbari bilan tarbiyachi-pedagog hamkorlikda ishlashi talab etiladi.

Tarbiyachi ifodali o'qish, so'zlash, aktyorlik va rejissorlik mahoratidan boxabar bo'lishi kerak. Eng asosiy shartlardan biri - tarbiyachining sodir bo'layotgan barcha jarayonga munosabati, hissiyotlarning samimiyligi va tabiiyligidir.

**Ijodiy faoliyatini tashkil etishda pedagog quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:**

- bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish uchun sharoit yaratish (kattalar oldida chiqish qilganda o'zini erkin tutish, jumladan, uyatchan bolalarga bosh rollarni berish, nutqi zaif bolalarni jalb etish, har bir bolaning sahnada faol ishtirokini ta'minlash);

- mimika, pantomimika va ifoda vositalari bilan improvizatsiya qilishga undash (personajlarning xarakterini o'zlashtirish, o'zining emotsional holatini, kechinmalarini ko'rsatib berish);

- ijodiy faoliyatini boshqa faoliyat turlari bilan bog'lash (sahnalashtirish o'yinlarini o'quv tarbiyaviy faoliyat va rivojlanish markazlarida qo'llash);

- bolalar va kattalarning hamkorlikdagi ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratish

**Ijodkorlik sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:**

- san'at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi;

- milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning

<sup>11</sup> "Ikki qadam" davlat o'quv dasturi. T.: 2022.



bir qismi sifatida idrok etadi;

- san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;

- olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;

- insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy rivojlanishida qanday fiziologik o'zgarishlarni kuzatish mumkin?

2. "Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ng 6-7 yoshli bolada qanday yutuqlarni kuzatish mumkin?

3. "Hissiyot" tushunchasiga ta'rif bering.

4. Ijtimoiy- hissiy rivojlanish jarayonida bolalarda qanday ruhiy o'zgarishlarni kuzatish mumkin?

5. Ota-onalar va pedagoglar uchun bolalar ijtimoiy-hissiy rivojlanishni ta'minlashga doir tavsiyalar haqida so'z yuriting

6. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ng 6-7 yoshli bola qanday yutuqlarni namoyon qiladi?

7. Ota-onalar va pedagoglar uchun bolalar bilish jarayonining rivojlantirishga doir bir necha tavsiyalar keltiramiz haqida so'z yuriting

8. Bolalar bilan ijodiy faoliyatini tashkil etishda pedagog qanday vazifalarni amalga oshirishi lozim?

## **11-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri**

1. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi va ijtimoiy muhit.

2. Deviant xulq-atvor tushunchasi. Deviant xulq-atvor turlari.

3. Deviasiya konsepsiyalari.

4. Bolalarda xulq-atvor madaniyatini shakllantirish.

Tarbiya, irsiyat va muhit shaxs shakllanishida asosiy o'rin tutadi. Agar ana shu uchta omil bolaga ijobiy ta'sir qilsa, u kelajakda barkamol inson bo'lishi yoki salbiy tomondan ta'sir qilsa bad'axloq kimsaga aylanishi mumkin.

Shaxs va borliqning o'zaro munosabatlarini beshta usul bilan aniqlash mumkin:

1) moslashuv;

2) qarshilik ko'rsatish; 3) ro'para bo'lish;

4) vaziyatdan qochish; 5) mensimaslik.



Shaxsning voqelik (borliq) bilan o'zaro aloqalarining tahlili deviant axloqni baholashning asosi bo'lib xizmat qiladi, zero me'yorning hukmron tamoyili shaxsning nimagadir yoki kimgadir (ya'ni real borliqqa) moslashuvidan kelib chiqadi.

Yetuk intellektual salohiyatli shaxslar voqelikka



moslashuvni tanlaydi. Qarshilik ko'rsatishda shaxs faol ravishda o'ziga, dunyo-qarashiga mos kelmaydigan borliqni o'zgartirishga, ya'ni uni o'zining shaxsiy qarashlari va qadriyatlariga muvofiq o'zgartirishga harakat qiladi. U o'zi duch kelayotgan barcha muammolar borliqning ijtimoiy me'yorlariga asoslanganligiga ishonadi va borliq bilan kurash, borliqni o'ziga moslashtirib o'zgartirishga harakat qilish yoki jamiyat me'yorlarini buzuvchi axloqdan maksimal darajada foydalanish uning o'z maqsadlariga erishishining yagona usuli bo'lib qoladi. Bunda mazkur shaxsga nisbatan borliq tomonidan qaytariladigan javob ham xuddi shunday qarshi harakat qilish, shaxsni o'zgartirish, uni voqelik talablariga moslashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Deviant xulq-atvor (deviant, lot. deviatio-og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umum e'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi.

**Deviant xulq-atvor — jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga mos kelmaydigan xulq-atvor.**

Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor me'yorlaridan chetga chiqqan o'smirlarni "tarbiyasi ogir o'smir" deyiladi. "Tarbiyasi ogir" deganda qabul qilingan me'yor va qoidalarga tarbiyalanuvchi tomonidan amal qilinmasligi va pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatish fanda deviant xulq-atvor hodisasi orqali o'rganiladi.

<sup>33</sup>Odatda, deviasiyalar o'smirlik davrida yuzaga keladi. O'smirlik davri yoshlik davrlari ichida eng murakkabidir. Uni "o'tish davri" ham deb atashadi, chunki bu davr mobaynida bolalikdan yigitlikka o'tish ro'y beradi va bu jarayon o'smir rivojlanishining barcha jihatlarini — anatomic-fiziologik tuzilishi, aqliy, axloqiy rivojlanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'smirning deviant xulq-atvorini diagnostika qilish uchun psixologlar tomonidan "qarshi harakat" deb nomlanuvchi mezonlar ishlab

<sup>33</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

chiqilgan. Bunday holda ular, ijtimoiy, o'quv yoki shaxslararo aloqadagi buzilishlar bilan bogliq eksternal deviasiyani (nafrat, dushmanlik, tajovuz, o'g'irlik, yolg'on) o'z ichiga oladi.


O'smirdagi deviant axloqning muomala belgilari:

- his-hayajonli portlashlar;
- kattalar bilan janjallar;
- kattalarning qoidalari yoki iltimoslarini mensimaslik yoki

bajarishni rad etish;

- boshqa odamlarni jo'rttaga bezor qilish;
- o'z xatolarida boshqa birovlarini ayblash;
- jizzakilikning eng keskin darajasi;
- badjahllik, dargazablik, qasoskorlik, kek saqlash;
- haqoratlar va yuatsis so'zlarni tez-tez ishlatish.

Tadqiqotlarga ko'ra, tajovuzkorlik, gipperfaollik va o'taonalari bilan o'zaro munosabatlarda qiyinchilik alomatlari yaqqol ko'rinib turgan bolalar kattaroq yoshga yetganda bunday muammolari bo'lmagan bolalarga nisbatan besh marta ko'proq jinoyatchi yoki ichkilikboz bo'lib yetishganlar



Bolaning me'yordagi xulq-atvorining rivojlanishi, ehtiyojlariga mos tushuvchi mikrososium bilan o'zaro munosabatida aks etadi.

Agar atrofdagilar bolaning u yoki bu xususiyatlariga o'z vaqtida e'tibor qaratishsa, uning xulq-atvori doimo me'yorda bo'ladi. Bunday me'yordan og'ishgan xulq-atvor jamiyat tomonidan bola shaxsiyati xususiyatlarini inobatga olmaslik oqibatida kelib chiqadi, degan tushuncha paydo bo'ladi

Bolalar dezataptatsiyasi haqida gapirganda, bu jarayonga



giriftor bo'lgan bolalar toifalarini aniqlab olish lozim:

- maktab yoshidagi maktabga qatnamaydigan bolalar;
- yetim bolalar; ijtimoiy yetimlar;
- giyohvand va toksin moddalar iste'mol qiluvchi bolalar;
- jinsiy intizomsiz bolalar;
- gayriqonuniy hatti-harakatlar sodir etgan bolalar.

#### **Bolalar va o'smirlar deviant hulq-atvori sabablari.**

<sup>34</sup>**Voyaga yetmaganlarning deviant xulq-atvorini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilardir:**

**1. Biologik omillar**

**2. Psixologik omillar**

**3. Ijtimoiy pedagogik omillar**

**4. Ijtimoiy iqtisodiy omillar**

**5. Axloqiy omillar.**

**Biologik omillar.** Bola organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anatomik hususiyatlarning borligida o'z ifodasini topadi. Ularga irsiy hususiyatlar, aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi, organizmning psixofiziologik zo'riqishi, nizoli holatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, turli somatic allergic, toksin kasallanishga olib keluvchi ya'ni quvvat manbalari bilan bogliq bo'lgan psixofiziologik hususiyatlar kiradi.

**Psixologik omillar.** Bolada psixopotologiya yoki xarakter aksentuasiasining borligi ya'ni asab kasalliklari, gayriadekvat reaksiyalar va me'yordan chetga chiqishga sabab bo'lyvchi boshqa omillarda namoyon bo'ladi..

O'smirda ruhiyat rivojlanishining ikki bosqichi kuzatiladi: u o'zi yashaydigan ijtimoiy muhitdan bezib qoladi, yoki bu muhitga ko'nikib ketadi. Agar oilada bola ota-onasi tomonidan etarli darajada mehr his qilmasa, u holda bolaning himoya vositasi vazifasini "begonalashuv" bajaradi. Bu begonalashuv asabiy reaksiyalar, atrofdegilar bilan munosabatlarning buzilishi, emosional sovuqqonlik, psixik rivojlanishning to'xtab qolishi,

<sup>34</sup> Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

turli ruhiy patologiyalarda namoyon bo'ladi. O'smirlarga xos bo'lgan rad etish, qarshi chiqish kabi xislatlar, odatda, bir-biriga emosional bog'liq bo'lgan oilaviy munosabatlarning oqibati hisoblanadi.

**Ijtimoiy-pedagogik omillar** maktab, oila va ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'lib, uning asosida bolaning yoshlik chog'ida salbiy tajriba to'plashi bilan bog'liq bo'lgan, uning erta ijtimoiylashuvdan og'ishlarga olib keluvchi yosh, jinsiy va individual xususiyatlar yotadi. Bunday bolalar, avvalambor, maktabda yomon tayyorlanishgan bulib, uy vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan qarashadi, maktab baholariga befarqliklarini bildirishadi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy omillar** ijtimoiy tengsizlik, jamiyatning boylar va kambagal sinflarga ajralishi, aholi ko'p qismining kambag'allashib ketishi, ishsizlik, inflyasiya, daromad olish usullarining cheklab quyilishidan iborat.

Ekologik va ijtimoiy kataklizmalar bolalarni ota-onalaridan judo bo'lishlariga, hayotini izdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

**Kataklizm** - (tabiatda, ijtimoiy hayotda keskin o'zgarish, ag'dar-to'ntar, halokat, falokat).

**Axloqiy omillar**, bir tomondan, zamonaviy jamiyatning past axloqiy darajasida va qadriyatlarning yo'qolib ketishida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, jamiyatda deviant xulq-atvorning namoyon bo'lishiga befarq qaralishida o'z aksini topadi

#### **Deviant xulq-atvorni oldini olish va tuzatishning pedagogik-psixologik vositalari.**

Deviant xulq-atvorli bolalar bilan pedagogik-psixologik xarakterdagi maqsadli tuzatish ishlarini amalga oshirish jarayonida, bolaning individual hususiyatlarini maksimal darajada e'tiborga olish va bunday ta'sirlarning optimal darajada bir-birini to'ldirishini inobatga olish barqaror samara berishi mumkin.

Deviant xulq-atvorni tuzatishning pedagogik-psixologik vositalari jismoniy, kognitiv va an'anaviy shaklda qo'llanilishi



maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy ta'lim bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, kognitiv va xissiy ogishlarni tuzatish esa asosan o'yinlar shaklida amalga oshiriladi.

#### **Bolaning shaxsiyatini tuzatish jarayonidagi ta'lim:**

1. **Tarbiyaviy-tiklanish** bolaning ogish paydo bo'lishidan oldingi yaxshi ishlari haqida hotirasiga murojaat qilish.

2. **Kompensatsion-tiklanish** bolaning ijtimoiy kamchiligining o'rnini muvaffaqiyatga erishish mumkin bo'lgan sohadagi (jismoniy, kognitiv, ijodiy) faoliyatini kuchaytirish orqali qoplash istagini shakllantirish. Bu bolaga o'z imkoniyatlarini, qobiliyatini ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

3. **Ragbatlantiruvchi-tiklanish** bolaning ijtimoiy foydali faoliyatini uning harakatlariga qiziqish bildirish, ijobiy munosabat va ragbatlantirish orqali amalga oshiriladi.

4. **Tuzatish**-bolaning salbiy fazilatlarini, munosabatini va motivatsiyasini tuzatishga qaratilgan turli usullardan foydalanish.

#### **Ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan ta'sir usullari:**

1. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish, o'zig'abo'lgan ishonch va boshqalarga qiziqishni ragbatlantirish;

2. O'z-o'zini tartibga solish, faollikning yetarli darajada namoyon bo'lishi, tashabbuskorlik va mustaqillik, xulq-atvor shakllarini to'g'ri tanlashga o'rgatish;

3. Jamoaga jalb qilish, jamoa azolariga hurmatni singdirish, o'zini namoyon qilishning rivojlanishini ragbatlantirish;

4. Ijodkorlikning amaliy turlariga qiziqish va qobiliyatni uygotish, ijodiy aloqalarni tashkil etishga o'rgatish;

5. Bolaning muvaffaqiyatga erishishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni tashkil etish, ragbatlantirish choralarini ishlab chiqish. . Deviant xulq-atvor tushunchasiga ta'rif bering

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Deviant xulq-atvor turlarini sanang va ularga izoh

bering.

2. O'smirlarning deviant xulq-atvorlarining sabablarini ko'rsating.

3. O'smirlarning deviant xulq-atvorlarga ta'sir qiluvchi omillarga izoh bering.

4. Voyaga etmaganlarning deviant xulq - atvorini keltirib chiqaruvchi biologik va psixologik omillarga izoh keltiring

5. Bolaning shaxsiyatini tuzatish jarayonidagi ta'limhaqida so'z yuriting

6. Ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan ta'sir usullarihaqida ma'lumot bering



## 12-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolaga individual pedagogik yordam ko'rsatish

1. "Individual pedagogik yordam" tushunchasi va uni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida individual pedagogik yordamni tashkil etish mazmuni.

3. Bolaning shaxsiy resurslarini oshirishga imkon beruvchi rivojlantiruvchi vaziyatlarni tashkil qilish usuli.

Ijtimoiylashuvda turli muammolarga uchragan bolalar bilan individual ishlashning yangi usullari, texnologiyalarini izlash va ularni faoliyatga tatbiq etish pedagog oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Pedagogik yordam bolaga muayyan vaziyatda ma'lum bir manbada yetishmayotgan manbani beradigan (aktuallashtirish, kompensatsiya qilish va h. k.) tashqi harakatni nazarda tutadi.

O'zaro munosabatlar tiklangandan so'ng, bolaning o'zi bilan, shuningdek atrof-muhit bilan munosabatlari konstruktiv bo'ladi, bunda tarbiyachining yordami o'z ehtiyojini yo'qotadi.

<sup>35</sup>O'zining ijtimoiy shakllanishi yo'lida inson yoshga bog'liq uchta vazifani hal qiladi: tabiiy-madaniy, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik.

**Tabiiy-madaniy vazifalar** jismoniy va jinsiy rivojlanishning ma'lum darajasiga erishishni o'z ichiga oladi.

**Ijtimoiy-madaniy vazifalar** ular ma'lum bir jamiyatdagi har bir yosh bosqichiga xosdir uning tarixining ma'lum bir davri quyidagilarni o'z ichiga oladi: kognitiv, axloqiy, qiymat-semantik vazifalar.

**Ijtimoiy-psixologik vazifalar** shaxsning o'z-o'zini anglashini, uning o'z taqdirini o'zi belgilashini shakllantirishga qaratilgan hayot va istiqbol, o'z-o'zini anglash va o'zini o'zi tasdiqlash har birida yosh bosqichida ular o'ziga xos tarkibga

<sup>35</sup> Социальное воспитание дошкольников Брест БрГУ имени А.С. Пушкина 2018

va yechimlarga ega.

Bundan tashqari, bola o'zining ijtimoiy shakllanishi jarayonida oila, tengdoshlar jamiyati, ta'lim tashkilotlari va boshqa sub'ektlarning ta'sirini boshdan kechiradi. Ular ham o'sib borayotgan odamga xavf-xatar manbalari sifatida ta'sir qilishi mumkin.

Ilmiy nazariya va amaliyotda ikki asosiy texnologiya profilaktika hamda reabilitasiya keng tarqalgan.

Profilaktika — bola xulq-atvorida ijtimoiy me'yorlardan og'ishning turli shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy va davlat tadbirlarining majmuasidir. U, asosan, bolani o'rab turuvchi muhitga bog'liq bo'ladi.

Profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirayotganda, ijtimoiy pedagog quyidagi qoidalarga tayanadi:

1. Ijtimoiy-madaniy me'yorni o'zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida amalga oshadi. Inson qadriyatlar, g'oyalar va boshqa ramziy tizimlar majmuasini o'zlashtirmay, jamiyatning to'la qonli a'zosi sifatida faoliyat yurita olmaydi;

2. Bolalarning ijtimoiy-madaniy va pedagogik qarovsizligi nafaqat bola rivojining gayrime'yoriy alomati, balki uning zimmasiga anomal ijtimoiy holatlarni yuklatishning natijasi sifatida qaraladi;

3. Bolalar qarovsizligining profilaktikasi nafaqat mavhum ijtimoiy madaniy me'yordan, balki muayyan sharoitda yashashga majbur bo'lgan boladan kelib chiqishi lozim;

4. Bola reabilitasiyasini amalga oshiruvchi faoliyat sub'ekti, ijtimoiy sub'ekt va shaxs darajasida amalga oshirilishi kerak. "Profilaktika" atamasi o'zi noxush oqibatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish ma'nosini bildiradi} Ijtimoiy og'ishlar turli sabab va holatlardan kelib chiqishini inobatga olib, profilaktik chora-tadbirlarning bir nechta turlarini ajratsa bo'ladi:

- neytrallashtiruvchi;
- o'rnini to'ldiruvchi;



— ijtimoiy og'ishlarga sabab bo'luvchi holatlarni yuzaga kelishidan ogohlantiruvchi;

— bu holatlarni bartaraf etuvchi;

— o'tkaziladigan profilaktika ishlarini nazorat qiluvchi.

Bola ijtimoiylashuvdagi muammoli vaziyatlar nafaqat yosh muammosini balki atrof-muhitning salbiy ta'sirini o'z vaqtida hal qilmaslik natijasida ham paydo bo'lishi mumkin.

Reabilitasiya (lot.rehabilitatio-tiklash)- organizmning buzilgan funksiyasini va bemorlar hamda nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora –tadbirlar majmuidir.

Reabilitasiya chora-tadbirlarini amalga oshirishga keng turdagi vazifalar, oddiy ko'nikmalardan tortib, insonning jamiyatga to'liq integrasiyalashuvigacha bo'lgan masalalarni tizimli hal qilish sifatida qarash mumkin.

Reabilitasiya ob'ektlariga quyidagilar kiradi:

1. Ijtimoiy va pedagogik qarovsiz bolalar;

2. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar;

3. Nerv-psixologik sogligi buzilgan bolalar.

Bola ijtimoiylashuvda umumiy muammoli vaziyatlarni shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin:

**Muammolarning birinchi guruhi** bolaning o'ziga nisbatan salbiy munosabati bilan bog'liq. Bu o'z-o'zini qadrlash tuyg'usini yo'qligi, o'zini past baholash, o'zini rad etish kabi sabablar bilan bogliq. Masalan, farzandning ota-onalar tomonidan tashlab ketishi, tengdoshlar tomonidan rad etilishi va shunga o'hshash sabablar bolaning o'ziga nisbatan salbiy munosabati hamda yolgizlik tuyg'usini keltirib chiqarishi mumkin.

**Ikkinchi guruhga** o'z-o'zini bilish, o'zini aniqlash sohasidagi muammolar kiradi.

Ushbu muammolar o'smirlar uchun alohida ahamiyatga ega chunki ularning oldida hayotiy va professional o'z taqdirini o'zi belgilash vazifasi paydo bo'ladi.

O'z taqdirini o'zi belgilash, istiqbollarni loyihalash tajribasining etishmasligi o'smirlarda vaqtini to'g'ri tashkil qila

olmaslik va taqdirini belgilashda muammolarga duch kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

**Muammolarning uchinchi guruhi** muloqotda uchraydi va bolaning ushbu sohadagi qobiliyatsizligi bilan bog'liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga individual psixologik va pedagogik yordamning maqsadi bola shaxsini uning yoshi va individual imkoniyatlari doirasida to'liq rivojlantirish va tarbiyalash uchun psixologik va pedagogik sharoitlarni ta'minlashdan iborat.

**Maqsad maktabgacha yoshdagi bolalarga individual psixologik pedagogik yordam ko'rsatish muammolarini hal qilish zarurligini belgilaydi:**

-bolalarning ruhiy salomatligini, shu jumladan ularning hissiy farovonligini himoya qilish va mustahkamlash;

- har bir bolaning boshqa bolalar, kattalar va dunyo bilan munosabatlar sub'ekti sifatida qobiliyatlari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish;

- bolalarning yoshi, individual, psixologik va fiziologik xususiyatlariga mos ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish;

-oilani psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash va otalarning bolalar salomatligi masalalarida malakasini oshirish

**<sup>16</sup>Bolaga shaxsiy pedagogik yordamni amalga oshirishning asosiy bosqichlari quyidagi ketma-ketlikda qurilgan:**

**Diagnostic bosqichi**, birinchi navbatda, bolaga individual pedagogik yordam talab qiladigan vaziyatni qayd etish bilan bog'liq.

Ikkinchidan vaziyatning xususiyatlari, bolaning xususiyatlari, shu jumladan uning vaziyatga munosabati ya'ni nafaqat muammoning mohiyatini, balki bolaning muammoga nisbatan pozitsiyasini ham aniqlash muhimdir.

Bundan tashqari, ushbu vaziyatlarda kattalar aralashuv zarurligini oqilona baholashlari kerak. Har qanday vaziyat pedagogik yordamni talab qilmaydi. Aksincha pedagogning eng

<sup>17</sup> Социальное воспитание дошкольников Брест БрГУ имени А.С. Пушкина 2018



kichik qiyinchilikda bolani "himoya qilish" istagi bolada infantil pozitsiyani shakllanishga olib kelishi mumkin.

**Shaxsiy pedagogik yordam ko'rsatish bosqichi** bolaning o'z muammoli holatini anglashi va uni yengishga yordam berishi uchun sharoitlar tashkil etishdan iborat

Pedagog va tarbiyalanuvchining o'zaro ta'siri quyidagicha amalga oshadi:

- ushbu vaziyatda yordam berish uchun pedagog mavjud bo'lgan resurslarni aniqlashi;
- pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasida aloqa o'rnatish;
- muammoli vaziyatni birgalikda aniqlashtirish va pedagogning yordamiga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;
- tomonlarning manfaatlari va pozitsiyalarini taqdim etish va o'zaro bog'lash;

#### **Shaxsiy pedagogik yordam turlari.**

M. V. Shakurova yordamning bir nechta turlarini ajratib ko'rsatadi va har qanday turda yordamning "foydalilik darajasi" mavjud:

- o'rnini bosuvchi yordam (bola uchun u yoki bu ishni bajarish: tushuntirish

har qanday hodisa yoki muammolarning sabablari, chiqish variantini shakllantirish

mavjud vaziyat; bu yordam eng kam samaradorlikka ega);

- "men kabi qiling" tamoyili bo'yicha yordam berish yoki namunani takrorlash (o'qituvchi bolaga xulq-atvor, fikrlash, harakat namunalarini namuna sifatida, bola uchun ko'rsatmalarni namoyish etadi; bu erda bolaning ijodiy qobiliyatlarini, individualligini rivojlantirish muammosi paydo bo'ladi);

- hamkorlik shaklida yordam berish (bolaga tegishli bo'lgan muammoli vaziyatni birgalikda muhokama qilishdan iborat);

- boshlash (M. Montessori usuli, "men uchun hech narsa qilmasdan o'zim qilishimga yordam bering, yo'naltiring, qaror qabul qilishga undang, qolganlarini esa men o'zim qilaman");

- oldini olish (pedagog tomonidan bola rivojlanishining

salbiy yo'nalishlarini bashorat qilish, noto'g'ri qadamlarning oldini olish, yetarli echimlarni tanlashda yordam berish).

#### **Rivojlantiruvchi vaziyatlarni tashkil qilish usuli:**

Ushbu usul bolaning shaxsiy resurslarini asta-sekin oshirishga imkon beradi.

Rivojlantiruvchi vaziyatlarni tashkil qilishda pedagog bevosita ishtirok etadi ya'ni, pedagog individual elementlarni boshqarishi mumkin bunda tarbiyalanuvchi mavjud resurslardan samarali foydalanish tajribasini oladi, o'z mahoratini va faoliyat usullarini yaxshilaydi.

Quyida rivojlantiruvchi vaziyatlarni tashkil qilishning variantlari keltirilgan:

- treninglar tashkil qilish (bola treningda qatnashib muammoli vaziyatni hal qiladi);

- ijobiy munosabat (yuzaga kelgan qiyinchiliklarni hal qilish uchun bolaning imkoniyatlariga ishonchni mustahkamlashga imkon beradi);

- mehribonlik va g'amxo'rlikning namoyon bo'lishi (o'quvchiga o'zini his qilishga imkon beradi);

- qayta baholash (salbiy his-tuyg'ular va fikrlarni qayta baholash, ijobiy narsalarga diqqatni jamlash, vaziyatga yangi nuqtai nazarni rivojlantiradi);

- "shaxsning avansi" (A. S. Makarenko) (ijobiy bayonot bola haqida fikrlar, hatto u hali o'zini to'liq namoyon qilmagan bo'lsa ham);

- ishontirish (ma'lum bir qaror, harakat, istiqbolning maqsadga muvofiqligini isbotlovchi qulay va tushunarli taqdimot);

- «yon bosish yondashuvi» (A. S. Makarenko) (bolaga o'z ongini anglashga yordam berish noto'g'ri xatti-harakatlar, xatoni baholashga emas, balki uni tushunishga urg'u berish);

- munosabat ifodasi (kattalarga bo'lgan munosabatini, bolaning o'z fikriga ega bo'lgan tajribali, munosib odam pozitsiyasidan harakatlarini to'g'ri va ochiq ifoda etish);

- tanlov berish (pedagog bir nechta harakat variantlarini



taklif qiladi, bolaning subyektiv pozitsiyasini yangilash, unga tanlov qilish va javobgarlikni qabul qilish imkoniyatini berish bilan bog'liq vaziyat yaratiladi);

- hamkorlikka taklif (bolaning javobgarligiga ishonchni ta'kidlab, topshiriqni o'z zimmasiga olish taklifi);

- yutuqlarni rag'batlantirish (tasdiqlash, maqtov, mukofot, ishonchni ifodalash shaklida amalga oshiriladi).

### **<sup>37</sup>Bolalarni tengdoshlarini bilan munosabat o'rnatishlariga yordam bering:**

1. Bolalarning xatti-harakatlarini o'zgartirishga harakat qilayotganda faol bolalardan yetakchi sifatida foydalaning. Masalan, berilgan vazifani birga bajarishga yordam berishini so'rang;

2. Tengdoshlari noqulay ijtimoiy sherik deb biladigan bolalarni (rad etilgan bolalar) yaxshi qilgan ishlari uchun hammaga maqtang;

3. Bolalar o'zlarini qulay his qilishlari va muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun mumkin bo'lgan guruh tadbirlarini aniqlang. Uyatchan bolalar uchun ijtimoiy ko'nikmalarni egallashlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni tashkil qiling;

4. Munozarali bolalarning xatti-harakatlari noo'rirligini bilib qo'ying, ammo ularning samarali ijtimoiy ko'nikmalarini ham tan oling;

5. Bolalarga yangi paydo bo'layotgan ijtimoiy ko'nikmalarini yaxshilashga yordam bering. Ularni rostgo'y va tengdoshlari bilan muloyim bo'lishga undang.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. "Individual pedagogik yordam" tushunchasini izohlang

2. Ijtimoiy shakllanishi yo'lida inson yoshga bog'liq nechta vazifani hal qiladi?

3. Profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirayotganda, ijtimoiy pedagog qanday qoidalarga tayanadi?

4. Reabilitasiya chora-tadbirlarini amalga oshirish qanday

<sup>37</sup> Z.S. Teshabayeva "Bolangiz bogchaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y

vazifalar o'z ichiga oladi?

5. Bola ijtimoiylashuvida umumiy muammoli vaziyatlarni shartli ravishda nechta guruhga ajratish mumkin?

6. Maktabgacha yoshdagi bolalarga individual psixologik va pedagogik yordamning maqsadi nima?

7. Bolaga shaxsiy pedagogik yordamni amalga oshirishning asosiy bosqichlari qanday ketma-ketlikda qurilgan?

8. Shaxsiy pedagogik yordam turlari haqida so'z yuriting.

9. Rivojlantiruvchi vaziyatlarni tashkil qilish usullari haqida ma'lumot bering

10. Bolalarni tengdoshlarini bilan munosabat o'rnatishlariga yordam beruvchi qanday tavsiyalar berasiz?



### 13-mavzu: Bolalarda o'zini anglash va muomala madaniyatini tarbiyalash

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tengdoshlar guruhi bilan hamkorligi.
2. Tengdoshlari bilan muloqotni rivojlantirish shartlari.
3. Bolalarga kommunikativ ta'sir o'tkazish usullarini o'rgatish metodikasi.

Bolalar o'sib ulg'aygan sayin oiladan tashqaridagi ijtimoiy muhitda: maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tengdoshlari va tarbiyachi, maktabdagi sinfdoshlari va o'qituvchilari, mahalladagi do'stlari va kattalar bilan ko'proq vaqt o'tkazadilar. Tengdoshlar ijtimoiy guruhdagi taxminan bir xil yoshdagi va mavqega ega odamlar bo'lib, ular bolalar rivojlanishiga alohida va muhim hissa qo'shadilar.

<sup>38</sup>**Tengdoshlar bilan do'stlashish bolalarning ustuvor vazifalaridan biridir. Rivojlanish nuqtai nazaridan tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlar bir nechta funksiyalarni bajaradi:**

*Tengdoshlar hissiy yordamni taklif qilishadi;* Tengdoshlarning mavjudligi bolalarga yangi muhitga oson moslashishiga yordam beradi. Garchi ba'zi bolalar yangi vaziyatlarga juda muvaffaqiyatli moslasha olsalar-da, odatda, tengdoshlari bo'lgan bolalar muvaffaqiyatga erishishga intilishadi.

*Tengdoshlar ijtimoiy ko'nikmalar bilan shug'ullanish uchun sherik bo'lib xizmat qiladilar;* Bolalar o'z tengdoshlari bilan o'zaro munosabatda bo'lganda, ular ijtimoiy almashinuvlarga teng asosda kirishadilar. Hech bir shaxs mutlaq kuchga ega emas. Boshqalar bilan samarali munosabatlarni saqlab qolish bilan birga o'z ehtiyojlarini qondirish orqali bolalar ijtimoiy istiqbolga ega bo'lish, o'zini o'zi boshqarish va nizolarni samarali hal qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

*Tengdoshlar bir-birini ijtimoiylashtiradi;* Bolalar turli yo'llar bilan ijtimoiylashtiriladilar. Tengdoshlar bilan bo'sh vaqtni

<sup>38</sup> Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. "Rivojlanish psixologiyasi". Darslik. – T.: "Print 25" nashriyoti, 2019-yil.

o'tkazish variantlarini belgilaydilar, birga o'ynash, o'qish uchun yangi g'oyalarni taklif qilishadi. Ular bir-birlariga namuna bo'lib, nima mumkin va nima mumkin emasligini ko'rsatadilar. Tengdoshlar bir-birlarining yoshi, jinsi, etnik guruhi va madaniy muhitiga mos keladigan usullarda harakat qilishlari uchun e'tiborli bo'ladilar. *Tengdoshlar o'zlikni anglashga hissa qo'shadilar;* Tengdoshlar bilan birlashish bolalarga kimligini va nima bo'lishni xohlashlariga yordam beradi.

*Tengdoshlar dunyogarashning umumiy usullariga erishadilar;* Vaqt o'tishi bilan o'zaro munosabatlarining natijasi o'laroq bolalar dunyo haqida o'zaro fikr almashishadi. Bolalar har bir rivojlanish davrida tengdoshlari bilan o'zaro munosabatda bo'lishlari natijasida bir qator ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydilar.

#### **O'zaro samarali munosabatlarni rivojlantirish**

- **Bolalar bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni yarating.** Guruhning barcha a'zolaridan bir xil mas'uliyatni baham ko'rishni talab qiladigan mashg'ulotlarini tashkil qiling.

- **Bolalarning ijtimoiy guruhlariga kirishiga yordam bering.** Uyatchan yoki jamoaga yangi kelgan bolalarga ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirishiga yordam bering.

- **Ijtimoiy ko'nikmalar va ijtimoiy muammolarni hal qilish yo'llarini o'rgating.** Kattalar va tengdoshlar bilan tez-tez muloqot qilish orqali ko'plab bolalar samarali ijtimoiy xulq-atvoriga ega bo'ladilar.

- **Ijtimoiy o'zaro ta'sirdagi to'siqlarning oldini oling.** Jismoniy yoki nutqidagi nuqsonlar bolalarni tengdoshlari bilan kamroq munosabatda bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Pedagoglar ijtimoiy o'zaro ta'sirdagi bunday to'siqlarni faol ravishda bartaraf etishlari kerak. Maxsus ehtiyojga ega tengdoshlariga nisbatan bolalarning hamdardligini rivojlantiring.

- **Boshqalarga nisbatan umumiy hurmat tuyg'usini rag'batlantiring.** Bolalar o'rtasida do'stlikni samarali targ'ib



qiladigan pedagog o'z jamoasining barcha a'zolarida hurmat tuyg'usini shakllantiradi.

• **Tengdoshlar bilan munosabatlar yaxshi bo'lmaganda, zahira tizimi bo'ling.** Tengdoshlar bilan munosabatlaridagi ziddiyatlar bolalarda hissiy tanglikni keltirib chiqarishi mumkin

• **Bolalarning tengdoshlari bilan munosabatlariga ta'sir qiladigan oilaviy omillardan xabardor bo'ling.** Ota-onalarning salbiy hulq-atvori bolalarning tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlariga ta'sir qiladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Shaxs rivojlanishida ijtimoiy guruhlarining o'rni haqida so'z yuriting
2. Tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlar qanday funksiyalarni bajaradi?
3. Tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlar funksiyalarning mohiyatini yoriting
4. O'zaro samarali munosabatlarni rivojlantirish tavsiyalari haqida ma'lumot bering

#### **14-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalar moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni.**

1. Bolalarning moslashuv jarayonini to'g'ri va samarali tashkil etishda pedagogning o'rni

2. Moslashish davrida bola xulqining o'ziga xos individual xususiyatlari.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida maxsus uyushtirilgan tadbirlar va o'yinlar vositasida ijtimoiy tajribani shakllantirish.

Hozirgi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarni mttga qamrab olish bo'yicha juda ko'p yaxshi tajribalarga egamiz. Bolalarni bog'chaga qabul qilishdan oldin ota-onalar bilan tanishish, ular bilan ishlash, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada bir xil kun tartibi kiritish amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Ammo bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashish davrida uning xulqini shunchaki yo'naltirish emas balki rostakamiga boshqarish uchun bola rivojlanishining yoshga oid xususiyatlarini bilishga asoslangan har tomonlama chuqur o'ylangan ish tizimi kerak bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari, tarbiyachilar va ota-onalar bolaning jamoaviy tarbiya sharoitlariga moslashish jarayoni mohiyatini chuqur anglashlari lozim.

<sup>19</sup>Axir xanuzgacha ba'zi tarbiyachilar bog'chaga yangi kelgan bolaning ko'z yoshi va inijliklarini shunchaki ularning erkakliklari natijasi deb biladilar. Ularning bola bilan muomalasi uydagi muomaladan keskin farq qiladi, ular xattoki ota-onalarga ham bolaga shunday munosabatda bo'lishlari kerakligini maslahat beradilar. Bolaning moslashishi davridagi ko'z yoshlari, xavotiri va qo'rquvini muqarrar jarayon deb bilganlar xato qilishadi. Bu davrni bolaning ko'z yoshlarisiz o'tmaydi deb hisoblaydiganlar adashadilar.

Ba'zi maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari moslashuv davri qiyinchiliklarini yosh xususiyatlari bilan bog'laydilar

<sup>19</sup> Z. N. Teshabayeva "Bolangiz bogchaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y



hamda ilk maktabgacha yosh davrida bolalarni faqat oilada tarbiyalashni maslahat beradilar, bu ham noto'g'ri.

V.A.Suxomlinskiy yozganidek "Qalb shunday sifatga egaki, bu siz inson hech qachon haqiqiy tarbiyachi bo'lolmaydi, bu sifatlarning eng muhimi bola qalbiga yo'l topa olishdir". Qalbning bunday xislatlari bog'chaga yangi kelgan bola bilan muomalada tarbiyachi tomonidan to'laqonli namoyish etilishi lozim.

Nimaga ayrim bolalar bog'chada o'zlarini xotirjam tutadilar, boshqalari esa bobosi yoki oysi ketib eshik yopilishi bilan yig'lashni boshlaydilar?

Nega ba'zi bolalar bog'chaga kelganidan so'ng o'ynashni rad etishadi, tarbiyachi bilan gaplashmaydi, tengdoshlari bilan uzoq vaqt muloqotga kirisholmaydi? Boshqa bolalar esa bog'chaga borgan birinchi kunidanoq o'zini erkin, go'yoki suvdagi baliqdagidek xis qiladilar. Ushbu farqlarning sabablarini tushunish aniqlash lozim. Bog'chaga kelayotgan har bir bolaning qiziqishlari va intilishlarini tushunishlari lozim yoki Suxomlinskiy so'zlari bilan aytganda bolaning ma'naviy dunyosiga shung'ish lozim. Maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida moslashuv jarayonini to'g'ri va samarali tashkil etish, to'g'ri boshqara olish uchun tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlarini yaxshi bilishi va o'z ishi davomida hisobga olishi lozim.

Avvalam bor shuni esda tutish lozimki yosh bolaning organizmi xali funksional yetilmagan bo'ladi. Atrof muhitning o'zgaruvchan sharoitiga, jumladan temperatura o'zgarishlariga ko'nikuvchanlik mukammal bo'lmaydi shu sababdan bola shamollash kasalliklariga duchor bo'lishi mumkin. Shuning uchun u juda ehtiyotkor muomalaga, parvarishga muhtoj. Bola sog'ligi va uni mustahkamlash maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bolaning psixik rivojlanishi uning sog'ligi holati bilan chambarchas bog'liq, agar bolalar tez-tez kasallansalar ularning atrof muhitga qiziqishlari kamayib, tez asabiylashib yig'loqi bo'lib qoladi bu esa harakatlar, predmetlar bilan amallar rivojlanishini anchayin

sekinlashtiradi, natijada fikrlash, dunyoni qabul qilish va nutq o'lishi sekinlashadi.

Bog'chaga birinchi kelgan bolalar kasallanishga tez moyil bo'ladilar, bog'chadagi guruh, o'zaro kontaktning ko'pligi, noqulay bakterial muhit demakdir va agar bola organizmi chiniqmagan bo'lsa u tez kasalga chalinadi, uy sharoitida yuqori haroratga o'rgangan bolalar tez shamollaydilar. Bolasini bog'chaga tayyorlayotgan ota-onalar uning chiniqishiga yaxshi e'tibor qaratishi kerak, o'z navbatida tarbiyachi ham yangi kelgan bolaga e'tiborliroq bo'lishi kerak. Gigienaning barcha qoidalariga rioya qilishi, aylanishga chiqqanda bolani yaxshiroq kiyintirishi, o'yinchoqlarni og'ziga solishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Shunday holatlar ham bo'ladiki uyda ozodalikka o'rgangan bolalar, yangi sharoitda bu ko'nikmalarni yo'qotadilar. Tarbiyachi bolalar bilan sayrdan qaytgan paytda bolalardagi kir yoki nam bo'lgan kiyimlarini zudlik bilan tozasiga almashtirishi kerak bo'ladi aks holda bu holat bolani shamollashiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayrim bolalar bir yarim ikki yoshdan boshlab ovqatni o'zlari mustaqil yeya olishadi, biroq ba'zi bolalar ikki uch yosh bo'lsalar ham nafaqat suyuq ovqat balki qo'yi ovqatni ham mustaqil yeyolmaydilar. Bunday bolalarni gigiena qoidalariga rioya qilgan holda avvalroq ovqatlantirish kerak bo'ladi.

Bola xayotining ilk yilidagi xarakterli tomonlari uning jismoniy va psixologik shiddat bilan rivojlanishidir. M: xayotining birinchi yilida bola 7-9 kggacha semiradi va 25 smga o'sadi, ikki yoshga borib og'irligi 12-13 kg, bo'yi esa 85-86 sm bo'ladi. Boshqa hech qaysi yoshda bunday jismoniy rivojlanish kuzatilmaydi. Xayotining birinchi oylarida bola faqat boshini tutishni o'rganadi bir yoshda esa predmetli faoliyatga o'rganadi, ikki yoshga borib asosiy harakatlarni qila boshlaydi, uch yoshda boshqa bolalar bilan yurishda va muloqotda o'z harakatlarini moslashtirishni o'rganadi. Bolaning faol lug'ati ham tez boyiydi: xayotining birinchi yilida 10-12 ta so'z, 16 oydan 18 oygacha bo'lgan vaqtga kelib, lug'at boyligi 50 ta so'zga teng bo'ladi. Ikkinchi yilning oxiri yoki uchinchi yilning boshlarida



so'zlashuvda virtual portlash sodir bo'ladi, bolalar oyiga 30 dan 50 tagacha yangi so'zlardan foydalanadilar va keyinchalik har kuni 20 tagacha yangi so'zlarni o'zlashtira boshlaydilar. 3 yoshga borib esa 1500-2000 ta so'zni biladi. Bolalar ishlatishi va tushinishi mumkin bo'lgan so'zlar sonining tez sur'atlar bilan o'sish bolaning ham jismoniy holati ham xulqiga ta'sir o'tkazadi. Bola bog'chaga kelganida maktabgacha ta'lim xodimlari undagi bu o'zgarishlarni hisobga olishi kerak. Aks holda bola rivojlanishi va tarbiyalanishi sharoitlari noqulay tarafa o'zgarsa harakatlarning rivojlanishi, lug'atining boyishi va predmetlar bilan amallarga o'rganish sekinlashadi.

<sup>40</sup>**Masalan:** Aziz uch yoshu bir oylik paytida lug'at boyligi, predmetlar bilan amal bajarishi normaga mos kelardi, u bolalardan nariroqda, burchakda o'tirardi, guruh bo'ylab yurmasdi, taklif qilingan o'yinchoqlarni rad qilardi, uning bor yo'g'i nutqi onasini eslash bilan bog'liq edi. Uzoq muddatli va qiyin adaptasiya (ikki oy davomida) bolaning ham jismoniy ham ruhiy holatiga yomon ta'sir qiladi. U jismonan susaydi harakatlar koordinasiyasi yomonlashdi, predmetlar bilan amallar soni kamaydi, ba'zi bir gigienik ko'nikmalar g'oyib bo'ldi.

Bu kabi holatlarga yo'l qo'yib bo'lmaydi, tarbiyachining vazifasi bularni oldini olish, bolani normal rivojlanishiga sharoit yaratishdan iborat. Bola rivojlanishidagi o'zgarishlar nafaqat tez sur'atlilik bilan balki ma'lum ketma-ketlik bilan ham ifodalanadi. M: Nutqni rivojlanishi davrida bola gugulash, bo'g'inlarga va so'zlarga taqlid qilish va so'zlarni talaffuz qilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. O'yin faoliyatiga o'rganishda esa predmetlar bilan manipulyasiya qilishdan ular bilan alohida amallarni bajarishgacha, undan predmetli faoliyatga keyinchalik esa roli syujetli o'yinlarga o'tadi.

Yaqin orada bolada qaysi sifatlar rivojlanganini tarbiyachi bilishi kerak, chunki bu bolada nima shakllangan va nima shakllanishi lozimligini bilishga yordam beradi.

Bolaning tengdoshlari bilan aloqani yo'lga qo'yilishi ham uzoq va murakkab jarayondir, u yaqindagi bolalar bilan qisqa

<sup>40</sup> Z.S. Teshabayeva "Bolangiz bog'chaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y

amallarni bajarishga yordam beradi faqat shundan keyingina birgalikdagi amallar uzoqroq davom etadi. Bolaning psixologik rivojlanishi faoliyati davomida yuz beradi, faoliyatning mazmun va xarakteri bolalik yillari davomida o'zgaradi va mukamallashadi. Bola xayotining birinchi kunlaridan boshlab kattalar bilan muomala ko'nikmasi rivojlanishni boshlaydi, bu jarayonda bola ijtimoiy tajribaga ega bo'ladi, atrof-olamni o'rganadi, uning yaqinlariga bo'lgan bog'liqlik shakllanadi.

Xayotining birinchi oylarida kattalar bilan bo'lgan muomala emosional xarakterda kechadi. Bola katta odamning tabassumiga tabassum bilan javob beradi, onasi, buvisini hursand jonlanish bilan qarshi oladi, yig'lash bilan qorni ochganini bildiradi, xuddi shu yo'l bilan kattalarni o'ziga chaqiradi, atrofdagi noxush xodisalarga noroziligini bildiradi. Uni ko'tarib silkitishsa yoki o'yinchoq ko'rsatishsa tabassum qiladi, keyinchalik esa kuladi. Xayotining birinchi yili ikkinchi yarmida katta bola bilan muomalada predmetlar va o'yinchoqlarni qo'llay boshlaydi. Katta bolalar bolakayga o'yinchoqni ko'rsatadi, ular bilan turli harakatlarni amalga oshirishni o'rgatadi, to'pni yumalatishni, qutichani ochib yopishni, piramida xalqachalarini yechib olishni o'rgatadi. Keyinchalik uni taxlashni ya'ni tizib chiqishni o'rganadi, katta odam bu harakatlarni bolaning qo'li bilan amalga oshiradi bolakay esa uni mustaqil qilishga o'rganadi. Agar bola bilan muloqotga o'yinchoqlarni qo'shmasalar bola emosional muomala bosqichida qotib qoladi bu esa bolaning psixik rivojlanishi uchun muhim bo'lgan predmetlar bilan amallar rivojlanishini kechiktiradi.

Ikki uch yoshli to'g'ri tarbiya qilingan bolalar nafaqat o'z yaqinlari va tanishlari bilan balki ular uchun yangi bo'lgan kattalar va bolalar bilan ham muomalaga kirishishi mumkin. Bola nutqqa ega bo'lganida, uning muomalasi so'zlar bilan ifodalanishni boshlaydi, kattalar nomlagan harakatlarni bajaradi (och, qo'y, ol) va o'zi ham atrofdagilarga fikr bildirish, iltimos qilishga o'tadi.

Xayotining birinchi yillarida predmetlar bilan amallar xarakteri ham o'zgaradi. Ikki yoshli bolalar yig'iladigan



o'yinchoqlar bilan qiziqish bilan shug'ullanadilar, piramidani yig'adi va sochadilar (avval 3ta bir xil rangli xalqachani keyinchalik ko'p sonli xalqachalar va turli rangli xalqachalarni yig'ib sochadi). Ular har xil yumalaydigan narsalarni ayniqsa o'z oldiga qo'yib yumalatadigan o'yinlarni jon dili bilan o'ynaydilar, to'plarni yumalatadilar, muruvvatli masxaraboz va mashinalar harakatini qiziqish bilan kuzatadilar.

Ikkinchi yoshdan boshlab bolalar taqlid amallarini o'rganadilar, qo'g'irchoqlarni ovqatlantiradi, uxlatadilar va keyinchalik kiyintirib yechintiradilar.

Uch yoshli bolalar predmetli amallarni turlicha bajaradilar. Ular 6-8 donali predmetlarni piramida va kubiklarni tizadilar va oddiy qurish-yasash o'yinlariga o'tadilar (konstruktorlik). Bu yoshda bolalarda oddiy syujetli -rolli o'yinlarda qatnashish qobiliyatlari shakllanadi. Kichik yoshdagi bolalarga nisbatan bu yoshda bolalar o'z tengdoshlari bilan ko'proq muloqotga kirishadilar. Ular doktor-doktor, sartarosh kabi o'yinlarni o'ynaydilar, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashadi, bir-birlariga topshiriq beradilar, konstruktorlik o'yinlari davomida o'zlarit yasagan, qurgan narsalari bilan faxrlanib, o'rtoqlariga ko'rsatib maqtanishni yoqtiradilar.

Tarbiyachi bolalar bilan o'yinlarni tashkil etishda ularni ehtiyoji va imkoniyatlarini yaxshi bilishi kerak. M: Uch yoshli bola xafa bo'lgan paytida uni inersion o'yinchoqlar (mashina) bilan o'ynashga jalb qilishi kerak. Bu o'yinlarni o'ynash bolani yaqinlarini yo'qligini o'ylash fikridan chalg'itadi. Biroq shunday o'yinchoqlarni bir yoshli bolaga bersangiz bola o'yinchoqni polga urib taqillatadi yoki og'ziga soladi va tezda zerikishni boshlaydi. Ikki yarim uch yoshli qizaloq jon dili bilan o'yinchoq idishchalarni o'ynaydi, kostryullarni taxlash, ularga qoshiq solib chiqishni bajaradi. Bir yarim yoshli bola esa ularni irg'itadi yoki og'ziga solib ko'radi. Bir yoshli bolalar xayotidagi emosiyalar beqarorligi bilan xarakterlanadi. Agar bolaning qorni to'q, yaxshi parvarishlangan, harakatlari mazmunli bo'lsa uni qoniqtirsa bola xotirjam, faol bo'ladi va tabassum qiladi. Sharoitlarni birdan o'zgarishi bolada qo'rquv va ko'z yoshlarini keltirib chiqarishi

mumkin. Bunday holatda bolada immunitetning tushib ketishi, e'tiborsizlik, atrofdagi o'rgatuvchi ta'sirlarga befarq bo'ladi, ishtaha yo'qoladi va o'ynashdan bosh tortadi.

Tarbiyachi oldida turgan muhim vazifalardan biri bolalar uchun quvnoq va tetik kayfiyat beruvchi sharoit yaratishdan iboratdir, tarbiyachi bolani ovutib xotirjam bo'lishini ta'minlagach uni tevarak- atrof bilan tanishtirish va tengdoshlari bilan muloqotga kirishi uchun sharoit yaratishi lozim. Shunga alohida e'tibor qaratish lozimki kichik yoshli bolalarning emosional xolati bir-biriga yuqimlidir. M: Yig'loqi bola boshqa bolalarni ham yig'latishi mumkin. Bolalar atrofdagi kattalarning holatlariga juda sezgir va ziyrakdirlar. Tarbiyachining xotirjam va yaxshi kayfiyatda bo'lishi bolalarda ham shunday kayfiyatda bo'lishlariga yordam beradi, yomon kayfiyat esa shuningdek bolalarni kayfiyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bolalarda ijobiy emosional kayfiyatni ta'minlash uchun ularni bandligi uchun sharoit yaratish lozim. Doimiy bir xil faoliyat xuddi bekor qolishdek bolani tez charchashiga, zerikishiga va yig'lashiga sabab bo'lishi mumkin. Bolaning aqliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi unda quvnoq va tetik kayfiyatni paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi jarayondir. Uch yoshli bolalar katta yoshli bolalarga nisbatan bog'cha xayoti va kun tartibiga moslashishlari qiyinroq kechadi. Shuning uchun kattalar bolalarning moslashish davri oson kechishi uchun sharoit yaratishlari muhimdir. Moslashish davrining birinchi kunlarida bolaning odatlarini qo'llab-quvvatlab turish, bu odatlar xattoki yoqimsiz bo'lsa ham, bolaga o'zi bilan sevimli o'yinchoq'ini olib kelishini, ovqatini oxirigacha yeyishga majbur qilmaslik va xk lozim. Bolaning xafa bo'lishi va yig'lashiga uning tabiiy ehtiyojlarini o'z vaqtida qondirilmasligi sabab bo'lishi mumkin. Kichik yosh bolalar ovqatga, suvga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilmasligidan ko'p ta'sirlanadilar. Biroq Uch yoshli bola qo'g'irchoq ertaklarga qiziqishlari baland bo'ladi natijada qorni ochganligini xis qilmasligi mumkin. Bolaning muloqotga bo'lgan, atrof-olamni bilishga bo'lgan ehtiyoji va mustaqilligi yoshi bilan kengayib boradi. Agar bu ehtiyojlar



o'z vaqtida qondirib borilmasa bolada salbiy emosional holat yuzaga kelishi mumkin. M: Bola undan yoqtirgan o'yinchog'ini olib qo'yishsa yoki o'yinni birdan to'xtatib qo'yishsa, uni e'tiborsiz yolg'iz qoldirilsa yig'laydi. Bola salbiy emosional holatni faqat yig'i bilangina emas balki qo'l va oyoqlarining tartibsiz harakati bilan ham namoyon qilishi mumkin. Ba'zida bolani bu holat shunday qamrab oladiki, unga qarab jiddiy qayg'uga tushganligini kuzatish mumkin. U hech kimga qarashni hohlamaydi, kattalarning gaplarini eshitishni ham hoxlamaydi har qanday ovutishga javob qaytarmaydi. Uni qiziqroq o'yinchoq, hikoya bilan chalg'itishgina qayg'usini unutish va kulishiga sabab bo'lishi mumkin. Bola qanchalik kichik bo'lsa uning bir kechinmadan ikkinchisiga o'tishi shunchalik oson bo'ladi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalar tez charchaydilar. Bolaning charchashi uning o'zini tutishida turli o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin, shakllangan ko'nikmalar buziladi, kattalarga bo'lgan salbiy munosabat va o'z tengdoshlariga nisbatan agressiv munosabat belgilari paydo bo'ladi. Salbiy odatlar namoyon bo'la boshlaydi ya'ni barmog'ini so'rish va shunga o'xshash odatlar. Bolada ishtaha yo'qoladi, uyquasi yo'qoladi kerak bo'lsa stol oldida uxlab qolib kerak paytda uxlamasligi mumkin, shu sababdan ortiqcha charchoqning oldini olishning eng yaxshi sharti kun tartibini tashkillashtirishdir. Kun tartibini tashkil etishda shuni hisobga olish kerakki ikki uch yoshli bolalarda faol bo'lib yurish muddati katta bolalarga nisbatan qisqaroq bo'ladi. Faollik mudatini keragidan ko'paytirib yuborish uyquni kamayishiga, bolada ortiqcha asabiylikka, bo'shashish va injiqlikka olib keladi. Shunday ekan bolani guruhga olayotgan paytda u uyda qanday va qancha uxlaganiga qiziqish lozim va shunga mos tarzda bolaning bog'chadagi va oiladagi kun tartibiga o'zgartirish kiritish lozim. Ortiqcha charchash nevroz paydo bo'lishiga olib kelishi yoki bolaning nerv tizimi chidamliligi juda past bo'lishi mumkin. Aksariyat holatlarda bolalarda nevroz vegetativ buzilishlar bilan birga kechadi, temperatura ko'tarilishi, uchuq paydo bo'lishi, tez-tez o'zi hohlamagan tarzda siyib qo'yishi, rangi oqaradi yoki qizaradi.

Bunday holatlar ikki yoshgacha bo'lgan bolalarning bog'chaga moslashish davrida tez-tez yuz beradi. Yangi muhitda bola o'zini behavotir, erkin sezolmaydi, yangi sharoitda nima qilish kerakligini, qanday tqilish kerakligini tushunmaydi, ko'ziga uyqu kelmaydi, ovqatni rad etadi belgilangan kun tartibidan chiqib ketadi. Tarbiyachi va tarbiyachi yordamchisining baland keskin ovozlari, shovqinlar bolani qo'rqitadi, u xuddiki qotib qoladi va yig'laydi. Kichkina bolakay o'z hoxishini cheklashi qiyin bo'ladi, boshlangan harakatni to'xtatish qiyin bo'ladi, bu davrda bolada tormoz reaksiyalarini shakllanishi uchun uzoq vaqt kerak bo'ladi. Shu sababdan pedagogik ta'sir amallarini tanlashda tarbiyachi shuni hisobga olishi kerakki, bolakay aytilgan buyruqni darxol bajarishga, o'ynayotgan o'yinini darxol to'htatib yangisini boshlashga qodir emas. Darhol to'xtat degan qat'iy talab bola uchun to'g'ri kelmaydi va uni yig'latib qo'yishi mumkin, bo'ysunishdan tonishga, qaysarlikka olib kelishi mumkin. Tarbiyachi bola bu ko'rsatmani bajargunicha sabr bilan kutib turishi va agar kerak bo'lsa xotirjam ohangda yana buyruqni eslatib qo'yishi mumkin. Agar bolani o'rab turgan muhit yaxshi, e'tiborli va mehribon bo'lsa bolaning o'zi ham kirishuvchan bo'lib boradi, tengdoshlari bilan tez tanishadi va ular bilan tez muloqotga kirishadi. Agar bolaning atrofidagilar jahldor bo'lsa, bola kattalarning jahldor yuz ifodalarini ko'rib, asabiylashgan ovozlarni eshitib turganda odamovi, jaxldor va xulqida muvozanatsizlik paydo bo'ladi, atrof-olamga bo'lgan qiziqishi so'nadi, psixik rivojlanishdan orqada qoladi.

Kattalarning ovoz toni va muomaladagi eng kichkina o'zgarishni ham bola ko'radi va sezadi. O'z navbatida tarbiyachining nutqi ravon, ifodali, o'rtacha ohangda va grammatik to'g'ri bo'lishi kerak. Shuningdek tarbiyachi bolalar va boshqa kattalar bilan xotirjam tonda gaplashishi, xulqidagi taqlid qilishga arziydigan tomonlariga e'tibor qilishi juda muhim.

Bolalar atrofdagi hamma narsalarga qiziqadilar, o'zlarini qiziqtirgan predmetni ushlab ko'rish, tatib ko'rishni hoxlashadi. Ba'zida kattalar bolalarning bunday harakatlarini sho'xlikka



yo'yishadi va bolani atrof olam bilan tanishtirishni cheklashadi aksincha bolaga atrof-muhitni tushunishda yordam berishlari, nima yaxshiyu nima yomon ekanligini tushuntirishlari lozim. Bola uchun har bir yangi vaziyat alohida muhim xodisadir. Ma'lumotning yetishmasligi, xayottajribasining kamligi, voqeani tanqidiy tushunib olmasligi bolaning bog'chaga borishini kattalardan ko'ra umuman boshqacha tasavvur qilishiga sabab bo'ladi. Yangi muhit bolani kuchli asabiylashtirishi mumkin, mustaqilligi, tashabbusini siqib qo'yishi mumkin. Bola bog'chada nimani qanday qilish kerakligini bilib borgani sayin o'z tengdoshlari guruhiga tezroq, faolroq qo'shila boradi.

Atrofdagi kattalarning munosabati, tarbiyaviy ta'siri shuningdek bolaning o'z faolligi, bola joylashgan sharoit, muhit uning emosional nutqiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Kattalarning e'tiborli va g'amxo'rlik bilan muomala qilishiga javoban bolada ham ijobiy emosiyalar va nutq rivojlanadi. Tarbiyachining shaxsiy kuzatuvlari va bolaning ota-onasidan olgan ma'lumotlari unga aytilayotgan gaplarni qanchalik darajada tushunayotganligini, kattalar bilan muloqotda va savollariga javob berishda so'zlardan qanday foydalanishini aniqlashga yordam beradi. Busiz tarbiyachining bola bilan yaqindan muomala qilish va o'zaro bir-birin tushunishi qiyinlashadi.

Tarbiyachi bolaning gapirishga bo'lgan ehtiyoji va hoxishini rivojlantirishi lozim. Buning uchun bola tomonidan bo'lgan muomala uchun ko'rsatilgan har qanday tashabbusni qo'llab quvvatlashi, bola nutqining barcha taraflarini tushunishi, faol nutq, taqlid qilish qobiliyati va nutqdan foydalanish ko'niymalarini rivojlantirishi lozim.

#### <sup>41</sup>**Moslashish davrida bola xulqining o'ziga xos individual xususiyatlari.**

Tarbiyachi bolaning yosh xususiyatlari, imkoniyatlari, rivojlanish ko'rsatkichlarini bilishi muhimdir. Bolaning individual o'ziga xos xususiyatlarini bilish esa muhimroqdir.

Uch yoshli bola atrofdagilar bilan muloqotda o'zining ehtiyoj va hoxishlari, odatlari, bilim va qobiliyatlari kabi

<sup>41</sup> Z.S. Teshabayeva "Bolangiz bogchaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y

individual xususiyatlariga ega bo'ladi. Bolaning bog'cha xayotiga moslashishdek muhim bo'lgan davrda bularning hammasini e'tiborga olish juda muhim.

Ajoyib pedagog K.D. Ushinskiy aytganidek "Bolani to'laqonli tarbiyalash uchun, uni to'laqonli bilish lozim"

Yangi bog'chaga keladigan bolaning individual xususiyatlarini o'rganish uchun tarbiyachi bolaning ota-onasi bilan suhbatlashishi, uyiga borishi, kunning turli qismlarida va turli vaziyatlarda bolani kuzatishi lozim. Bolani bunday o'rganish tarbiyachiga uning individual qobiliyatlarini to'g'ri baholashga yordam beradi va uni xulq-atvorini kerakli tomonga yo'naltirishga yordam beradi.

Ba'zi bolalar harakatchan, faol bo'ladilar, shovqinli o'yinlar o'ynashni, yugarishni, sho'hlik qilishni yoqtiradilar, boshqa bolalar esa sustroq bo'lib asosan tinchroq, sokin o'yinlarni o'ynashadi, yana boshqalari qo'rqoqroq, tengdoshlaridan uzoqroqda yurishadi, bog'chaga kelgan ilk kunlari tarbiyachidan xadiksirab turadi yoki aksincha tarbiyachinino'zining himoyachisi deb bilib undan hech uzoqqa ketmaydi.

Ba'zi bolalar ikki-uch yoshidayoq mustaqil ovqatlanadi, kiyinadilar, boshqa bolalar esa uch yoshda ham ularni ovqatlantirib qo'yishlarini kutadilar. Bolaning individual farqlarini ajratishda avvalo uning xayoti va tarbiyasidagi sharoitlarni farqlash kerak. Negaki **aynan xayot tarzi va tarbiya bola rivojlanishini aniqlab beradi va uni xayotga tayyorlovchi kuchlar hisoblanadi.** Bolaning xulqi va uning sog'ligi ham ta'sir o'tkazishini unutmaslik kerak. Sust, kasal bola injiq va asabiy bo'lishi mumkin yoki aksincha bo'sh tez charchaydigan bo'lishi mumkin. U jismoniy rivojlanishda ortta qolib ketishi, bo'y, vazn va harakatlar rivojlanishi bo'yicha past ko'rsatkichga ega bo'lishi mumkin, bularning bari bola bog'chaga kelishining birinchi kuniyoq yaqqol seziladi. Odatda nimjon bolalar yangi sharoitlarga qiyin ko'nikadilar, ular tez-tez kasal bo'lib turishadi, yaqinlaridan ayriliq davrini qiyin boshdan kechirishadi.

Shunday holatlar ham bo'ladiki bolalar yig'lamaydi,



salbiy xislarni tashqariga chiqarmaydi, lekin vazn yo'qotadi, o'ynamaydi, tushkunlikka tushibg'amgin bo'lib qoladilar. Bunday bolalarga qilinadigan e'tibor, yig'lab onasini chaqirayotgan bolalarga qilinayotgan e'tibordan kam bo'lmasligi kerak.

**Bolalarning xulqiga ularning nerv tizimi o'ziga xosliklari ta'sir etadi:**

- **qo'zg'alish yoki tomozlanish jarayonlari vazmin** kechadigan bolalar xotirjam xulqli, tetik kayfiyatli va muloqotchan bo'lishadi. Ular ham sokin ham harakatchan o'yinlarni yoqtiradilar. Barcha kun tartibi jarayonlarini ijobiy qabul qiladi va ularda ijobiy qatnashadilar. Agar yangi sharoitda yuzaga kelgan muloqot mazmuni ularni qoniqtirsa ular anchayin oson va tez moslashadilar.

- **oson qo'zg'aluvchan bolalar** atrof-muhitga bo'lgan munosabatni juda to'liqlanib bildiradilar, bir holatdan ikkinchi holatga juda tez o'tadilar, ular harakatchan o'yinlar o'ynashni yoqtiradilar lekin o'yinchoqlarni tez almashtiradilar, oson chalg'iydilar, goh u, goh bu predmetni tomosha qilib guruh bo'ylab doim harakatda bo'ladilar. Uzoq muddatli o'yinlarni o'ynamaydilar, shovqinli o'yinlarni afzal ko'radilar. Bog'chaga qabul qilingan ilk kunlarda bunday bolalarni keskin cheklab bo'lmaydi, ular bilan to'g'ri xotirjam muomalada bo'lish lozim, ularning nerv tizimini ortiqcha to'liqlanishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

- **oson qo'zg'aluvchi bolalarga qarama-qarshi shunday** bolalar ham borki ular xotirjam bir qancha **sust va xatto harakatsizlik xulq atvor** bilan ajralib turadilar. Ular o'z xislarini juda sust tarzda ifodalashadi, yangi muhitga oson moslashadigandek tuyuladi. Ammo ularga xos bo'lgan tormozlanish xususiyati bu davrda kuchayishi mumkin. Sustkash bolalar odatda rivojlanishdan o'z tengdoshlaridan ortda qoladilar. Ular bolalardan nariroqda o'ynashni yaxshi ko'rishadi, ularni yaqinlashishidan qo'rqishadi. Tarbiyachi bu bolalarga yangi sharoitga moslashishga yordam berishi kerak, ularning sustkashligiga jahl qilmasligi, harakatlariga va o'yinchoqlar bilan o'ynashlarini qat'iyatlilik bilan o'rgatishi

kerak. Egallagan ko'nikmalarini sabr bilan mustahkamlab borishi va yangi bilimlarni shakllantirib borishi lozim. Sust bolalarni birinchi kunlari o'z tengdoshlari bilan muloqotga jalb qilmaslik kerak, negaki yangi muhit bilan tanishish uchun ularga uzoqroq vaqt kerak bo'ladi. Tarbiyachining bolaga bo'lgan sabrsizlik bilan yondashuvi bola xulqi og'irlashishi va moslashishning qiyin kechishiga olib kelishi mumkin.

-**nozik nerv tizimli bolalarga** alohida e'tibor berish lozim ular xayot sharoiti va tarbiyadagi har qanday o'zgarishni qiyinchilik bilan boshdan kechiradilar. Ular o'z xislarini juda to'liqlanib ifoda etmasalar ham emosional holatini arziyas ko'ngilsizliklar ham buzib qo'yishi mumkin. Barcha yangi narsalardan cho'chishadi va ularga ko'nikishlari qiyin kechadi. Ularga harakatlar va predmetlar bilan amallarda ishonch yetishmaydi. Lozim ko'nikmalarni shu yoshdagi boshqa bolalarga nisbatan sekinroq o'rganadilar. Bunday bolalarni bog'chaga borishga o'rgatishda yaqinlari yaqindan yordam berishlari lozim bo'ladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki nerv tizimining qanday turda ekanligini aniq ajratib bo'lmaydi. Birgina turli vaziyatda o'zini turlicha tutishi mumkin, ayniqsa moslashish davrida, xatto xotirjam va muloqotchan bola ham yaqinlari bilan xayrlashganda yig'lab uyga ketgisi kelib qoladi. Yangi talablarga ko'nikishi qiyin bo'ladi, ba'zi bir shakllangan odatlarni tashlaydilar. Bolada shakllangan odatlar ham uning individual xarakteriga ta'sir etadi. Agar ovqatni mustaqil yeyolmasa bog'chada ham ovqatni rad etib uni ovqatlantirib qo'yishlarini kutadi. Yangi sharoitda qo'lni qanday yuvishni bilmasa yig'laydi, o'yinchoqni qaerdan olishni bilmasa yig'laydi, sharfni orqa tarafdan bog'lashlariga o'rgangan bo'lsayu tarbiyachi old tarafga bog'lagan bo'lsa yig'laydi shu sababdan bolaning odatlarini bilash va uni hisobga olish muhim. Bolani odatlarini bilmaslik tarbiyachining ishini anchayin qiyinlashtiradi. Uning pedagogik ta'sir o'tkazishlari tartibsiz kechadi, maqsadga muvofiq bo'lmaydi ko'pincha kerakli natijani bermaydi. Bog'chaga har bir yangi kelgan bolaning odatlari va ko'nikmalarini birdan bilish qiyin, ularning o'zlari



ham yangi sharoitda namoyon bo'lavermaydi. Ilk maktabgacha yoshdagi bolalar xatto kerakli ko'nikmaga ega bo'lsa ham ularni yangi sharoitga yangi tartibga har doim ham ko'chirolmasligini, unga yordam kerak bo'lishini tarbiyachi esda tutishi kerak.

Odatlarning shakllanishi va qayta tiklanishi sur'ati bolalarda har xil bo'ladi ko'nikmalar va odatlarning shakllanishi tezligi bola oliy nerv faoliyatining turiga bog'liq. Og'ir vazmin va tez qo'zg'aluvchan bolalarda odatlar sust bolalarga qaraganda tezroq va osonroq qayta tiklanadi va shakllanadi. Ba'zi bolalarga yangi harakatlarni o'rganishga bir, ikki kun kerak bo'lsa, boshqalarga bir hafta kerak bo'ladi. Biriga harakatni bir marta ko'rsatsangiz yetadi, boshqasiga ko'p marta qaytarish kerak bo'ladi.<sup>42</sup> **Odatlarning shakllanishi bolaning ota-onasidan ayriliqda salbiy emosional holatda bo'lganida qiyinlashadi.** Uyda onasi qo'polroq ovozda aytgan topshiriqni bajargan bola bog'chada tarbiyachi yoki enaning baland ovozidan xayiqib qolishi mumkin, yoki aksincha uyda onasining qo'pol ovozidagi muomalasiga ko'nikkan bola, bog'chada tarbiyachining yumshoq tarzda aytgan gapiga kirmaydi.

MTT turli yosh guruhlari uchun kun tartibi ilmiy asoslangan bo'lsada, baribir alohida bolalar uchun yoshga bog'liq rejimni o'zgartirish kerak. Buning uchun birlamchi sabab bolakayning xulqi va o'zinixis qilishidir. Yuqoridagi ta'kidlanganidek moslashish davrida bolaning muloqotdagi individual xususiyatlari katta ahamiyatga ega. Bog'chadagi yangi muhitga munosib tarzda kirishadigan bolalar: biror narsa bilish uchun katta odamning diqqatini o'zining kiyimiga, o'zining o'yindagi muvaffaqiyatiga qaratish uchun tarbiyachi yoki enagaga murojaat qilishadi, o'yinchoqni bemalol berib yuborishadi yoki boshqa bola bergan o'yinchoqni o'ylamay qabul qiladilar.

Boshqa bolalar esa begona bo'lgan kattalardan nariroq yurishadi, uyalishadi, ko'zini yerga qaratib olishadi, shunday bolalar borki tarbiyachi bilan muloqotdan qo'rqishadi. Bunday bola yakkalanishga harakat qiladi, muomalaga kirishga qiynalayotgan begonalarni ko'rmaslik uchun yuzini yerga

<sup>42</sup> Z.S. Teshabayeva "Bolangiz bogchaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y

qaratib oladi.

Bog'chaga kelgungacha bolaning atrofdagilar bilan muloqotdagi tajribasi bog'cha sharoitiga ko'nikish xarakterini belgilaydi. Shu sababdan bolaning muomalaga bo'lgan ehtiyoji mazmunini bilish moslashish davrida unga ko'rsatiladigan pedagogik ta'sirning xarakterini belgilashda asosiy omil hisoblanadi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Moslashish xatti-harakatlarning shakllanishi: bosqichlari va mazmuni haqida so'z yuriting
2. Bolalarning moslashuv jarayonini to'g'ri va samarali tashkil etishda pedagogning o'rni haqida ma'lumot bering
3. Moslashish davrida bola xulqining o'ziga xos individual xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Bolalarning nerv tizimidagi o'ziga xosliklar haqida ma'lumot bering
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda ijtimoiy tajribani shakllantirishga yordam beruvchi qanday o'yinlarni taklif qilasiz?



### **15-Mavzu: Bolalar bog'chasida psixologik-ijtimoiy yordam. Bolalar bog'chasi va oila**

1. Bolaning bog'chaga moslashishi davrida oilaning o'rni.
2. Bolaning bog'chaga moslashishi jarayoni qiyin kechishining sabablari.
3. Bolalarni bog'chaga qabul qilishni tashkil etish.

Bolaning bog'chaga tez va oson moslashishi uchun oilada albatta unga bog'chaga borishi haqida to'g'ri tushuncha berilishi lozim. Aksariyat ota-onalar farzandiga to'g'ri tarbiya berishni hohlaydilar lekin buning uchun ularda pedagogik bilim va tajriba yetishmaydi.

Ba'zi oilalarda ota-onalar farzand kichikligida u o'z ehtiyojlarini mustaqil bajara olmaydi degan fikrga keladilar va unga o'ta g'amho'rlik qiladi, bolaning har bir hatti-harakatidan ogohlantirib, uni erkin bo'lishidan cho'chiydilar shuningdek uning har bir injiqligini ko'tarib uning ko'ngliga qaraydilar.

Boshqa oilada esa bolani tarbiyalashga xali erta unga nisbatan g'amxo'rlikning o'zi yetarli deb o'ylashadi.

Shunday ota-onalar ham borki bolaga kattalardek munosabatda bo'lib uning qo'lidan kelmaydigan unga og'irlik qiladigan topshiriqlarni beradilar.

Nihoyat shunday oilalar ham borki ular "farzand ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanish bog'chaning vazifasi, ota-onaning vazifasi esa tarbiyachining qanday ishlayotganligini kuzatish va baholashdir" deb o'ylaydilar

Bolalar bog'chasi bolaning jamiyatga ijtimoiylashuviga, jamoaviy tarbiyaga moslashishiga ko'maklashishda ota-onalarga to'g'ri maslahat va ko'rsatmalar beradigan tashkilotdir. Afsuski ota-onalar farzandlarini birinchi bor guruhga olib kelganlaridagina tashkilot xodimlariga uchrashadilar. Bolani oilada bog'chaga tayyorlash jarayoni esa "bog'chada senga yaxshi bo'ladi" degan so'zlar bilan chegaralanadi.

### **<sup>43</sup>Bolaning bog'chaga moslashishi jarayoni qiyin kechishining bir necha sabablarini ko'rib o'tamiz:**

1. Bog'chaga birinchi kelgan bola oila sharoitidan keskin farq qiluvchi boshqa sharoitga tushib qolishi haqida ota-onalar keragicha tushunib yetmaydilar. Oilada ota-ona va kattalar bola uchun doimiy tarbiyachilardir lekin bog'chada bir tarbiyachi uchun 15-20 ta bola to'g'ri keladi. Oila a'zolarining soni ko'pi bilan 5-6 tani tashkil qilishi mumkin bolalar bog'chasida esa qoida bo'yicha 20-25 ta bola va kattalar bo'ladi, agar kattalarning yordami bo'lmas ekan kichik maktabgacha yoshdagi bola bunday o'zgarishlarga tez va oson moslashishi qiyin kechadi.

2. Bolaning bog'chaga borishida uning jismoniy tayyorgarligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Katta maktabgacha yosh davriga nisbatan kichik maktabgacha yosh davrida bola organizmi kasallanishga ko'proq moyil bo'ladi, shuning uchun ham ota-onalar bolani chiniqtishlari kerak. Bolani turli fasllarda toza xavoda sayr qildirishlari, gimnastika bilan shug'ullanishi, bolani imkoniyati darajasidagi jismoniy mashqlarni bajarishga o'rgatish, yurish, yugurish, sakrash kabi mashg'ulotlarni bajarishga o'rgatishlari lozim. Xavo vannasi va suv vannalari chiniqishning eng yaxshi usullari hisoblanadi. Lekin kattalar bu muolajalarni kerakli tartib qoidalar asosida bajarishlari lozim bo'ladi aks holda natija kutilganday bo'lmaydi.

3. Shuningdek bolaning kiyimiga ham e'tibor qaratish lozim. Bola tana xaroratining bir xilda bo'lmasligi bolaning tez shamollashiga sabab bo'lishi mumkin.

4. Oilada bolaning kun tartibini to'g'ri tashkil etilishi ham uning bog'chaga moslashish jarayoning muhim faktori hisoblanadi. Agar bola uyda turli vaqtda ovqatlanish, o'ynash va uxlashga o'rgangan bo'lsa uning bog'cha kun tartibiga moslashish qiyin kechadi. Oiladagi kun tartibining bog'cha kun tartibiga mos kelmasligi bolaning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bola injiq, lanj va atrofga nisbatan e'tiborsiz bo'lib qoladi. Kun tartibiga amal qilish bolaning bog'chadagi yangi sharoitlarga oson moslashishiga yordam beradi.

<sup>43</sup> Z.S. Teshabayeva "Bolangiz bog'chaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y



5. Moslashish davrida bolaning o'zini yaxshi xis qilishi uning qay darajada madaniy-gigienik bilimlarni, odatlarni va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish (kiyinish, ovqatlani va xk) bilimlarini o'zlashtirganiga bog'liq. Lekin hamma oilada ham bolada yuqoridagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Ko'pincha kichik maktabgacha yoshdagi bolalar bog'chaga kelganda mustaqil ovqatlana olmaydi, kiyinolmaydi yoki tuvakka o'tirishni so'ramaydilar.

Bo'lajak tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan suhbatlashar ekan tarbiyachi mana shu tараflarga e'tibor qaratishi lozim. Ota-onalarga maslahat berar ekan tarbiyachi bolalarda kerakli odatlarni shakllantirish nomaqbul odatlardan qaytarishga o'rgatish uning moslashish davrida o'zini yaxshi xis qilishiga yordam berishini aytib o'tishi lozim. Shuningdek tarbiyachining o'zi ham bolada ko'nikma va odatlarni tarbiyalash yoki qayta tarbiyalash kattalardan sabr va matonat talab qilishini yaxshi tushunishi lozim. Bolani o'rgangan odatidan birdan voz kechishini talab qilmaslik kerak. Bolaning bog'chaga kelgan dastlabki kunlarida uning nomaqbul odatlariga ham rozi bo'lish, masalan bola uxlaganda surg'ichi bilan uxlasa unga ruxsat berish lozim.

Bolada madaniy-gigienik odatlarni shakllantirishni xotirjamlik, va sabr bilan talablarni asta sekinlik bilan tushuntirib borish bilan amalga oshiriladi. Tarbiyachining noto'g'ri qo'llagan usuli bolada jarayonga nisbatan salbiy munosabatni shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin, ishtahaning yo'qolishi, uyqusida bezovta bo'lishi yoki siyib qo'yish holatiga olib kelishi mumkin. Yangi bog'chaga kelgan bola uchun pedagogik ta'sir o'tkazishda boshqacha usullardan foydalanish lozim. Agar ularga "qo'llaringizni yuvib keling!" yoki "Kelinglar birga o'ynaymiz", desangiz ular bu topshiriqni bajarmaydilar chunki bu bola uyda individual munosabatga o'rgangan umumiy topshiriqni tushunmaydi. Yoki tarbiyachi bolaga "Sanjar boraqol qo'lingni yuvib kel" desangiz ham bajarmasligi mumkin, chunki u qaerda va qanday qilishni bilmaydi. Kattalar avvalo yangi sharoitda bolaga kaerda qanday bajarishni mashq

qilib ko'rsatishlari keyin talab qilishlari kerak.

6. Bolalarda yangi sharoitga moslashishi qiyin kechishining yana bir muhim sabablaridan biri uning kattalar va tengdoshlari bilan munosabatga kirishishida tajribasining yo'qligidir. Albatta oilada bolani nafaqat yaqinlari bilan balki boshqa tengdoshlari va kattalar bilan ham munosabatga kirishni shakllantirish lozim. Biroq tajribalar shuni ko'rsatadiki ota-onalar o'qishni, o'ynashni, mehnat qilishni o'rgatishadiyu atrofdagilar bilan munosabatga kirishishni o'rgatishmaydi.

Tarbiyachi yoki uslubchi ota-onalarga bolada munosabatga kirishishni shakllantirish bosqichlari bilan tanishirishi lozim. Kattalar bolani oila a'zosi bo'lmagan boshqa kishilar bilan munosabatga kirishishga jalb qilishi, kattalarga salom berish, iltimos qilish kabilarni tushuntirishlari kerak. Masalan xali gapirishni bilmaydigan kizalog'iga ona "kitobni Xolanga olib borib ber", "qo'g'irchog'ingni opanga ko'rsat" deyishi mumkin. Gapiradigan bolaga esa: "Aziza xolangni oldiga bor, qo'lingni berib "Assalomu aleykum" degin" deyish mumkin. Bolaning munosabat doirasini doimiy kengaytirib borishi lozim. Kattalar bilan birga bolada o'z tengdoshlari bilan ham munosabatga kirishi tajribasi ortib boradi. Ota-onalar bolaga tengdoshlari bilan munosabatga kirishish qoidalarini, o'yinchoqni birga o'ynash, yig'layotgan bolani ovutish uni xafa qilmaslik haqida o'rgatib boradilar. Bolaning kattalar bilan va tengdoshlari bilan tez va oson munosabatga kirishishi uchun unda ma'lum darajada nutqiy tayyorgarlik bo'lishi kerak. **Bolada munosabat malakalarini shakllantirish uchun sahnalashtirilgan o'yinlardan foydalanish mumkin:**

"Qo'g'irchoq Aziza qanday qilib iltimos qildi", "Qo'g'irchoq Aziza qanday qilib o'z o'yinchog'ini qizchaga berdi", "Qo'g'irchoq Aziza qanday qilib mehmonga keldi" va xk. Bolaga kattalar bilan va o'z tengdoshlari bilan munosabatga kirishish jarayoniga o'rgatish ota-onalarning bolani bog'chaga tayyorlashdagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.



#### **<sup>44</sup>Bolalarni bog'chaga qabul qilishni tashkil etish.**

Bolalarni bog'chaga qabul qilish asosan kuz faslida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori, uslubchi va tibbiyot xodimi birgalikda yangi guruhni to'ldirish, kichik guruhni umumiy holda o'rta guruhga o'tkazish yoki boshqa bog'chadan kelgan bolalar, uydan yangi bog'chaga kelayotgan bolalar bilan yangi guruhlarni tashkil qilishni har tomonlama hisobga olib chuqur o'rganib chiqqan bo'lishlari kerak. Guruhning boshqa guruhga o'tishi bolalarning yangi sharoitga o'tganligini anglatadi. Bolaning tengdoshlari bilan xayoti odatdagidek qoladi lekin guruh xonasi, tarbiyachi va uning hatti harakatlari, ishlash usullari o'zgaradi. Bu o'zgarishlarning bolalarda salbiy ta'sir uyg'otmasligi uchun kichik guruhdagi tarbiyaviy ishlarning ketma-ketligini saqlab qolish kerak.

#### **Shu maqsadda tarbiyachilarga quyidagilar tavsiya qilinadi:**

tarbiyachi va bog'cha tibbiyot xodimi birgalikda kichik guruhdagi bolalarning rivojlanish xaritalarini o'rganishlari;

tarbiyaviy ishlarning ketma-ketligini saqlab qolish uchun kichik guruhda olib boriladigan mashg'ulot va sayr jarayonida qo'llaniladigan metod va usullarni kuzatish;

guruhga qabul qilinadigan bolalarni ular uchun qulay vaziyatda yangi tarbiyachi bilan tanishtirish;

kun tartibini moslashtirish;

rivojlantiruvchi markazlardagi tanish o'yinchoqlar va ko'rgazmalarni saqlab qolish, ularning sonini asta-sekinlik bilan boyitish;

yig'ilish yoki suhbatlarda bolalarning yangi sharoitga moslashish jarayonida o'zlarining tutishlari haqida otalarga o'z vaqtida ma'lumot va tavsiyalar berib borish.

Yangi guruhni tashkil etishda guruhdagi bolalar soni muhim ahamiyat kasb etadi. Guruh shunday tashkil etilishi kerakki undagi kun tartibi, ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan

<sup>44</sup> Z.S.Teshabayeva "Bolangiz bogchaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y

holda tashkil etilishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga yangi kichik guruhga kelayotgan bolalar boshqa bog'chadan yoki uydan keladilar. Bunday guruhlarda bolalarning o'zlarini tutishlarida salbiy kechinmalarni kuzatish mumkin, ularning yangi guruhga moslashish davri uzoq davom etishi mumkin. Shuning uchun guruhda bolalar ro'yhatini tuzishda bolaning avval boshqa bog'chaga kelganmi yoki uydan kelayotganligini hisobga olish muhim hisoblanadi. Bir vaqtni o'zida 5-6 nafar oiladan kelayotgan bolalarni guruhga qabul qilish mumkin emas, bu vaqtda guruhda ta'lim-tarbiya ishlarini boshqarish tarbiyachiga qiyinchilik tug'diradi. Bir hafta davomida guruhga ko'pi bilan 3-4 nafar bola qabul qilish tavsiya etiladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Bolaning bog'chaga moslashishi davrida oilaning o'rni haqida so'z yuriting.

2. Bolaning bog'chaga moslashishi jarayoni qiyin kechishining qanday sabablarini bilasiz?

3. Bolalarni bog'chaga qabul qilishni tashkil etish bo'yicha qanday ma'lumotlarga egasiz?

4. Yangi tashkil etilgan kichik guruhdagi tarbiyaviy ishlarning ketma-ketligini saqlab qolishda tarbiyachi nimalarga e'tibor berishi kerak?



**16 Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashish ko'nikmalarining shakllanishi: bosqichlari va mazmuni.**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashish davrida kompleks ijtimoiy pedagogik yondashuv.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashish davrida tarbiyachi, va ota-onalarga pedagogik-psixologik yordam.

3. Moslashish davrida tarbiyachining bola bilan muloqoti mazmuni.

Bola va katta odam o'rtasidagi bevosita aloqa hayotning birinchi oyi oxiri va ikkinchi oy boshidan boshlanadi. Katta odamning e'tibori va o'yinchoqlarni ko'rsatishiga javoban bolaning yuzida tabassum uyg'ona boshlaydi. Biroz vaqt o'tgach bolada jonlanish kompleksi paydo bo'ladi: Qo'l oyoqlarini g'ayrat bilan cho'zib bukadi, ko'zlari bilan katta odamni qidiradi, ularni e'tiborini jalb qilgisi keladi. Kattalar bolani qo'lga olib u bilan gaplashadilar, qo'shiq aytadilar va bu bilan bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondiradilar va rivojlantiradilar. Bolada uning nafaqat tabiiy ehtiyojlarini balki mehr, e'tibor va erkanlashga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan odam haqida ilk tasavvur paydo bo'ladi.

Bola xayotining birinchi yili ikkinchi yarmidan kattalar uni predmetlar, o'yinchoqlar bilan amallarga o'rgatishadi. Unda bolani birgalikdagi harakatga o'rgatishadi.

Ikkinchi va uchinchi yillarda nutqi rivojlanishi davomida bola o'zining minglab nima uchun? degan savolini berish uchun kattalarga murojaat qiladi.

Uning muloqot mazmuni kengayadi. Atrofdagilar bilan muloqot va so'z boyligi oshishi jarayonida bolada vaziyatdan tashqari nutqiy muloqotga ehtiyoj ham shakllanadi. Bolani muloqotning yangi shakliga o'z vaqtida o'tkazilmasa rivojlanishda, elementar harakat ko'nikmalarini egallashda ortda qolishi kuzatilishi mumkin. Xayotining birinchi yilidayoq

bolada odam tanlash shakllanadi. Bola juda erta o'zinikini begonalardan ajratishni boshlaydi, ba'zi ota-onalar o'zlari hojlab yoki hojlamay bolada yaqinlariga bo'lgan bog'liqlikni mustahkamlaydilar uning muloqot doirasini toraytiradilar, boshqa kattalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirishga urinmaydilar. Shunday holatlar ham borki bolada begonalarga nisbatan salbiy munosabatni uyg'otadilar. M: "Ana amaki kelyapti seni olib ketadi", "qara qanaqa yomon xola ekan, agar yig'lasang seni unga berib yuboraman" degan gaplarni qanchalar zararli ekanligini ota-onalar bilmaydilar.

Hayotining birinchi yilidayoq bola muloqotini tor oila davrasi bilan cheklamagan ota-onalar to'g'ri qilishadi. Gigienik talablarga amal qilgan holda shu yoshdayoq bolaning muloqot doirasini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. M: Bola uchun yangi bo'lgan odamga bolani biroz ko'tarib turishga ruxsat berish yoki ularni o'zlarini qoldirish ham mumkin.

Boshqalar bilan muloqotning yo'qligi, ota-onalarning u odamni yomon ko'rsatishi ba'zan esa notanish kattalar muloqot tajribasining salbiyligi bolaning ular bilan aloqa o'rnata olmasligiga yoki hojlamasligiga olib keladi. Muloqot doirasi qanchalar tor bo'lsa, bolaning yaqinlari qanchalik kam bo'lsa bolaning muloqot tajribasi ham shunchalik kam bo'ladi va begonalar bilan aloqa o'rnatish ham shunchalik qiyin kechadi. Tarbiyachi bola bilan birinchi kuniyoq aloqa o'rnatishi lozim lekin bolada notanishlar bilan muloqot tajribasi bo'lmasa u tarbiyachining barcha harakatlariga salbiy javob qaytaradi: yig'laydi, qo'ldan otilib chiqib ketadi, tarbiyachidan uzoqlashishga harakat qiladi. Tarbiyachi oldida undan qo'rqqanlikka o'rganish uchun bolaga uzoqroq vaqt kerak bo'ladi. Nevroz holat, ko'z yoshlari bolaga tarbiyachining qiziquvchanlik va mehr bilan munosabatini to'g'ri qabul qilishga halaqit qiladi. Bunday holatda onaga guruhda biroz bo'lib turishga ruxsat berish maqsadga muvofiqdir. Onasining borligini bilgan bola tinchlanadi, notanish kattalar oldidagi qo'rquv ketadi, bola o'yinchoqlarga bo'lgan qiziqishini namoyish eta boshlaydi. Ona bolasini tarbiyachiga murojaat qilishga



undashi kerak, tarbiyachi opadan o'zi borib o'yinchorq so'rab ko'rishini, tarbiyachining qanchalik mehribon va bolalarni yaxshi ko'rishini aytish kerak. Tarbiyachi bu so'zlarni o'z harakatlari bilan tasdiqlaydi: bolaga erkalab muomala qiladi, unga o'yinchoq beradi, uning kiyimini maqtaydi gurug'da nimadir qiziq narsa ko'rsatadi va xk.

Begona kattalar bilan muloqot tajribasi bo'lgan bolalar tarbiyachi bilan tez muloqotga kirishadi. Lekin tarbiyachi ham bolaning xafsalasi pir bo'lmasligi uchun uni quyidagicha kutib olishi lozim: unga e'tibor qaratishi, vaqtincha yaqinlarini o'rnini sezdirmaslik, o'zini begona xis qilishiga yo'l qo'ymasligi lozim.

#### **<sup>45</sup>Bolalarda muloqotga bo'lgan ehtiyoj rivojlanishining tarbiya shart-sharoitlariga bog'liqligi.**

Hamma bolalar ham guruhga qabul qilinishi bilanoq yig'lamaydilar, ko'plari guruhga ishonch bilan keladilar, atrofni kuzatadilar, mustaqil tarzda o'zlariga mashg'ulot topadilar. Boshqalar bu darajada o'zlariga ishonmasalar ham lekin ortiqcha xavotirlanmaydilar. Ular tarbiyachini diqqat bilan kuzatadilar, u taklif etgan harakatlarni bajaradilar. Har ikkala xildagi bolalar ham ota-onasi bog'chaga olib kelganida xotirjamlik bilan xayrlashib guruhga o'zlari qo'shiladilar. M: Saida onasi bilan xayrlashayotib uning ko'zlariga qarab so'raydi: "Siz meni yaxshi ko'rasizmi?" Javob olgach guruhga boradi. U tarbiyachi oldiga boradi uning ko'zlariga qaraydiyu lekin o'sha savolni berishga botinolmaydi. Tarbiyachi uni erkalab boshini silab qo'yadi, tabassum qiladi, e'tibor qaratadi va qizcha o'zini baxtiyor his etadi. Qizcha tarbiyachining ortidan qolmaydi, uning harakatlariga taqlid qiladi. Saidaning bu xulqi shuni ko'rsatadiki, u katta odam bilan muloqotga ehtiyoj sezmoqda, uning erkalashiga va e'tiboriga muxtojligi bor. Bu ehtiyoj tarbiyachi tomonidan qondirilgach, Saida uchun u mehribon va yaqin kishiga aylandi. Aynan o'sha guruhga Nodir ham boradi. U ham tarbiyachi bilan oson muloqotga kirishadi, tarbiyachidan o'yinda yordam berishini, u bilan o'ynashini so'raydi va xk.

Ba'zi bolalar guruhni yangi holatiga oson ko'nikib, o'zlarini

<sup>45</sup> Z.S. Teshabayeva "Bolangiz bogchaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y

o'zlari band qila oladilar. Ular doim tarbiyachi bilan yurmaydilar, lekin lozim paytda unga xotirjamlik va ishonch bilan murojaat qiladilar. Faqat ilk kunlardagina ularni xulqida biroz sarosima va xavotirlik seziladi.

Bog'chaga ilk bor kelgan 3 yoshli Nodira onasisiz guruhda qolishni hojlamaydi. Oyisi endi ketaman deganda qizcha eshikka tashlanib ovozi boricha onasini chaqirib yig'laydi. Tarbiyachi onasiga guruhda biroz qolishni taklif qiladi va Nodira tinchlanadi. Uzoq vaqt onasidan ketmaydi, unga yopishadi, ko'zlariga tikiladi, nihoyat oyisi ketmayotganligini xis qilgach atrofga e'tibor qaratishni boshlaydi. Uzoq kuzatishdan so'ng Nodira onasini o'yinchoq turgan shkaftga tortib keladi va qo'g'irchoqlarni ko'rishni boshlaydi va ulardan birini olib o'ynashga qaror qiladi. Yaqin odamni u begonalardan himoyachi deb tushunadi va bir vaqtning o'zida uning yordamida atrofdegilar bilan tanishish imkonini topadi.

Ko'rib turibmizki bog'chaga kelgan bolalar o'zlarini har xil tutadilar. Ularning xulqi qanday bo'lishi guruhga kelgungacha shakllangan ehtiyojlarga bog'liq.

#### **<sup>46</sup>Xulq-atvorning turi va muloqotga bo'lgan ehtiyojga qarab bolalarni uch guruhga ajratish mumkin. Shundan kelib chiqib moslashish guruhlari belgilanadi:**

**Birinchi guruh bolalarida** yaqin katta odamlar bilan muloqotga, ulardan e'tibor, erkalash, mehr va atrof- muhit haqida ma'lumot berishlariga bo'lgan ehtiyoj ustun bo'ladi;

**Ikkinchi guruh bolalarida** nafaqat yaqinlari bilan balki boshqa kattalar bilan bo'ladigan muloqotga ehtiyoj, ular bilan birgalikdagi amallarga va ulardan atrof muhitdan ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyoj shakllangan bo'ladi;

**Va nihoyat uchinchi guruh bolalari** faol mustaqil harakatlarga va kattalar bilan harakatlarga ehtiyoj sezadilar. M: Uch yoshli Sanjar birinchi kunlardanoq o'yinchoqlarni mustaqil tanlar, xuddi ular bilan tanishayotgandek har birini ko'rib chiqardi. Qachonki biron narsa biligisi kelsa tarbiyachi oldiga kelardi, uning kayfiyati quvnoq bo'lib, yoshi katta odam bor

<sup>46</sup> Z.S. Teshabayeva "Bolangiz bogchaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y



yo'qligiga bog'liq emas edi. Tarbiyachi guruhdan biroz vaqtga chiqib ketsa ham Sanjar xotirjam qolaveradi, demakki bolada mustaqil xarakatlarga bo'lgan ehtiyoj yaxshi shakllangan.

Sarvar oilada yagona farzand, bog'chaga kelgunicha doim yoki onasi yoki buvisi bilan yurardi. U ayniqsa buvisiga bog'lanib qolgan, ertalab buvisi bilan bog'chaga kelganida u bilan xayrlashishi qiyin bo'ladi, kun bo'yi buvisi kelishini kutadi, yig'laydi, tarbiyachining har qanday takliflarini rad etadi, bolalar bilan o'ynagisi kelmaydi va bu holat kundan-kunga takrorlanaveradi.

Xullas bu belgilar bolada begona yoshi kattalar va bolalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyoj rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Bog'chaga kelganda birinchi guruhdagi bolalar ko'p yig'lashadi ya'ni faqat yaqin odamlari bilan muloqotga ehtiyoji bo'ladi, ular yaqinlari bilan xayrlashishni chuqur qayg'u bilan boshdan kechiradilar, negaki ularda begonalar bilan muloqot tajribasi bo'lmaydi, ular bilan aloqaga kirishishga tayyor bo'lmaydilar.

Odatda oilada muloqot doirasi qanchalik tor bo'lsa bolaning bog'chaga moslashishi ham shunchalik uzoq kechadi. Xavotir va yig'loqilik ularning xulqida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Oilaning tor sharoitlarida shakllangan muloqot tajribasi shunga olib keladiki bola o'zidagi kattalar bilan birgalikdagi harakatlar tajribasini yangi sharoitga ko'chirishga qiynaladi va bu uning xavotirini kuchaytiradi.

Shartli ravishda ikkinchi guruhga kiradigan bolalar bog'chagacha oila a'zolari bo'lmagan kattalar bilan muloqot tajribasiga ega bo'ladilar. Bu uzoq qarindoo'lar yoki qo'shnilar bilan bo'lgan muloqotdir. Guruhga kelgach ular doim tarbiyachini kuzatadilar, uning harakatlariga taqlid qiladilar, savollar beradi. Tarbiyachi bolaning oila a'zolari o'rnini to'laligicha egallaydi, undan bolalar qaysi vaziyatda qanday harakat qilishini, qaysi predmet bilan qanday o'ynashini o'rganadilar.

M: Aziz bog'chaga qabul qilingunicha oyisining dugonasi bilan tez-tez aylangani chiqib turar, kelgan qarindoshlar yoki tanishlar bilan birga uyda qolar edi. U guruhga xotirjamlik bilan boradi, stulchasiga o'tirib, tarbiyachiga tikilib qarashni

boshlaydi. Tarbiyachi unga qanday qilib xalqalarni tizish bilan piramida hosil qilishni ko'rsatadi. Keyin esa Aziz bu amallarni tarbiyachisi bilan birga qaytarishga kirishadi, Lekin tarbiyachi boshqa bolalar bilan ham shug'ullanish uchun nari ketadi. Aziz qovog'ishni osishni boshlaydi, lekin o'rnidan turib bolalarni asta aylanib o'tadida, yana tarbiyachining yoniga keladi va uning diqqatini tortmoqchi bo'ladi. Tarbiyachi unga tabassum qiladi, unga e'tibor qaratganday bo'lib oldiga o'tqazib oladi. Bolaning qo'lga o'yinchoq mashinani berib uni guruh bo'ylab yurgizib chiqishni taklif qiladi. Tarbiyachi yonida ekan Aziz hotirjam. Lekin u xali bolalardan cho'chiydi, ulardan nariroq yuradi. Agar tarbiyachi tomonidan e'tibor qaratilmasa bunday bolalar sarosimaga tushib qoladilar, yaqinlari esiga tushib yig'lay boshlaydilar.

Anvar guruhga o'yinchoq mashina olib keldi. Tarbiyachi undan mashinasini boshqa bolalar ham o'ynashiga ruxsat berishini so'radi. Lekin Anvar xali bunga tayyor emasdi va topshiriqni bajarishdan bosh tortdi. Bu bilan bolani o'z tengdoshlari bilan narsani bo'lishishga o'rgatayapman deb tarbiyachi ham o'z fikrida qattiq turib oldi. Bu holat bolada tarbiyachiga nichbatan ishonchsizlikni o'yg'otdi va yig'lamsirab uyiga ketgisi keldi.

Uchinchi guruhga mansub bolalarda faol mustaqil harakatlarga va kattalar bilan muloqotga ehtiyoj yaqqol seziladi.

Masalan, Javlon ko'pincha opasi va qo'shnilari bilan uyda qolardi. Bog'chaga kelgan birinchi kunlari u hech yig'lamadi, tarbiyachi va bolalarni kuzatdi, ularning harakatlariga taqlid qildi. Tarbiyachi bilan muloqot ijobiy kechdi: Javlon tarbiyachining mehribonligi va e'tiborini xis etib turardi, atrof-muhit haqida kerakli ma'lumotlarni olardi. Mustaqil harakatlarga bo'lgan faolligi ortdi va bor yo'g'i bir necha kundan so'ng bolalar bilan o'ynay boshladi, tarbiyachiga esa faqat alohida hollardagina murojaat qilardi.

**Moslashish davrida tarbiyachining bola bilan muloqoti mazmuni.**

Bolaning ilk kunlarda guruhga hotirjam kelishi, mustaqil



tarzda o'yinchoq tanlab, uni o'ynashni boshlashi amaliyotda uchrab turadi. Lekin bu harakati uchun tarbiyachidan tanbeh eshitgach, o'z xulqini birdan salbiy tomonga o'zgartiradi. Shunday ekan, qachonki tarbiyachining bola bilan muloqoti undagi ehtiyojlarni qondirsa, bu muloqot muvafaqiyatli shakllanadi, bolaning bog'chadagi yangi sharoitga ko'nikishi qiyinchiliksiz kechadi. Bolakay tushunmovchilikka duch kelsa, uning manfaatlariga, hoxish va tajribasiga mos kelmaydigan mazmundagi muloqotga tortsalar adaptasiya qiyinchiliklari yuzaga keladi.

Bog'chaga ko'nikib borgani sayin bolalarning muloqotga ehtiyoji mazmuni ham o'zgaradi. Buni tarbiyachi bilishi kerak. Bolaning moslashish jarayonida ko'nikmalari mazmunining kengayishi kuzatiladi.

#### **<sup>47</sup>Muloqotga ehtiyoj mazmuni 3 bosqichda kechadi:**

1-bosqich yaqinlari bilan muloqotga ehtiyoj (Ularning erkalashiga, e'tiboriga va ular yordamida atrof-muhit haqida yangi ma'lumotlar olishga bo'lgan ehtiyoj ko'rinishida);

2-bosqich ko'proq bilish uchun kattalar bilan muloqotga hamda birgalikdagi amallarga bo'lgan ehtiyoj;

3-bosqich muloqotda tashabbuskor bo'ladi, katta odamga murojaat qiladi, o'zi mustaqil o'yinchoqlar tanlaydi va o'ynaydi.

Birinchi guruh bolalari barcha uchta bosqichdan o'tishlari kerak. Ko'nikishning birinchi bosqichidagi ularning ehtiyojlarini( Erkalatish, e'tibor, qo'lda ko'tarishni iltimos qilish va xk ) guruh sharoitida qondirish qiyin. Shu sababli bunday bolalarning adaptasiyasi uzoqroq va qiyin davom etadi.(20 kundan 2-3 oygacha) Tarbiyachining vazifasi-bolani ko'nikishining 2-bosqichiga yetib kelishi uchun barcha sharoitlarni yaratish 2-bosqichga o'tishi bilan bola kattalar bilan hamkorlikka va ulardan atrof muhit haqida ma'lumotlar olishga moyil bo'ladi. Bu bosqichning davomiyligi mazkur ehtiyojning qanchalar to'liq va o'z vaqtida qondirishga bohliq bo'ladi.

2-guruh bolalari moslashish davrida 2ta bosqichdan o'tadilar( 7-20 kun).

<sup>47</sup> Z.S.Teshabayeva "Bolangiz bogchaga tayyormi" uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y

3-bosqichga kelib muloqotga tashabbuskor bo'lib qoladi, bola doim katta odamga murojaat qiladi, o'zi mustaqil o'yinchoqlar tanlaydi va o'ynaydi.

3- guruh bolalari uchun esa ko'nikish davri tez nixoyasiga yetadi(2-3 kundan7-10 kungacha). Shu bilan bolaning jamoadagi tarbiya sharoitlariga ko'nikish davri tugaydi.

Bog'chaga yangi kelgan bolaning muloqoti va o'yin faoliyati mos tarzda tashkil etilmasa, uning ko'nikish jarayoni nafaqat sekinlashadi, balki qiyinlashadi ham. Shu sababdan tarbiyachi bolalar xarakterining o'ziga xos xususiyatlarini va moslashish bosqichlarini bilishi kerak.

#### **Bola moslashuvining davomiyligi va muvafaqiyatli kechishi tarbiyachining quyidagi amallarni to'g'ri bajarishiga bog'liq:**

- bola xulqini belgilab beruvchi ehtiyojlarini to'g'ri aniqlashi, bu ehtiyojlarni qondirish imkonini beruvchi sharoitlarni yaratishi. Agar tarbiyachi qaysi ehtiyojlar bolaning xulqiga ta'sir etayotganiga e'tibor bermasa pedagogik ta'sir ko'rsatish jarayoni tartibsiz kechadi, bola xarakteriga mos kelmaydi.

-bola yig'laganda tarbiyachi unga o'yinchoq tutqazdi, eshikka qarab yugurib ketsa, bolani qaytarishdi, uning ustiga bunday qilishni ta'qiqlab qo'yido, bola bir o'zi o'tirsa tarbiyachi unga bolalar bilan birga o'ynashni taklif etdi. Bu kabi pedagogik ta'sirlar umuman foyda bermaydi, yoki shunchaki qisqa muddatli ta'sir o'tkazadi.

Pedagogik ta'sirlar tizimining yaxshi o'ylanganligi-bolalarning bog'chaga moslashish jarayonini samarali boshqarishning muhim shartidir. Bu tizimda bola faoliyatini uning xulqiga ta'sir etadigan ehtiyojlarni qondiradigan qilib tashkil etish asosiy o'rin tutadi.

Afsuski tarbiyachilar muloqotni tashkil etishga e'tibor qaratmaydilar, shu sabab ko'pincha muloqot tartibsiz kechadi. Tarbiyachilar bolani o'ynashga, mehnat qilishga o'rgatishadi, muloqot qilishga esa kamdan-kam hollardagina o'rgatishadi.

Yuqorida aytilganidek, muloqot faoliyati o'z mazmuni va rivojlanish bosqichlariga ega. Ammo ko'nikish jarayonida



yosh emas, balki muloqot shakllarini rivojlantirish muhim ro'l o'ynaydi. Shunday qilib birinchi guruh bolalari yoshidan qat'iy nazar, ko'nikishning birinchi bosqichida emosional muloqotga, faqat ikkinchi bosqichga o'tgandagina situativ harakatli muloqotga ehtiyoj sezadilar.

**Buning uchun tarbiyachi ham shunga mos muloqot vositalarini tanlashi lozim:**

1-bosqichda tabassum,erkalash, e'tibor, mimka va xk.

2-bosqichda-harakatni ko'rsatish, uni mashq qilish, bola bilan birgalikdagi harakatlar, topshiriq berish va xk.

Har bir muloqot turiga mavjud ehtiyojlar qoniqtiriladi va yangilari shakllanadi. Xususan emosional muloqot jarayonida nafaqat mehr, erkalash, yaqin kishining e'tiboriga bo'lgan ehtiyoj qoniqtiriladi, balki kattalar bilan xamkorlikka bo'lgan ehtiyoj ham shakllanadi.

Situativ- harakatli muloqot jarayonida nafaqat kattalar bilan hamkorlikka va ularning yordamida atrof-muhitni bilishga bo'lgan ehtiyoj qondiriladi, balki mustaqil harakatga va ko'proq bilish uchun kattalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyoj ham shakllanadi. Masalan guruhga qabul qilingan Sanjarni xarakteriga qarab birinchi guruhga mansub desa bo'ladi. U onasini chaqirib yig'lar, tarbiyachi bilan muloqotga kirishishga hech ham hoxishbildirmasdi. Onasi guruhda qoldi, bolasining tarbiyachi bilan muloqot o'rnatishiga yordam berdi. Erkalash va e'tibor yordamida tarbiyachi bola diqqatini jalb qildi, o'yinchoqlar va atrof-dagi predietlar bilan tanishtirishni boshladi. Ko'rsatish va Sanjar bilan birgalikdagi amallar usullarini qo'llagan holda tarbiyachi uning hamkorlikka bo'lgan ehtiyojini qondirdi.

Nafisa guruhga kelib o'yinchoqni mustaqil o'ynay boshladi tarbiyachi uni -uxlashga yotqizdi, suv ichirdi, ovqatlantirdi. Tarbiyachi Nafisaga nafaqat qanday o'ynashni ko'rsatdi, balki uning o'yinini maqtab ham qo'ydi. Muloqot mazmunining kengayishi bolalarning predmetli o'yin faoliyati rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Kattalar bilan hamkorlik jarayonida bola avval predmet bilan bajariladigan alohida amallarni

o'rganadi, keyinchalik esa kattalar rahbarligida ko'p marotaba mashq qilish natijasida bolada mustaqil predmetli faoliyat shakllanadi. Predmetli faoliyatni egallash vaziyatdan tashqari nutq shaklining rivojlanishiga, atrof-muhit bo'yicha maxsus tajriba orttirishiga imkon beradi. Bolalarning predmetli-o'yin faoliyati rivojlanishi taxminan quyidagi bosqichlarda o'tadi: predmetlar bilan manipulyasiya qilish, alohida predmetli amallar va boshqalarning amallarini kuzatish, syujetli-rolli o'yinlarga kirishish. Tarbiyachi bolalarning predmetli -o'yin amallari shakllanganligi darajasini kattalar va guruhdagi bolalar bilan amallarini bajarishda muloqotga tayyorligini hisobga olishi kerak.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Bolalarda muloqotga bo'lgan ehtiyoj rivojlanishining tarbiya shart-sharoitlariga bog'liqligi haqida so'z yuriting
- 2.Xulq-atvorning turi va muloqotga bo'lgan extiyojga qarab bolalarning moslashish guruhlari haqida ma'lumot bering
3. Moslashish davrida tarbiyachining bola bilan muloqoti mazmuni haqida so'z yuriting
4. Bola moslashuvining davomiyligi va muvafaqiyatli kechishi uchun tarbiyachi qanday amallarni to'g'ri bajarishi lozim?



## IZOHLI LU'GAT

**Avtonomlashuv** — (yunoncha, avto — o'zim, homus — qonun) — o'z-o'zini boshqarish va tartibga solish imkoniyatini qo'lga kiritish.

**Adaptasiya** — insonning ijtimoiy muhit bilan o'zaro faol munosabat-da bo'lish va uning potensialini shaxsiy rivojlanish uchun ishlatish qobiliyati.

**Anamnez** — bola haqida ota-ona yoki bolani tarbiyalovchiboshqa shax-slardan shifokor, pedagog yoki psixolog tomonidan ma'lumot olish. Anamnez to'planayotganda bolaning irsiyligi, boshidan kechirgan kasalliklari, nutqi, o'yin faoliyatining rivojlanish xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar aniqlanadi.

**Anomaliya** — jismoniy yoki ruhiy rivojlanishning umumiy me'yorla-ridan ogish.

**Anomal bolalar** — ruhiy va jismoniy rivojlanishida me'yordan og'ishish bo'lgan bolalar.

**Affektov buzilishlar**- emosional sohaning buzilishi bo'lib, kuchli asabiylashish hamda asabiylashish darajasining tushib ketishida namoyon bo'ladi (opatiya, befarqlik). Bular markaziy nerv sistemasining funksional va organik buzilishi oqibatida yuzaga keladi.

**Axloq** — kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlaridan namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui.

**Bolalar jinoyatchiligi**- salbiy ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan barcha g'ayri huquqiy xatti-harakatlar majmuasi hisoblanadi.

**Bolaning ijtimoiylashuvi**- uning ijtimoiy hayotga qo'shilishi bo'lib, shu jamiyatga xos bilimlar, qadriyatlar, me'yor va qoidalar, xulq-atvor namunalari o'zlashtirishdan iborat (M. A. Galaguzova).

**Bolaning ijtimoiy adaptasiyasi** — bolaning ijtimoiy muhit sharoitlariga faol ko'nikishi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlarining turi.

**Bolaning ijtimoiy dezadaptasiyasi** — bolaning ijtimoiy

muhit sharoitlariga muvaffaqiyatli ko'nikishiga to'sqinlik qiluvchi, unda ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarni yo'qotilishi.

**Bolalikni ijtimoiy himoyalash** — qonunchilik va bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyada mustahkamlangan, voyaga yetmaganlar huquqlarining kafolatini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar. Bular bolalarning optimal biologik va ijtimoiy rivojlanishini, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ko'nikishini ta'minlab beruvchi huquqiy, iqtisodiy, tibbiy va psixologik-pedagogik choralar majmuasidir.

**Bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish** ijtimoiy himoyaning shakllaridan biri bo'lib, kam ta'minlangan oilalar farzandlarining hayotiy ehgiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy chora-tadbirlar majmuasi. Ijtimoiy pedagog bolalarga turli yordam ko'rsatadi, biroq ularning ichida ustuvor yordam bolalikni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

**Bolalikka olish** — bolalikka oluvchi va bolalikka olinuvchi o'rtasida, ota-ona va farzandlar o'rtasida mavjud huquq hamda majburiyatlarni o'rnatuvchi yuridik akt.

**Vasiylik** — muomalaga layoqatsiz shaxslarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish.

**Guruhning ijtimoiy psixologik iqlimi** — guruh har bir a'zosining faoliyatiga ta'sir qiluvchi munosabatlarning dinamik maydoni.

**G'oya** — inson tafakkurida vujudga keladigan, jamiyat va olamlarni maqsad sari yetaklayligan fikr. Unda olamni bilish va amaliy o'zgartirish maqsadlariga erishish yo'llari va vositalari mujassam bo'lali.

**Deviant xulq atvor**—ijtimoiy yoki axloqiy me'yorlarga mos kelmaydi-gan xulq-atvor.

**Delikventlik (ing. "gunohkorlik")** — o'rnatilgan me'yorlarni buzuvchi va huquqbuzarlikka olib keluvchi xulq-atvor. Dinamik steriotip bosh miya faoliyatining fiziologik shakli bo'lib, inson xatti-harakatining shartli reflektor tartibida namoyon bo'ladi. Ularga insonning odatlari, oddiy mehnat ko'nikmalari kiradi.

**Despotizm** (zo'ravonlik) kuzatilib, ko'pincha boladan



“Men o‘zim...” iborasini eshitish mumkin.

**Yetim bolalar** — 18 yoshgacha bo‘lgan, turli sabablar bilan ota-onasining biri yoki ikkisi ham yo‘q bolalar.

**Yetimlik** — jamiyatda ota-onasidan judo bo‘lgan bolalarning borligi bilan izohlanadigan ijtimoiy hodisa.

**Jamoa** — ijtimoiy munosabatlar va yagona ijtimoiy faoliyat asosida birlashgan guruh.

**Jinoyat** — delikvent xulq-atvor turi bo‘lib, shaxsga hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan ob’ektlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli xatti-harakat.

**Jinoiy xulq-atvor** — jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetganda jinoiy ish qo‘zg‘atishga asos bo‘luvchi g‘ayri huquqiy harakatlar.

**Ijtimoiylashuv** — insonning butun hayoti mobaynida o‘z-o‘zini o‘zgartirish va rivojlantirishning boshqariladigan va maqsadga yo‘naltirilgan jarayoni.

**Ijtimoiy tarbiya** — bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga yordam beradigan hamda unda ijtimoiy zarur sifatlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadida amalga oshiriladigan jarayon.

**Insoniylik** — bolani shaxs sifatida qadrlaydigan, uning g‘ururi va erkinligini himoyalash bilan tavsiflanadigan, inson manfaati ni ijtimoiy institutlar “baholashning asosiy me‘yori” deb hisoblaydigan qarashlar tizimi.

**Infantilizm** -organizmning ruhiy rivojlanishidagi to‘xtab qolish bo‘lib, bolalik davridagi rivojlanish bosqichi jihatlarini saqlab qolish bilan tavsiflanadi

**Inqiroz** — shaxs rivojlanishining diskret vaziyatida uning maqsadga qaratilgan hayotiy faoliyatining to‘xtab qolishi. Surunkali inqiroz ijtimoiy dezadaptasiya, o‘z joniga qasd qilish, asab-ruhiy va psixologik kasalliklarga olib kelishi mumkin.

**Ishontirish** — mantiq, isbot-dalilga asoslangan aqliy emosional ta‘sir. Uning mohiyati inson ongiga ta‘sir qilishga qaratilgan. Demak, ishontirishning muvaffaqiyatli bo‘lishi ong qonunlariga mos kelishiga bog‘liq. Ishontiruvchi so‘zlar tushunarli bo‘lishi kerak. Ishontirish bolaning individual

tajribasiga asoslanishi lozim.

**Ichki ishonch** — axborotni tanqidsiz qabul qilish va unga muvofiq kayfiyat, xulq-atvorni o‘zlashtirishga qaratilgan ga‘sir. Ishontirishning samaradorligi ishontiruvchi shaxsning kuchi va boshqa shaxsning ishonuvchanligi, shuningdek, ular o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq.

**Iqtidorlilik** — bolaning o‘z tengqurlariga nisbatan aqliy rivojlanishda ancha ilgari ketishi.

**Katamnez** — davolash yakunlangandan so‘ng, kasal haqida olinadigan ma‘lumotlar. Maxsus kuzatuv ostida bo‘lgan o‘quvchilarning mehnat hayoti, ta‘limi to‘g‘risida davriy ma‘lumot to‘plash.

**Kommunikativlik** — shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo‘lish, bolani tinglash va eshitish qobiliyati, muomalaga kirisha olish va aloqa o‘rnatish, axborot to‘plash, turli ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish va rivojlantirish, bolaning verbal va noverbal xulq-atvorini kuzatish.

**Kompensasiya** — buzilgan funksiyalar o‘rnini to‘ldirish, rivojlantirish.

**Konkretlik** — umumiy fikrlardan voz kechib, savollarga aniq javob berish qobiliyati.

**Korreksion tarbiya** — jamiyatdagi hayotga ko‘nikish uchun sharoitlar yaratish, ba‘zi toifa odamlarni rivojlanish nuqsonlarini yengib o‘tish yoki bartaraf etish. Madaniyat jamiyat, ijodiy kurslar va inson qobiliyatlarining tarixan rivojlanish darajasi bo‘lib, insonlar hayoti va faoliyatini tashkil qilish shakllari, shuningdek, ular tomonidan yaratilayotgan moddiy va ma‘naviy qadriyatlarda uz ifodasini topadi.

**Madaniyatlilik** — bola tarbiyasi va ijtimoiylashuvi jarayoni shu jamiyat va millatning ma‘naviy qadriyatlari asosida qurilishi.

**“Men” konsepsiyasi** — insonning o‘zi haqidagi tasavvurlari tizimi.

**Mikrososium** — tarkibida oila, qo‘shnilar, tengdoshlar guruhlari hamda turli ijtimoiy, davlat, diniy, xususiy va tarbiyaviy tashkilotlari mavjud, muayyan hududda faoliyat yurituvchi



jamiyat.

**Metod** (yun. *metodos* — bilish yokit adqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

**Nazoratsizlik** — bolalarni, ularning xulq-atvorini, bo'sh vaqqlarini qanday o'tkazishlarini nazorat qilmaslik, ularning tarbiyasi haqida qayg'urmaslik.

**Negativizm** ya'ni bolaning boshqalar bilan munosabatida salbiy reaksiya kuzatilib, kattalarga bo'ysunishni istamaydi.

**Oila** — insonlar kundalik hayotining asosiy qismi jinsiy munosabatlar, bolani dunyoga keltirish, bolalarning ijtimoiylashuvi kabi holatlar sodir bo'ladigan ijtimoiy institut.

**Ontogenez** — hayvon yoki o'simlik olamining yaralishidan boshlab ha-yotining oxirigacha individual rivojlanishi. Ontogenez organizmni tashqi muhitning aniqbir sharoitlarda rivojlanishi hisoblanadi. Ontogenezd ham organizm birin-ketin rivojlanish bosqichlaridan o'gadi. Inson ontogenezi ikki bosqichdan iborat: prenatal va postnatal.

**Pedagogik tashxis** — o'quvchi va o'quvchilar jamoasi shaxsiyatini ta'lim-tarbiya jarayoniga individual va differensial yondashuvni ta'minlash uchun o'rganish.

**Pedagogik texnologiya** — ta'lim-tarbiyaning pedagogik samaradorligi-ni oshiruvchi omillar taqlili orqali optimallashtirish jarayonidir. Pedago-gik texnologiya bolalarni natijaviy qilib tarbiyalash, ta'lim berish va ri-vojlantirishga yordam beradi. Uning asosiy belgilari natijalilik, algoritm mavjudligi, iqqisod, loyihalashtirish, butunlik va boshqarish. Pedagogik texnologiyalar bir-biri bilan bog'liq aniq ifodalangan bosqichlarga ega bo'lib, ish samaradorligini oshirish, xar qanday sharoitlarda qo'llanilish imkonini beradi.

**Pedagogik qarovsizlik** — shaxs rivojlanishiga barcha omillar majmuasining dezintegratsiya ta'siri oqibati. Ular, avvalambor, to'laqonli individual-psixologik rivojlanishni ta'minlovchi yetakchi faoliyatturlarini qoniqarsiz o'zlashtirishda namoyon bo'ladi. Professional ijtimoiy pedagogik faoliyat

bolalar va o'smirlarni o'rab turuvchi mikrojamiyatda ijti-moiy tarbiya bo'yicha bosqichma-bosqich ish olib borish bulib, bolalarning muvaffaqiyatli adaptasiyasi, individuallashtirish va integratsiyasiga qaratilgan. Uning ob'ekti bola hisoblanib, predmeti bolalarning ijtimoiy tarbiyasi jarayonidir.

**Rahmdillik** — kimgadir yordam berishga tayyor bo'lish yoki kimnidir hamdardlik, insonparvarlik tufayli kechirish.

**Reabilitasiya** — bemorning psixofizik imkoniyatlari doirasida kundalik meqnat va hdyotga qaytishi. Bu, birinchidan, tibbiyot yordamida inson-ning jismoniy nuqsonlarini bartaraf etish, ikkinchidan, maxsus o'quv metodlarini qo'llash, uchinchidan esa, professional tayyorgarlik asosida erishiladi.

**Referent guruh** — inson uchun o'lchov birligi hisoblangan tavsiiyalar, ma'lumotlar.

**Refleksiya**- insonning ichki ruhiy faoliyati bo'lib, o'z xatti-harakatlari, xislatlari, holatlarini anglab olishiga qaratilgan; insonning o'z ma'naviy dunyosini anglab olishi.

**Somatik** — jismoniy.

**Ijtimoiy adaptasiya**- metod va usullar tizimi bo'lib, uning maqsadi insonlarga ularning ijtimoiylashuvi va yangi ijtimoiy sharoitlarga ko'nikishlariga yordam berish.

**Ijtimoiylashuv agentlari**-insonning ijtimoiylashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan muassasalar, u bilan bevosita munosabatda bo'lgan guruhlar va shaxslar ijtimoiy pedagogikaga "ijtimoiylashuv agentlari" deb nomlanadi.

**Ijtimoiy vasiylik** -vasiylikka muhtoj odamlarni aniqlaydi, vasiylarni tanlaydi, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi.

**Ijtimoiy diagnostika (ijtimoiy tashxis)** — ijtimoiy hodisani, uning holatini tavsiflash va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida yaxlit o'rganish jarayoni. Metod, usullar vositasida tadqiq etishga aso-slanadi. Ijtimoiy diagnostika ijtimoiy muammoni bo'laklarga bo'lish orqali o'rganishni nazarda tutadi. Ijtimoiy tashhis urganilayotgan ijtimoiy hodisalarning salbiy tendensiyalarining oldini olishga qaratilgan amaliy harakatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.



**Ijtimoiy yetim** — biologikota-onagaega, biroqlar muayyan sabablarga ko'ra bola tarbiyasi bilan shug'ullanishmaydi va unga g'amxo'rlik qilishmaydi.

**Ijtimoiy informasion yordam** — bolalarni ijtimoiy g'amxo'rlik, himoya, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashga qaratilgan yordam.

**Ijtimoiy ish** — ijtimoiy sohadagi tashkiliy faoliyat bo'lib, jamiyatning barcha qatlamlaridagi ijtimoiy muammolarni yechishga qodir bo'lgan maxsus ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. Uning maqsadi inson manfaati va ehtiyojlarini moddiylashtirish, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega natijalarni qo'lga kiritish, jamiyatda shaxs, guruh hamda jamoaning ijtimoiy maqomini mustaxkamlash yoki o'zgartirish.

**Ijtimoiy iqtisodiy yordam** — muhtoj bolalarning ruhiy, axloqiy va emosional holatini tiklash bo'yicha muassasa va markazlarda yordam ko'rsatish.

**Ijtimoiy maqom** — insonning jamiyatdagi muayyan huquq va majburiyatlari bilan tavsiflanadigan mavqei.

**Ijtimoiy me'yorlar** — inson xatti-harakatlarini, ularning ijtimoiy hayotini muayyan madaniyat, jamiyat qadriyatlariga muvofiq tartibga soluvchi xulq-atvor me'yorlari.

**Ijtimoiy patronaj** — shaxs huquqlari va voyaga yetmaganlarning mol-mulklarini himoya qilishning maxsus turi. Patronaj uyda profilaktik, sog'lomlashtirish, sanitar chora-tadbirlarni o'tkazishni ko'zda tutadi.

**Ijtimoiy pedagog** — ijtimoiy pedagogika mutaxassisligi bo'yicha o'rta yoki oliy professional ma'lumotga ega, ijtimoiy-pedagogik faoliyatni yuqori saviyada yuritadigan mutaxassis.

**Ijtimoiy pedagogika** — shaxs ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganishga, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadidagi samarali metodlar va ijtimoiy pedagogik faoliyat texnologiyalarini joriy qilishga qaratilgan pedagogika sohasi.

**Ijtimoiy-pedagogik bashorat** — bolani yuzaga kelgan muammo bilan bog'liq ravishda biror bir ijtimoiy-pedagogik faoliyatga jalb qilish orqali bu muammo natijalarini oldindan

taxmin qilish. Ijtimoiy-pedagogik bashorat ijtimoiy-pedagogik jarayonning mantiqi va mohiyati, uning qonuniyatlarini bilishga tayanadi.

**Ijtimoiy-pedagogik markaz** — ijtimoiy-psixologik markazlar, xududiy guruh va birlashmalar, tarbiya muassasalari tarmogi.

**Ijtimoiy pedagogning professional maqomi** — sub'ektning huquqi majburiyatlari va vakolatlarini aniqlab beruvchi shaxslararo munosabatlar tizimidagi o'rni. Ijtimoiy pedagog maqomi u egallab turgan holatning in'ikosi hisoblanadi: ma'muriy-ijtimoiy pedagog, jamoaviy- ijtimoiy pedagog, oilaviy ijtimoiy pedagog, ta'lim muassasasining ijtimoiy pedagogi. Biroq professional maqom obro' e'tiborini aniqlab bermaydi. Ular professional-shaxsiy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

**Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodikasi** — ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuni, shakl, usul, vositalari va nazorati majmuasi.

**Ijtimoiy pedagog refleksiyesi** — har bir bosqichda o'z faoliyatini tahlil qilish, uning salbiy va ijobiy tomonlarini aniqlash, olingan natijalarni bola shaxsiyatiga ta'sirini o'rganish.

**Ijtimoiy-pedagogik reabilitasiya** — bola organizmining ba'zi buzilgan funksiyalari, uning ijtimoiy maqomining o'zgarishi va unda og'uvchi xulq-atvorning paydo bulishi bilan bog'liq bolaning yo'qotgan ijtimoiy aloqalarni tiklashga qaratilgan choralar tizimi.

**Ijtimoiy-pedagogik profilaktika** — bolada turli faollik turlarining namoyon bo'lishiga va bolalarning optimal ijtimoiy rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy tarbiya chora-tadbirlari tizimi.

**Ijtimoiy-pedagogik faoliyat** — bolaga ijtimoiylashuv jarayonida va jamiyatda o'z-o'zini anglashi uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan professional faoliyat.

**Ijtimoiy-pedagogik faoliyat texnologiyasi** — rasional va maqsadga qaratilgan xatti-harakatlar bilan tavsiflanadigan amaliy ijtimoiy-pedagogik faoliyatning metod va usullari majmuasi.



**Ijtimoiy-pedagogik yordam** — bolaning ijtimoiylashuvi va to'la qonli rivojlanishi uchun psixologik, pedagogik sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlar tizimi.

**Ijtimoiy profilaktika** — turli salbiy tavsifdagi ijtimoiy og'ishlarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar va shart-sharoitlarningoldini olish, bartarafetish yoki neytrallashtirishga qaratilgan davlat, ijtimoiy, ijtimoiy- tibbiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmuasi.

**Ijtimoiy-psixologik yordam** — oila va mikro jamiyatda qulay mik-roikutimni yaratishga, uy, maktab jamoasining salbiy ta'sirlarini bartaraf etishga qaratilgan yordam.

**Ijtimoiy reabilitasiya** — insonning ijtimoiy muhitda faoliyat yuritish qobiliyatini tiklashga qaratilgan jarayon texnologiya sifatida tibbiy, maishiy, kasbiy, shaxsiy darajadagi reabilitasiyaga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini ilgari suradi.

**Ijtimoiy reabilitasion yordam** — bolalarning ruhiy, aqliy, emotsional holati va sog'ligini tiklashga qaratilgan yordam. Ijtimoiy sog'liq individning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarning mukammallashuvi shakli va vositalarining muayyan darajasi bo'lib, o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi ruhiy va shaxsiy rivojlanishni anglatadi. Ijtimoiy sog'likning aksi ijtimoiy qarovsizlik holatidir.

**Ijtimoiy tajriba** — turli bilim, ko'nikma va malakalar birligi, xulq-atvor me'yorlari va stereotiplari, insonlar bilan muomala tajribasi, adaptasiya, o'z-o'zini anglab olish tajribalari majmuasi.

**Ijtimoiy tarbiya** — shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarni shakllantirish jarayoni.

**Ijtimoiy tarbiyada yoshga kura yondashuv** — inson rivojlanishiga har bir yosh guruhning xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda shart-sharoit yaratib berish.

**Ijtimoiy tarbiyaga individual yondashuv** —

tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini ham shaxsiy, ham individ darajasida inobatga olish.

**Ijtimoiy ta'lim** — ta'lim oluvchilarga ijtimoiy bilimlarni hamda ularning ijtimoiylashuviga ko'maklashuvchi ijtimoiy ko'nikma va malakalarni yetkazish jarayoni.

**Ijtimoiy ta'minot** — davlat moddiy ta'minoti va ijtimoiy yordam-ga muhtojlarga yordam ko'rsatish doirasida turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi.

**Ijtimoiy terapiya** — davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari va birlashmalari, shu jumladan diniy tashkilotlarning ijtimoiy munosabatlarning muayyan bir shakllariga amaliy ta'sir qilish jarayoni.

**Ijtimoiy texnologiya** — turli ijtimoiy muammolarni yechish va aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashda ijtimoiy ishchilar va ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari tomonidan qo'llaniladigan vosita, metod va ta'sirlar majmuasi. Ijtimoiy pedagog faoliyatining zahirasi to'rt turdagi ijtimoiy texnologiyani kuzatish mumkin: ijtimoiy ishga te-gishli, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-tibbiy, ijtimoiy-pedagogik.

**Ijtimoiy qarovsizlik** — ijtimoiy xislatlar, ehtiyojlar, qadriyatlarining rivojlanmasligiga, bo'sh ijtimoiy refleksiyaga, ijtimoiy rollarni egallashda qiyinchiliklarga olib keluvchi omillarning oqibati.

**Ijtimoiy harakat** — turli ijtimoiy guruhlarining umumiy maqsad sari qaratilgan birgalikdagi xatti-harakatlari.

**Ijtimoiy hudud** — bola ko'z o'ngida har kuni sodir bo'ladigan xarakteristikalar, ijtimoiy munosabatlar, transport, narsa-buyumlarning qiyofaviy majmuasi.

**Ijtimoiy-huquqiy yordam** — inson va bola huquqlariga amal qilishga, bu huquqlarni amalga oshirishga, bolalarni oilaviy, mehnat, fuqarolik masalalari bo'yicha huquqiy tarbiyalashga qaratilgan yordam.

**Ijtimoiy tarbiya** — shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarni shakllantirish jarayoni.

**Ko'rsatma (ustanovka)** — muayyan xulq-atvor,



tasavvurni boshdan kechi-rishga tayyor bo'lish. Ko'rsatmalar faoliyatning barqaror kechishini belgilab berishadi. Agar shaxsiy ko'rsatmalar kasbiy faoliyatning tavsifini belgilab bersa, ijtimoiy ko'rsatmalar mutaxassisning mijoz bilan o'zaro munosabati usullariga oydinlik kiritadi.

**Tayanch shaxs** — insonning asosiy hayotiy intilishlarini belgilab be-ruvchi tabiiy andoza. Tayanch intilishlar hammada bir hil bo'ladi, biroq ularning namoyon bo'lishi genetik va tashqi omillarga bog'liq.

**Tibbiy-ijtimoiy yordam** — ta'lim-tarbiya jarayonida sog'liqni tiklash yoki mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar

**Tizim** (qad.yunon.: «tseloe, sostavlennoe iz chastey; soedinenie») — bir-biri bilan bog'liq holda ma'lum yahlitlikni, butunlikni tashkil etuvchi elementlar yig'indisi.

**Tengdoshlar**- ijtimoiy guruhdagi taxminan bir xil yoshdagi va mavqega ega odamlar bo'lib, ular bolalar rivojlanishiga alohida va muhim hissa qo'shadilar.

**Sosium** — insonning ijtimoiy atrof-muhiti, hamjamiyati.

**Submadaniyat** — muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik belgilar (me'yor,qadriyat, steriotip, did) majmuasi.

**Shaxs** — alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy axloqiy olam. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

**Shaxslararo munosabatlar** — ommaviy ijtimoiy-psixologik hodisalar bo'lib, bir guruhda bo'lgan va birgalikdagi faoliyat hamda muloqot jarayonida bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi.

**Shaxslararo muomala** — insonlar orasida aloqalar o'rnatishning murakkab jarayoni. Pedagogik jamoada

shaxslararo muomalaning quyidagi xususiyatlari korreksiyalanishga muhtoj: ba'zi pedagoglarning sabrsizligi, irodasizligi, kasbdoshlarini tinglay olmasligi, o'z maqomini oqlash. Ijtimoiy-pedagogik treninglar, boshlang'ich pedagogik o'qishlar orqali sabr-matonat, tinglash madaniyati kabi xislatlarni shakllantirish mumkin.

**Shaxsning hayot tarzi** — maqsadga muvofiq shakllangan qiziqishlar, faoliyat turlari va hayot yo'llari tizimi.

**Shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi** — bu insonning uz xayotiy faoliyatining sub'ektiga aylanishi. Sub'ektlik insonning hayotdagi faol, mu-staqil holati va maqomi. U inson tug'ilishidanoq unga xos bulib, uning ilk psixologik namoyon bulishi - bolaning jonlanishi hisoblanadi. Yosh utgan sari u o'z shakllarini o'zgartiradi — insonda axloqiy, estetik, ijtimoiy va psixologik qo'zg'atuvchi sabablar paydo buladi. Inson o'z-o'zini anglash, mu-omala va faoliyat sub'ektiga aylanadi. Bu faollik ham shaklan, ham mazmunan o'zgaradi. Insonning qanchalik yoshi o'tsa, u shunchalik ko'proq o'z-o'zini rivojlantirish sub'ekti bo'ladi.

**Spontanlik**-o'z istagicha ixtiyoriga ko'ra harakat qilish, o'z-o'zicha tashabbus ko'rsatish

**Homiylik** — alohida shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan kam ta'minlangan oilalar, mux^ojlarga ko'rsatiladigan yordam. Voyaga yetmagan-larning (boshqa toifa insonlarning xam) shaxsiy va mulkiy huquk^darini himoya qilish shakli. Homiylikda vasiylikka qaraganda, ancha kengtoifadagi bolalar huquklari himoya qilinishi mumkin.

**Huquqbuzarlik** — biror-bir huquqni buzuvchi xatti-xarakat. Huquqbu-zarliklar ijtimoiy xavfli harakat va jinoyatlarga bulinadi.

**Hissiyot** — shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilargahamdao'z-o'ziga bo'lgan munosabat lar dan kelib chiqadigan kechinmalari.

**O'zaro munosabatlar** — jamoada ijtimoiy-psixologik iklimni shakllantirish asosi.

**O'z-o'zini anglash** -inson ongining eng oliy irodasi bulib,



o'zi haqidagi tasavvurlar — xulq-atvori, faoliyati, exgiyojlarini anglashda namoyon bo'ladi.

**O'z-o'zini tarbiyalash** — insonning uzida ijobiy xislatlarni shakllantirish va salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan, tashkillashtirilgan faoliyati.

**O'z-o'zini faollashtirish** — insonning uz shaxsiy mkoniyatlarini to'liq aniqlashga va rivojlantirishga qaratilgan doimiy intilishi.

**Emosional "zararlash"** — bevosita emosional holatlarni (qo'l, yuz xatti-harakatlari, intonasiya) uzatish orqali ta'sir ko'rsatish.

**Empatiya** — dunyoga boshqalar nazari bilan qarash, uni boshqalar kabi tushunish, boshqalarning xatti-harakatlarini ularning nuqtai nazariga ko'ra qabul qilish va shu bilan birga o'zining tushunchasini bildirishga qodirlik.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent 1997y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risi-da»gi Qonuni. 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining «Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetka-zuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni. 2016.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chorata-dbirlari to'g'risida»gi. PF-5198-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-sonli qarori. 2016 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261sonli qarori. 2017 yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 18 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning tizimi-dagi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda no-davlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi 991-sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi Toshkent -2022 y
10. Mirziyoev Sh.M. «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: O'zbekiston, 2016.
11. Mirziyoev Sh.M. «Qonun ustuvorligi va inson



manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi» mavzusidagi O'zbekiston Res-publikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2017.

12. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javob-garlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston. – 2017.

13. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.

14. Mirziyoev Sh.M. «Konstitusiya– erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimiz-ni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir» mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 25 yilligi-ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.

15. «Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari» T.: 2017

16. Karimova O. Oila huquqi asoslari – Toshkent: «O'qituvchi», 2003.

17. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi – Toshkent: Fan, 2006.

18. Xurvaliyeva T.L. Jo'rayeva S.N Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent. Malik Print. 2022.

19. Педагогический энциклопедический словарь – Москва: Владос, 2002.

20. Слостёнина В.А. Общая педагогика. – М.: Владос, 2003.

21. И.Г.Матыцина. Социальное воспитание дошкольников Брест БрГУ имени А.С. Пушкина 2018

22. Tarbiya/ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi: M.N.Aminov. Mas'ul muhar. A.Majidov. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

23.Z.S.Teshabayeva “Bolangiz bogchaga tayyormi” uslubiy qo'llanma T: MALIK PRINT 2020 y

24. Z.S.Teshabayeva Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish o'quv qo'llanma “Innovation rivojlanish

nashriyot-matbaa uyi” 2021 y.

25. Фаусек Юлия Ивановна Юлия Фаусек: Детский сад Монтессори. Редактор: Савушкин С. И. Издательство: Карапуз, 2011 г

26. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

27. SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Bahtiyor oila” uslubiy qo'llanma T: “HILOL- NASHR” 2022y 355 b

28. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. - T.: «Ma'naviyat», 2013.

29. Catarsi E. Pedagogy of the family. - Italiy.: I libri di Emil, 2012.

30. James H., Bray Mark Stanton. The Wiley-Blackwell Handbook of Family Psychology. –USA, Springer, 2012.

31. <http://www.edu.uz>–O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti.

32. <http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi va-zirligi sayti.

33. [www.mdo.uz](http://www.mdo.uz) – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va-zirligi sayti.

34. <http://www.president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.

35. <http://www.gov.uz>– O'zbekiston Respublikasi hukumati portali.

36. <http://www.lex.uz>– O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi sayti.



**Teshabayeva Zamira Sobirovna**

# **BOLALARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVI**

*Darslik*

Muharrir: X. Tahirov  
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva  
Musahhih: M. Yunusova  
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.  
Bosishga ruxsat etildi 25.05.2024 y.  
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Cambria"  
garniturası. Hisob-nashr tabog'i. 9,5.  
Adadi 100 dona. Buyurtma № 33.

**«Sarbon LLS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.**

**+998 (94) 673-66-56**



